

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
«IJTIMOIY- IQTISODIYOT» FAKULTETI
«IQTISODIYOT» KAFEDRASI**

dosent B.Barakatovning

**«Agrosanoat majmuasi
iqtisodiyoti»**

fanidan

MA'RUZALAR MATNLARI

BUXORO - 2008

Taqrizchilar:

Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti «Menejment» kafedrası dosenti, iqtisod fanlari nomzodi Ulashev X.A.

Buxoro Davlat Universiteti «Iqtisodiyot» kafedrası dosenti, iqtisod fanlari nomzodi Inoyatova M.H.

KIRISH

Qishloq xo'jaligining sanoat, transport, qurilish, aloqa, tayyorlov, ta'minot va savdo tarmoqlari bilan uyg'unlashuvi natijasida Agrosanoat majmuasi shakllandi. Uning asosiy maqsadi qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish, ularni tayyorlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yil davomida uzluksiz yetkazib berishdan iborat.

Shu sababdan, mamlakat agrosanoat majmuasini rivojlantirishga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan doimiy e'tibor berilib kelinmoqda. Buning natijasida, mustaqillik yillarida qabul qilingan qonunlarni eslatib o'tish kifoya. Jumladan, 1998 yilda «O'zbekiston Respublikasining:

- 1) Yer kodeksi to'g'risida»gi qonun,
- 2) «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi qonun,
- 3) «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonun,
- 4) «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonun.

Olib borilgan siyosat natijasida agrar sohada nodavlat sektorning salmog'i hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Bozor talablari va davlat ehtiyojidan kelib chiqib ishlab chiqarishning tarkibi o'zgartirildi. Paxta yakkahokimligiga barham berildi, g'allachilik tarmog'i keskin kengaytirildi. Chorvachilik tarmog'i deyarli xususiylashtirildi. Mamlakatda yetishtirilgan hosilni qayta ishlash darajasi va kimga qancha sotish masalalari mamlakat manfaatlaridan kelib chiqqan holda ijobiy hal qilinmoqda. Bu o'zgarishlar boshqa iqtisodiy fanlar singari «Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fani oldida ham yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Ayniqsa, agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarni imkon darajasida bir-biriga mutanosib rivojlantirish, ularni iqtisodiy manfaatlarini uyg'unlashtirish masalalari yanada kuchaymoqda.

Ma'ruza soatlarining taqsimoti

№	Mavzu nomlari.	Soat
---	----------------	------

1.	Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti fani predmeti, vazifalari va o'rganish uslublari.	4
2	Agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi soha va uning tarkibiy tuzilishi.	2
3	Agrosanoat majmuasining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash, iste'molchilarga yetkazib beruvchi sohasi va uning tarkibi.	2
4	Qishloq xo'jaligi agrosanoat majmuasining asosiy bo'g'ini va o'ziga xos xususiyatlari.	6
5	Agrosanoat majmuasining infratuzilmasi va tarkibiy tuzilmasi.	2
6	Agrosanoat majmuasida yer-suv munosabatlari va ulardan samarali foydalanish.	4
7	Qishloq xo'jaligida mehnat resurslari va ulardan samarali foydalanish.	2
8	Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot tannarxi va uni pasaytirish yo'llari.	6
9	Agrosanoat majmuasi tarmoqlari mahsulotlarining narxlari (bahosi).	6
10	Qishloq xo'jaligida kapital qo'yilma (investisiya)lar va ularning iqtisodiy samaradorligi.	4
11	Ilmiy-texnik taraqqiyot va qishloq xo'jaligini intensivlashtirish.	4
12	Qishloq xo'jaligining moddiy texnika resurslari va ulardan foydalanish.	4
13	“Qishloq xo'jaligi marketingi” tushunchasi, uning mohiyati va rivojlanish xususiyatlari.	2
14	Qishloq xo'jaligining yalpi va tovar mahsulotlari, ularning taqsimlanishi va ko'paytirish yo'llari.	4
15	Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash.	2
16	Agrosanoat majmuasida moliya-kredit tizimining amal qilish mexanizmi.	2
17	Yevropa hamjamiyatining yagona agrar siyosati.	2
Ja mi		60

Bozor munosabatlarini rivojlanishi biz uchun nisbatan yangi hisoblangan marketing, menejment, moliya va soliq, iflyatsiya, monopoliyaga qarshi kurash va raqobatni rivojlantirish kabi ko`plab iqtisodiy masalalarni chuqur o`rganishni talab qilinmoqda.

1-MAVZU: «AGROSANOAT MAJMUASI IQTISODIYO TI» FANINING PREDMETI, VAZIFALARI VA O`RGANISH USULLARI

Reja:

1. Agrosanoat majmuasining tarkibiy tuzilishi to`g`risida tushuncha.
2. «Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fanining predmeti, boshqa fanlar bilan bog`liqligi va o`rni.
3. «Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fanini o`rganish usullari.
4. «Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fanining vazifalari.
5. Agrosanoat majmuasi rivojlanishining asosiy muammolari.
6. Chet el davlatlari tajribasi va uning Respublikada joriy qilish yo`llari.

ADABIYO TLAR

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.: 1994 y. 251-267 betlar: Dehqonchilik taraqqiyoti – farovonlik manbai.
2. Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida. T.: 1995 yil, 58-75 betlar. Qishloq xo`jaligini isloh qilish. Agrar munosabatlarning yangi turini shakllantirish.
3. Hakimov R., Otaqulov M., Yusupov E., Yusupov M. Agrosanoat majmuasi -iqtisodiyoti. T.: 2004 yil. I va II boblar, 7-22 betlar.
4. Ishmuxammedov A.E. O`zbekiston milliy iqtisodiyoti. T.: 2004 yil. VII bob, 65-74 betlar. Agrosanoat rivojlantirishning asosiy muammolari. Chet el davlatlari tajribasi va uning Respublikada joriy qilinish yo`llari.
5. Abdug`aniev Abdulatif, Abdug`aniev Abduqahhor Abdulatipovich. Qishloqxo`jaligi iqtisodiyoti (darslik). T.: 2004 yil. II bob, 15-37 betlar.

1. AGROSANOAT MAJMUASINING TARKIBIY TUZILISHI TO`G`RISIDA TUSHUNChA

Agrosanoat majmuasi - qishloq xo`jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib beruvchi maqsadlarga bo`ysundirilgan tarmoqlar va xizmatlar yig`indisidan iborat.

O`zbekistonning agrosanoat majmuasiga qishloq xo`jaligi, agrosanoat tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish sohalari, qishloq

xo`jalik mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar va xizmatlar kiradi. Mahsulotlar ishlab chiqarishga qarab Agrosanoat majmuasi ikkita katta bo`linmadan iborat:

1) oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi agrosanoat majmuasi. Masalan, don, go`sht, sut va paxtachilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi agrosanoat majmualari;

2) oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan band bo`lmagan, ya'ni noziq-ovqat agrosanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish majmuasi. Masalan, mashinalar, mexanizmlar, traktorlar, suv nasoslari va shunga o`xshashlar.

Respublikamiz agrosanoat majmuasi to`rtta sohadan tashkil topgan, bular quyidagilar:

1-soha: Agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi soha. Bu sohaga quyidagi tarmoqlar kiradi: agrosanoat majmuasi korxonalarini uchun mashinalar, traktorlar, kombaynlar, stanoklar va ehtiyot qismlari ishlab chiqaradigan mashinasozlik, mineral o`g`itlar va ximikatlar ishlab chiqaruvchi kimyo sanoati tarmoqlari, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi, saqlovchi va tashuvchi sohasiga kerakli bo`lgan vositalarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar kiradi.

2-sohaga: qishloq xo`jaligining o`zi, lekin qishloq xo`jaligi agrosanoat majmuasining asosini tashkil etadi va majmuaning boshqa sohasiga kiruvchi tarmoqlar asosan qishloq xo`jaligi mahsulotlari hisobiga faoliyat yuritadilar va xizmat ko`rsatadilar.

Ma'lumki, qishloq xo`jaligi ikkita katta sohadan iborat:

- 1) dehqonchilik (o`simlikchilik);
- 2) chorvachilik.

Bular to`g`risida batafsil keyinroq to`xtalib o`tamiz.

ASMning 3-sohasi, bu soha qishloq xo`jalik mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi, tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar yig`indisidan iborat, masalan meva sharbatlari ishlab chiqaruvchi zavodlar, go`sht, sut va paxta zavodlari, yog`-moy zavodlari, junni, terini, qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlash natijasida yetishtirilgan mahsulotlarini sotish bilan shug`ullanuvchi korxonalar 3-sohaning tarkibidir.

4-soha –bu ASMning infratuzilmasi bo`lib, buning o`zi ikkiga bo`linadi, uning **birinchi qismi** ishlab chiqarish infratuzilmasi, **ikkinchisi** esa ijtimoiy (sosal) infratuzilma.

Birinchi tizimning tarkibiga:

- 1) texnika ta'minoti va ta'mirlash kabi servis xizmatlari;
- 2) irrigatsiya va melioratsiya xizmatlari;
- 3) kimyoviy xizmatlar;
- 4) zooveterinariya xizmatlari;
- 5) biologik xizmat ko`rsatuvchi korxonalar kiradi.
- 6) 2005 yildan boshlab ASMga yangi xizmat turini ko`rsatuvchi – suvdan foydalanuvchilar uyushmasi (SFU) tashkil etildi. Bu irrigatsiya va meliorasiyaning yangi xizmat turi hisoblanadi.

Infratuzilmaning ikkinchi qismi ijtimoiy (sotsial) infratuzilmaga quyidagilar kiradi:

1) aholiga maishiy xizmat ko`rsatish tizimi, transport turlari bo`yicha yo`lovchilarni tashish tizimi;

2) uy-joy xo`jaligi, maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimi, maktab ta'limi tizimi, sog`liqni saqlash tizimi;

3) sport-sog`lomlashtirish tizimi, madaniy-maishiy xizmatlar, kommunal xizmatlar tizimi (aholi dam oladigan bog` va maskanlar) va boshqalar;


4) qishloqlarda ko`chalarni yoritish bo`yicha xizmatlar, o`t o`chiruvchilar xizmati va shunga o`xshashlar.

ASMning infratuzilmasi to`g`risida keyinchalik 5-mavzuda to`la va batafsil o`rganib chiqiladi.

1-sxemada O`zbekistonda ASMning tarkibiy tizimi sxemasi berilgan.

1- sxema.

O`zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining tarkibi.



2. «AGROSANOAT MAJMUASI IQTISODIYOTI» FANINING PREDMETI, BOSHQA FANLAR BILAN BOG`LIQLIGI VA O`RNI

Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti fani – bu qishloq xo`jaligining sanoat, savdo, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va aholiga yetkazib berish, agrar soha uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi sohalar bilan uzviy bog`langan fan sifatida shakllangan fandır.

Agrosanoat majmuasi tarkibida infratuzilma muhim ahamiyatga egadir, chunki ASM iqtisodiyoti fani infratuzilmani ikkiga bo`lib o`rganadi, uning birinchi qismi – ishlab chiqarish infratuzilmadan iborat bo`lsa, ikkinchi qismi ijtimoiy infratuzilmadir. Bu tuzilmalarning tarkibini ushbu fan bir tartibga solib turadi.

Agrosanoat iqtisodiyoti fani doimiy rivojlanishda bo`lib, yuz berayotgan o`zgarishlarni, ulardan ishlab chiqarish omillari bo`lgan mehnat resurslarini, yer fondini, asosiy ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanishni, tadbirkorlik imkoniyatlarini O`zbekiston iqtisodiyotiga olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning agrosanoat majmuasi sohalarida amalga oshirishda yutuq va kamchiliklarni o`rganib, ularning yechimlari to`g`risidagi bilimlarni o`zida mujassamlashtiradi. Bu fan o`zining predmetini quyidagicha o`rganadi, eng avvalo agrosanoat integrasiyasini – ya'ni sanoat bilan qishloq xo`jaligini bir-biri bilan singib ketishi va yuksalib borishini, chambarchas bog`liq ekanligini, texnologik jihatdan bir-birini to`ldiruvchi tarmoq ekanligini o`rganadi. Masalan, «O`zmevasabzavotsanoatxolding» kompaniyasiga qarashli shirkat-zavodlar, sutni qayta ishlovchi ayrim korxonalar, issiqxonalar va parandachilik fabrikalari shular jumlasidandir.

ASMDa muhim o`rinni qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va tayyor tovarlarni iste'molchilarga yetkazib berish bilan shug`ullanuvchi tarmoqlar egallaydi.

ASM iqtisodiyoti fani qishloq xo`jaligi marketingini alohida mavzu sifatida o`rganadi, chunki hozirgi paytda qishloq xo`jaligini rivojlantirishda ma'lum bir iste'molchilarning talablarini aniqlash va bu talablarni qondirishga qaratilgan marketingga ko`proq e'tibor berilmoqda.

Ma'lumki, **marketing** – inglizcha so`z bo`lib, market – bozor – tadbirkor muhitini, bozorni, iste'molchining aniq talabini va iste'molchilar uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni ko`zda tutishni o`rganishga asoslangan, qishloq xo`jalik korxonalarining ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko`rsatish bilan bog`liq bozor kontseptsiyasidir.

Marketingni nazarda tutib ish yuritishda qishloq xo`jalik mahsulotlarini sotish bo`yicha **menejer** tashkiliy tizidagi boshliqlardan biri bo`lib, menejerning vazifasi bozorning tovarlar va xizmatlar bilan to`lgan qiyin bir sharoitlarda korxonaning uzluksiz va samarali ishlashini ta'minlashdan iborat.

ASM iqtisodiyoti fani O`zbekistonning moliya va kredit siyosatini agrosanoat majmuasi tarmoqlari iqtisodiyotidagi o`rnini inobatga olib, ularni alohida mavzu sifatida o`rganadi.

Bu fan, xorijiy davlatlar agrar siyosatini o`rganishga katta e'tibor berib, Evropa hamjamiyati davlatlarining yagona agrar siyosati to`g`risida ham qisqacha ma'lumotlar beradi.

«Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fani har bir tarmoq iqtisodiyotini alohida-alohida emas, balki ulardan har biriga tegishli ma'lumotlar asosida pirovard (so`nggi) mahsulotni ishlab chiqarishni ko`paytirish, mehnat unumdorligini oshirish va mahsulotlar sifatini yaxshilashni ta'minlash yo`llari kabi masalalarni o`rganadi.

«Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fani «Iqtisodiy nazariya», «Iqtisodiy statistika», «Iqtisodiy geografiya», «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti», «Qishloq xo`jaligi huquqi», «Sanoat iqtisodiyoti», «Marketing», «Menejment», «Moliya va soliq» kabi qator fanlar bilan uzviy bog`liqdir.

Shu sababli o`z predmetini ko`plab fanlar yordamida o`rganadi, boshqa iqtisodiy fanlarning rivojiga hissa qo`shadi.

Masalan, «Qishloq xo`jaligi statistikasi» fani bilan bog`liqligi shundaki, bu fan orqali erdan foydalanish va yaroqli erlar statistikasini, dehqonchilik statistikasini, chorvachilik statistikasini, qishloq xo`jaligining asosiy fondlarini, qishloq xo`jaligi mahsulotlari tannarxi statistikasi kabi mavzular bilan ham chambarchas bog`liqdir.

Agrosanoat majmuasi o`zining predmetini yana quyidagi tartibda o`rganadi: agrosanoat integratsiyasi, agrosanoat majmuasining mohiyatini va uning tarkibini ochib beradi.

Agrosanoat integratsiyasi esa sanoat va qishloq xo`jaligining bir-biriga singib ketishi va bir butun tizimga aylanishidir.

Hozirda qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi bilan sanoatning bir butun ko`rinishini olayotganini ko`plab misollar bilan ifodalash mumkin. Jumladan, «O`zmevasabzavotuzumsanoatxolding» kompaniyasiga qarashli shirkat-zavodlar, sutni qayta ishlovchi ayrim korxonalar, issiqxonalar va parandachilik fabrikalarini misol qilib olsa bo`ladi. Bu sohalarda bir yuridik maqomga ega bo`lgan korxonada qishloq xo`jalik mahsulotlari ishlab chiqariladi va shu korxonaning o`zida u dastlabki qayta ishlash jarayonidan o`tadi, ba'zan esa to`la qayta ishlanadi. Bu korxonalarda ishlab chiqarish qishloq xo`jalik darajasidan sanoatlashib ketgan.

Doimiy rivojlanishda bo`lgan bu fan agrosanoat majmuasi tarmoqlari iqtisodiyotida yuz berayotgan o`zgarishlarni, ulardagi ishlab chiqarish omillari: mehnat resurslarini, yer fondini, asosiy ishlab chiqarish vositalarini va tadbirkorlik imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo`llarini o`rganadi.

ASMDa muhim o`rinni qishloq xo`jalik mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berish bilan shug`ullanuvchi tarmoqlar egallaydi, bu ASMning 3-sohasidir. Umuman, bu to`g`risida yuqorida biz to`xtalib o`tdik. «Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fani har bir tarmoqning iqtisodiyotini alohida o`rganmasdan, balki ularning har biriga tegishli bo`lgan ma'lumotlar asosida pirovard (oxirgi) mahsulotni ishlab chiqarishni ko`paytiradi, bu mahsulotlarning tannarxini arzonlashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilashni amalga oshirish kabilarni o`rganadi.

«Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fani «Marketing», «Menejment», «Iqtisodiy statistika», «Iqtisodiy geografiya», «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti», «Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarish to`g`risidagi huquqlar», «Moliya va soliq», «Qishloq xo`jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish» kabi fanlar bilan bog`liq.

3. «AGROSANOAT MAJMUASI IQTISODIYO`TI» FANINI O`RGANISH USULLARI

Barcha iqtisodiy fanlar o`z predmetlarini o`rganishda qanday usullardan foydalansa ASM iqtisodiyoti fani ham shu usullardan foydalanadi. Lekin bu fanlar o`z xususiyatlaridan kelib chiqib, ayrim usullardan ko`proq va ayrim usullardan kamroq foydalanadi.

«ASM iqtisodiyoti» fani o'z predmetini o'rganishda quyidagi usullardan ko'proq foydalanadi, jumladan:

- 1) iqtisodiy tahlil;
- 2) iqtisodiy taqqoslash;
- 3) statistik guruhlash;
- 4) monografik usul;
- 5) balans usuli;
- 6) istiqboli rejalashtirish;
- 7) ilg'or tajribadan foydalanish;
- 8) ma'lumotlarni jadval va grafiklarda tasvirlash;
- 9) biznes reja tuzish;
- 10) sintez usuli;
- 11) induksiya va deduksiya;
- 12) iqtisodiy matematika usul kabilar.

Induktiv usul deganda – empirik bilimdan abstraksiyaga o'tib, nazorat xulosalar chiqarish, so'ngra ulardan iqtisodiy siyosatga o'tish tushuniladi.

Deduktiv usul qo'llanganda esa iqtisodiy faktlar tahliliga o'tiladi. Bunda ilgari surilgan xulosa qaytadan faktorlar asosida tekshirib ko'riladi. Bu har ikkala usul bir-birini to'ldiradi.

«ASM iqtisodiyoti» fani ma'lum darajada tarixiy fandır, lekin shu bilan birga rivojlanib borayotgan fanlar qatoriga kiradi. Shu sababdan ham dunyo iqtisodiyotida va O'zbekiston iqtisodiy siyosatida yuz berayotgan hodisalar «ASM iqtisodiyoti» fanining rivojlanishiga bevosita ta'sir etadi. Demak, bu fan o'z predmetini o'rganishda tarixiy – dialektik usuldan ham keng foydalanadi. Bu usulda majmuaga kirgan bir tarmoqda yuz bergan o'zgarish uning boshqa tarmoqlar faoliyatida o'z aksini topishi doimiy hisobga olinib turiladi.

Masalan, dehqonchilikni rivojlantirishdagi o'zgarishlar chorvachilik sohasini o'zgarishiga o'z aksini topadi. Chorvachilikni muvaffaqiyatli rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri, yuqori sifatli yem-xashakning yetarli darajada bo'lishi va bundan to'g'ri foydalanishdir. Dehqonchilik mahsulotlarini etishtirish esa ekin maydonlarining hajmiga va qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligiga bog'liq.

Chorva mollarini yem-xashak bilan ta'min etish rejalarini tuzishda, chorvachilik mahsulotlari yetishtirish biznes rejalarini tuzishda, mollarning yem-xashak bilan ta'min etish ko'rsatkichlarini hisoblab chiqishda yem-xashak resurslarning manbalari muhim ahamiyatga egadir.

Tahlil (analiz) so'zi grekchadan olingan «analysis» bo'lib, bo'lakchalarga bo'lish yoki bo'lakchalarga ajratish kabi ma'nolarni anglatadi.

Bir iqtisodchi olim xo'jalikni iqtisodiy tahlil qilishga baho berib, shunday deb yozgan: «Ishbilarmon iqtisodchi quruq tezislar yozish o'rniga faktlarni, raqamlarni va ma'lumotlarni o'rganish ustida ishlaydi, amaliy tajribani tahlil qiladi va xato mana bu yerda, uni mana bunday qilib tuzatish kerak» deb yozgan.

Iqtisodiy tahlil xo'jalikni, mulk shaklidan qat'iy nazar, ichki rezervlarini aniqlashga, shartnomaviy rejalarini oshirib bajarishga, yangi tadbirlarni belgilashga imkon ochib beradi.

Iqtisodiy taqqoslash usuli – tahlil qilishning ko'p qo'llaniladigan usulidir. Bu usulda bir necha iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanadi.

Masalan:

1) hisobot ko'rsatkichlari shartnomaviy rejada belgilangan ma'lumotlar bilan taqqoslanadi.

2) mazkur yildagi, ya'ni joriy yil natijalari bazis yil, ya'ni avvalgi yillardagi yoki ma'lum bir davrdagi ko'rsatkichlar bilan solishtiriladi. Hisobot davridagi ish ko'rsatkichlari o'tgan (bazis) yillardagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslab ko'rilganda, shirkat yoki fermer, dehqon xo'jaligi iqtisodiyotida bir necha yil mobaynida ro'y bergan o'zgarishlarni belgilab olish imkonini beradi.

3) shirkat, fermer, pudratlarning yutuqlari viloyat, tuman bo'yicha erishilgan ko'rsatkichlar hamda ilg'or xo'jalik va ilmiy tadqiqot institutlarining ish natijalari bilan solishtiriladi.

Shunday qilib, taqqoslab ko'rish usulida xo'jalik ishlab chiqarishda o'zaro bog'liq bo'lgan ko'p ko'rsatkichlarni bir-biriga solishtirish mumkin.

Masalan, erdan foydalanishni taqqoslab ko'rganda har bir gektar qishloq xo'jaligi hisobiga qancha daromad olishni, har 100 gektar qishloq xo'jalik eri hisobiga chorva mahsulotlari yetishtirishni, mehnat unumdorligini, mahsulot tannarxini, texnikadan foydalanishni, ishchi-xodimlarning moddiy va madaniy turmush tarzini yaxshilanishini va boshqa ko'rsatkichlarni taqqoslash mumkin.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini yuksaltirishda ASMning ahamiyati beqiyosdir. Uning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni tayyorlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish tizimining maqsadga muvofiq ishlarini ta'minlashdan iborat. Bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan mexanizmni yaratish, mahsulot sifatini oshirish, ishlab chiqarishning ma'qul shakllarini vujudga keltirish, mahsulot tannarxini arzonlashtirish kabi masalalarni ochib berishdir.

ASMni rivojlantirish esa aholining turmush darjasini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Shu sababli ham mamlakat agrosanoat majmuasining rivojlanishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat tomonidan doimiy ravishda e'tibor berib kelinmoqda. Buning natijasida mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotini yuritish uchun zarur qonuniy baza yaratilib, ular mutassil takomillashtirilib borilmoqda. Olib borilgan va olib borilayotgan siyosat natijasida qishloq xo'jaligi sohasida nodavlat sektorining salmog'i hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Agrar sohada ishlab chiqarish asosan shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklari shaklida tashkil etildi. Bozor talablari va davlat ehtiyojidan kelib chiqib ishlab chiqarishning tarkibi o'zgarildi. Paxta yakkahokimligiga barham berilib, g'allachilik tarmog'i keskin kengaytirildi. G'allachilik bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashgan maxsus tizim yuzaga keldi. Chorvachilik tarmog'i esa deyarli xususiy lashtirildi.

Mamlakat ASMsinin g asosiy maqsadi aholini sifatli oziq-ovqat va xalq iste'moli tovarlari bilan talab darajasida ta'minlashdan iborat. Bunday muammo yirik siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, uning talab darajasida hal etilishi aholi turmush darjasini yuksaltiradi. Shuning uchun ham bu masalaga Respublika hukumati tomonidan alohida e'tibor berilmoqda, ya'ni

ASMga kiruvchi barcha tarmoqlarni rivojlantirish bilan bog`liq bo`lgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

«Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» faning vazifasi esa talabalarni (va shu fanni o`rganuvchilarni ham) ASM tarmoqlarda iqtisodiyotning dolzarb masalalari bo`lmish: agrosanoat integratsiyasi, ASMsi tarmoq tarkibi, ular rivojlanishining hozirgi holati, tarmoqdagi ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish yo`llarini izlab topish, marketing, menejment, moliya va kredit, soliq siyosatining ASMsi tarmoqlarini rivojlantirishdagi o`rni to`g`risidagi bilimlar bilan tanishtirishdir.

«ASM iqtisodiyoti» fanini o`rganish tufayli talabalar (va shu fanni o`rganuvchilar) ASM to`g`risida, uning iqtisodiy masalalari haqida minimal bilimlarga ega bo`ladilar. «ASM iqtisodiyoti» fani talabalarning iqtisodiy bilimlarini yanada mukammal bo`lishini ta'minlab, ularni ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonida to`g`ri qarorlar qabul qilishni o`rgatadi.

O`zbekiston hukumatining iqtisodiy siyosatini o`rganish va uning tegishli qismini mutaxassislarga yetkazish, «ASM iqtisodiyoti» faning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

«ASM iqtisodiyoti» fani talabalarga bir-biri bilan texnologik jihatdan bog`liq bo`lgan ko`plab mutanosib rivojlanishini zarurligi to`g`risidagi bilimlarni o`rgatadi, aholining turmush darajasi, birinchi navbatda ASM tarmoqlarining rivojlanganlik darajasiga bog`liq ekanligini isbotlab beradi.

4. «AGROSANOAT MAJMUASI IQTISODIYO TI» FANINING VAZIFALARI

Iqtisodiy islohotlar Respublikamizda birinchi navbatda agrar sektorda boshlandi. Buning o`ziga xos ramziy ma'nosi bor, chunki aholining 60% dan ko`prog`i qishloq joylarida yashab mehnat qilmoqda, yalpi ichki mahsulotning 33%, valyuta tushumining 55% i, oziq-ovqat mahsulotlarining 90% i agrar sektor hissasiga to`g`ri keladi (2004 yil bo`yicha).

«Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» faning vazifalari mutaxassislarni bozor iqtisodiyoti sharoitida agrosanoat majmuasi tarmoqlarining iqtisodiy muammolari, ularning hozirgi holati, va echimlari to`g`risidagi kompleks bilimlar bilan boyitish, mutaxassislarga agrosanoat tarmoqlarida mavjud muammolar va ularning echimi to`g`risida to`g`ri qaror va xulosalar qabul qilishlari uchun zarur ma'lumotlar berish, ASMni rivojlantirishda davlat siyosatini o`zida mujassamlashtirish va ular bilan bo`lajak va amaldagi mutaxassislarni qurollantirishdir.

«Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fanining vazifasi o`quvchilarni ASMsi tarmoqlarida iqtisodiyotning eng muhim, dolzarb masalalari hisoblangan agrosanoat integratsiyasi, ASMning tarmoq tarkibi, ularing rivojlanish holati, tarmoqlardagi ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish yo`llarin bilish uchun tegishli bilimlarni o`rganish.

«Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fani esa «Iqtisodiy nazariya», «Mikroiqtisodiyot», «Makroiqtisodiyot», «Iqtisodiy statistika», «Iqtisodiy

geografiya», «Marketing», «Menejment», «Moliya va kredit» kabilar bilan bogʻlangan holda ASM tarmoqlarini rivojlantirishdagi oʻrnini belgilab beradi.

«ASM iqtisodiyoti» fani talabalarning iqtisodiy bilimlarini yanada mukammal bilishini ta'minlab, ularni ishlab chiqarishni tashkil etishda toʻgʻri xulosa va qarorlar qabul qilishga oʻrgatadi.

Oʻzbekiston hukumatining iqtisodiy siyosatini oʻrganish ham ushbu fanning vazifasi hisoblanadi va bir-biri bilan analogik jihatdan bogʻliq boʻlgan tarmoqlarining mutanosib rivojlanishi zarur ekanligi toʻgʻrisidagi bilimlarni oʻrgatib, aholi turmush darajasi ASM iqtisodiyoti tarmoqlari qanday rivojlanganlik darajasi va ularning mutanosib rivojlanishiga bogʻliq ekanligini isbotlab, ularning iqtisodiyoti qanday holatda, ya'ni yuqori sur'atlar bilan yoki past quvvatlar bilan rivojlanishini isbotlaydi.

5. AGROSANOAT MAJMUASI RIVOJLANISHINING ASOSIY MUAMMOLARI

Respublikamizda mustaqillik yillarida Agrosanoat majmuasini rivojlantirish uchun yaxshi yutuqlarga erishilgan boʻlsa-da, lekin ayrim kamchiliklarga ham yoʻl qoʻyildi va iqtisodiy islohotlar jarayonida yangi muammolar ham kelib chiqdi. Xoʻsh, bu muammolar nimalardan iborat ?

Oʻzbekistonning agrar sohasini rivojlantirish tajribasi shuni koʻrsatadiki, koʻpchilik boʻgʻinlarda soha kadrlari yangicha ishlashga, ya'ni bozor munosabatlariga toʻla moslasha olmayaptilar. Bunday hol tumanlar va xoʻjaliklar oʻrtasida koʻproq koʻzga tashlanmoqda. Toʻgʻri, har yili agrar sohada kadrlarni oʻqitish, malakasini oshirish amalga oshirilmogda, lekin koʻpchilik rahbar kadrlar ish yuritishni bozor munosabatlari asosida emas, balki eskicha – ma'muriy buyruqbozlik asosida olib borilmogda.

6. CHET EL DAVLATLARI TAJRIBASI VA UNING RESPUBLIKADA JORIY QILISH YOʻLLARI

Oʻzbekistonda ASMsini yuksalish yoʻllaridan biri mamlakatda chet el tajribasini joriy qilishdir. Bu jihatdan Markaziy Osiyodagi eng yirik korxonalaridan biri hisoblangan «Toshkent traktor zavodi» davlat aksiyadorlik birlashmasi boʻlib, bu yerda xorij sarmoyasi jalb etilib, bu ikki yoʻnalishda olib borilmogda. Buning bir yoʻnalishi «KEYS-NYu XOLDING» firmasining universal-haydov traktorlariga butlovchi (komplektlovchi) qismlar ishlab chiqarish boʻlsa, uning ikkinchi yoʻnalishi Xitoy krediti asosida mini traktorlar tayyorlashdir. Bunday mini traktorlar va boshqa qishloq xoʻjalik texnikalarini fermer xoʻjaliklariga, shirkat va dehqon xoʻjaliklariga moʻljallab sotishdir. Lekin ishlab chiqarilgan texnikalarning taqchilligini bartaraf etish bilan qishloq xoʻjalik korxonalari oʻzining moddiy-texnika bazasiga ega boʻladi deb aytolmaymiz, chunki ushbu korxonalarni shu ishlab chiqarilgan texnikalarni

sotib olish qobiliyati pastligini ham inobatga olish kerak, sabab ularning sotish bahosi yuqoriligidir.

Respublikamizdagi «O`zqishloqxo`jalikmashxolding» kompaniyasiga qarashli ayrim korxonalarda esa eksport imkoniyatidan yetarli darajada foydalanilmayapti, ushbu korxonalarda mahsulot eksporti bo`yicha aniq belgilangan dasturning o`zi yo`q.

Rivojlangan xorij davlatlarida lizing xizmatiga alohida ahamiyat berilgan. Masalan, AQShni olib qaraylik, bu erda birinchilardan bo`lib joriy etilgan lizing xizmat turi ko`plab davlatlarda qo`llanilmoqda. O`zbekistondagi iqtisodiy tarkibiy o`zgarishlar ham ushbu xizmat turining afzalligidir.

Vazirlar Mahkamasi 1999 yil 30 oktyabrdagi qaroriga asosan, Respublikamiz qishloq xo`jaligini zamonaviy texnika bilan ta'minlash va agrar soha mashinasozligini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida «O`zqishloqxo`jalikmashlizing» kompaniyasi tashkil etildi. Kompaniya o`z faoliyatini boshlagan 2000 yilning o`zida lizing asosida agrar sohaga 700 mln. so`mlik miqdorda 471 ta texnika etkazib berdi. O`sha yillari texnikaga bo`lgan talabning yuqoriligi lizing hajmini oshirish zarurligini taqozo etardi. Buning uchun past foizli yirik miqdordagi kredit mablag`larini jalb etish, mashinasozlik zavodlari bilan kompaniya faoliyatini muvofiqlashtirish, hisob-kitob mexanizmini takomillashtirish, shirkat, fermer va boshqa qishloq xo`jalik korxonalariga imtiyozlar berish zarur edi, bu holatni Vazirlar Mahkamasi o`zining 2000 yil 2 noyabrdagi qarori bilan ushbu muammoni hal etdi.

Demak, o`tgan yillar «O`zqishloqxo`jalikmashlizing» kompaniyasi uchun shakllanish va oyoqqa turish yili bo`ldi. Ishni to`la yo`lga qo`yish va lizing xizmatini keng miqyosda amaliyotga kiritish uchun bir qancha masalalarni bosqichma-bosqich hal etish lizing bo`ladi. «O`zqishloqxo`jalikmashlizing» kompaniyasi O`zbekistonning bozorida faoliyat ko`rsatayotgan eng yirik tashkilot hisoblanadi. O`tgan 2003 yilda kompaniyaning joylardagi 13 ta filiali orqali 2339 ta traktor, 100 ta «KEYS-2002» rusumli paxta tozalash mashinasi va 494 ta turli xildagi texnika vositalari shirkat va fermer xo`jaliklariga yetkazib berildi.

Ushbu kompaniyaning 2003 yil, 2004 yil faoliyati yakuni bo`yicha moliya bozorida O`zbekiston iqtisodiyotida o`zining muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlatdi. Birinchidan, agrar sohaning lizingga texnikalarni berish sohasi joriy etildi, ikkinchidan esa, mulk shaklidan qat'iy nazar tarmoqdagi jamoalarga davlat o`z g`amxo`rligini ayamadi. Lizing xizmati joriy etilgach odamlar ish bilan ta'minlandi va ishlab chiqarish samaradorligi ham oshib bordi, qishloq xo`jaligi mashinasozligi korxonalarining ishi ham oldingi yillarga nisbatan ancha yaxshilandi. «O`zqishloqxo`jalikmashlizing» kompaniyasi ayni paytda o`z mijozlariga berilgan texnika qiymatining 15% ini oldindan to`lashni taklif qilib xo`jaliklarga katta imkoniyat yaratdi. Lekin xo`jaliklardagi texnikaning to`liq qiymati to`languncha, texnika kompaniyaning mulki hisoblanadi. Shuning uchun ham xo`jaliklar lizingga olingan texnikadan samarali foydalanishlari va uning to`g`ri ishlatilishini nazorat qilish faqat

xo`jaliklarning emas, balki shu bilan birga lizing kompaniyasining ham bevosita faoliyatiga kiradi.

Bugungi kunga kelib, lizing xizmati qishloq xo`jalik korxonalarini uchun, ayniqsa fermerlar uchun katta imkoniyat yaratib berdi va fermerlar ko`plab texnika olish imkoniyatiga ega bo`ldilar. Ilgari esa fermer biron-bir texnika vositasini olish uchun shirkat xo`jaliklariga yoki MTPga murojaat qilardi, bu esa ortiqcha tashvish bilan bir qatorda qo`shimcha xarajat qilishga ham olib keladi. Bugungi kunda esa lizing tufayli fermer o`zining mashina – traktorlariga ega bo`lmoqda.

Shunday qilib, texnikalarning lizing asosida berilishi raqobatni kuchaytirishga, texnik xizmat sifatini yaxshilashga va yetishtirilayotgan mahsulot tannarxini birmuncha pasayishiga yaxshi omil bo`ldi.

TAKRORLASH VA MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. «Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fani nimani o`rganadi?
2. Fanning predmeti va o`rganish usullarini aytib bering.
3. «Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fanining boshqa fanlar bilan bog`liqligi.

2-MAVZU: AGROSANOAT MAJMUASI TARMOQLARI UCHUN ISHLAB CHIQUARISH VOSITALARINI ISHLAB CHIQUARUVCHI SOHA VA UNING TARKIBIY TUZILISHI

Reja:

1. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi sohaning tarkibiy tuzilishi, bu sohaning ahamiyati va iqtisodiyotda tutgan o`rni.
2. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi sohaning hozirgi holati va rivojlanish yo`nalishlari.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida. T.: 1995 yil, 58-75 betlar. Qishloq xo`jaligini isloh qilish. Agrar munosabatlarning yangi turini shakllantirish. 228-246 betlar. Chuqur tarkibiy o`zgarishlarga erishish – barqaror iqtisodiy o`sishning asosiy sharti.
2. Hakimov R. va boshqalar. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. T.: 2004 yil. 23-24 betlar.
3. O`zbekiston qishloq xo`jaligi G`G` 2003 yil, 12-son, 4-6 betlar. Kichik texnika vositalari.

1. AGROSANOAT MAJMUASI TARMOQLARI UCHUN ISHLAB CHIQUARISH VOSITALARINI ISHLAB CHIQUARUVCHI

SOHANING TARKIBIY TUZILISHI, BU SOHANING AHAMIYATI VA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNINI

ASM tarmoqlari uchun ishlab chiqaruchi soha agrosanoat majmuasidan 4 ta sohalanish birinchi hisoblanadi. Bu sohaga ASM tarkibidagi korxonalar va tarmoqlar uchun kerakli ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqariladi. Ularning tarkibiy tuzilishi qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati, neft mahsulotlari sanoati, mikrobiologiya va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi, stanoksozligi va qurilish materiallari sanoati va boshqalardan tarkib topgan.

1-sohadagi tarmoqlarning asosiy maqsadi ASM tarkibidagi, ayniqsa qishloq xo'jaligiga irrigatsiya-melioratsiya, zooveterinariya, elektrlashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi, qishloq xo'jalik mahsulotlarni qayta ishlovchi, paxta tozalash sanoati, don mahsulotlari, meva-sabzavot, uzum, go'sht-sut sanoati korxonalarini uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalarini etkazib berish bilan ta'minlashdan iborat.

Demak, 1-sohaning rivojlanishi ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, elektrlashtirish natijasida jonli mehnat sarfini kamaytirib, o'tmish mehnatdan samarali foydalanib, mehnat xarakterini o'zgarishishiga ta'sir etadi, oddiy mehnat industrilashgan mehnatga aylanib, mehnat unumdorligi oshadi.

Markaziy Osiyodagi eng yirik korxonalardan biri «Toshkent traktor zavodi» davlat aksiyadorlik birlashmasidir. Bu erda xorij sarmoyasini jalb etish ikki yo'nalishda olib borilmoqda. Birinchisi, bu «KEYS-NYu XOLDING» firmasining universal-haydov traktorlariga butlovchi (komplektlovchi) qismlar ishlab chiqarish bo'lsa, uning ikkinchi yo'nalishi Xitoy krediti asosida mini traktorlar tayyorlashdir. Bunday kichik texnikalarni fermer, dehqon va shirkat xo'jaliklariga yetkazib berishdir.

Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 30 oktyabrdagi qaroriga asosan, O'zbekiston qishloq xo'jaligini zamonaviy texnika bilan jihozlash va ASMning 1-sohasi mashinasozlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida «O'zqishloqxo'jalikmash-lizing» kompaniyasi tashkil etildi. Ushbu kompaniya o'z faoliyatini boshlagan yilda, 2000 yilda lizing asosida 700 mln. so'm miqdordagi 471 dona texnika yetkazib berdi. Lekin, o'sha paytda texnikaga bo'lgan talabning yuqoriligi lizing hajmini oshirish zarurligini taqozo yetardi. Buning uchun past foizli yirik miqdordagi kredit mablag'larini jalb etish, mashinasozlik zavodlari bilan kompaniya faoliyatini muvofiqlashtirish, hisob-kitob mexanizmini takomillashtirish, shirkat, fermer va boshqa qishloq xo'jalik korxonalariga imtiyozlar berish zarur edi. Shundan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 2 noyabrdagi qarori bilan ushbu muammolarni hal etishga qaratildi, bu esa ishni to'la yo'lga qo'yish va lizing xizmatini keng miqyosida amaliyotga kiritish uchun bir qancha masalalarni bosqichma-bosqich hal etishga qaratildi. «O'zqishloq-xo'jalikmashlizing» kompaniyasi Respublikamiz lizing bozorida faoliyat ko'rsatayotgan eng yirik tashkilot hisoblanadi. O'tgan 2003 yilda kompaniyaning joylardagi 13 ta filiali orqali 2339 ta traktor, 100 ta «KEYS-2002» rusumli paxta tozalash mashinasi


va 494 ta turli xildagi texnika vositalari shirkat va fermer xo`jaliklariga yetkazib berildi.

Ushbu kompaniya ayni paytda o`z mijozlariga berilgan texnika qiymatining 15% ini oldindan to`lashni taklif qilib, xo`jaliklarga katta imkoniyat yaratdi. Lekin xo`jaliklardagi texnikaning to`liq qiymati to`languncha, texnika kompaniyaning mulki hisoblanadi. Shuning uchun ham xo`jaliklar lizingga olingan texnikadan samarali foydalanishlari va uning to`g`ri ishlatilishini nazorat qilish faqat xo`jaliklarning emas, balki shu bilan birga lizing kompaniyasining ham bevosita faoliyatiga kiradi.

«O`zqishloqxo`jalikmashlizing» kompaniyasining lizing xizmati fermerlar uchun katta imkoniyat yaratdi, chunki ilgari fermer biron-bir vositasi uchun shirkat xo`jaliklariga yoki mashina traktor parkiga (MTP) murojaat qilar edi, bu esa fermerga ortiqcha tashvish keltirib va qo`shimcha xarajat qilishga olib kelardi. Bugungi kunda esa lizing tufayli o`zi mashina – parkini tuzatayotgan fermerlar ham ko`p. Texnikaning lizing asosida berilishi raqobatning kuchayishiga, xizmat sifatini yaxshilashga va etishtirilgan mahsulot tannarxini kamayishiga ham olib keldi.

Agarda O`zbekistonda ASMning 1-sohasi yaxshi rivojlanmasa, kerak bo`lgan ishlab chiqarish vositalarini va shunga o`xshash boshqa texnikalarni chet davlatlardan sotib olishga to`g`ri keladi, bu esa katta miqdordagi moliyaviy resurslarni talab qiladi.

ASM 1-sohasining tarkibiy tuzilishi.



ASM iqtisodiyotining 2-mavzusiga doir qo`shimcha ma'lumot uchun qishloq xo`jaligi mashinasozligi bo`yicha «O`zbekiston qishloq xo`jaligi» jurnalining 2003 yil 12 sonidagi 4-6 betlarida «Kichik texnika vositalari» degan maqola berilgan. Bu kichik texnika vositalari fermer xo`jaliklari va uqobil mashina-tarkib parklari (MTP) uchun mo`ljallangan. Quyida Toshkent traktor zavodi va «BMKR-Agromash» konstruktorlik byurosi tajriba sexlarida uchun yasalgan va yig`ilgan dala ishlovlarida ijobiy baholangan, hozirda ishlab chiqarilayotgan kichik traktor va texnika vositalarining qisqacha tavsiflari keltirilgan.

1) PN-2-30 ikki korpusli osma plug. Dalachilikdagi umumiy ishlarni bajaradi.

qamrov kengligi 60-70 sm;

Massasi (og`irligi) 230 kg;

Haydash chuqurligi 20-25 sm;

Ishchi tezligi 1,06-1,03 m/s.

2) NO-30 osma gizel-kultivator. Tuproqni yoppasiga yumshatadi va kesaklarni bir yo`la maydalab ketadi;

qamrov kengligi - 160 sm;

yumshatish chuqurligi 12-15 sm;

massasi 475 kg.

3) MOS – 0,18 mineral o`g`it sepuvchi.

Tashqi o`lchamlari:

Uzunligi - 1110 mm;

Kengligi - 910 mm;

Balandligi - 895 mm;
Bunker sig`imi - 180 kg;
Qamrov kengligi - 3-12 metr.

4) KOS – 21 o`to`rgich:

Yakka brusli segment – barmoqli qirqish plastmassa ega, traktorga o`rnatib ishlatiladi.

Qamrov kengligi 2,1m;

Ish tezligi 2,4-5,14 kmG`soat;

Ish unumdorligi 2,3 gektarG`soat.

Massasi 207 kg.

5)T-6 yarim osma xaskash:

Qamrov kengligi 6 metr;

Ish tezligi 7-9 kmG`sot;

Massasi 500 kg.

Bunday misollarni ko`plab keltirish mumkin.

Qishloq xo`jalik mashinasozligida 19 turdagi mashinalar ishlab chiqiladi, jumladan:

1. Tuproqqa asosiy va maxsus ishlov beruvchi mashinalar.
2. Tuproqning yuzgi qatlamiga ishlov beruvchi mashina va qurilmalar.
3. O`g`it sepuvchi mashinalar.
4. Ekish va nihol o`tkazuvchi mashinalar.
5. O`simliklarga ishlov beruvchi mashinalar.
6. O`simliklarni ximiyaviy himoyalash uchun qo`llaniladigan mashinalar.
7. Chorva ozuqalari tayyorlanadigan mashina mexanizmlar.
8. G`alla o`radigan kombaynlar.
9. Paxta teradigan kombaynlar.
10. Bog` va terakzorlarda ishlatiladigan mashina mexanizmlar.
11. Meliorativ ishlarni bajaradigan mashina mexanizmlar.
12. G`allani tozalaydigan va navlarga (sortlarga) ajratadigan mashinalar.
13. G`allani (donni) quritadigan agregat va komplekslar.
14. Makkajo`xorini o`radigan mashinalar.
15. Kartoshkani yig`ishtirib oladigan mashina mexanizmlar.
16. Qand lavlagini o`rib yig`ishtirib oladigan mashinalar.
17. Zig`ir va zig`ir poyalarni yig`ishtirib oladigan mashinalar.
18. Sabzavotlarni ekib, yig`ishtiradigan mashinalar.
19. Suvsiz va qurg`oq yerlarga suv chiqaradigan mashinalar.

2. AGROSANOAT MAJMUASI TARMOQLARI UCHUN ISHLAB CHIQRISH VOSITALARINI ISHLAB CHIQRUVCHI SOHANING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH YO`NALISHLARI

O`zbekiston sanoatining asosiy qismi ASMSi bilan bog`liq, chunki ASMning yaxshi ishlashi 1-sohaning rivojlanish darajasini belgilaydi. Agarda Respublikamizda ASMning 1-sohasi yaxshi rivojlanmagan bo`lsa, zarur ishlab chiqarish vositalarini, texnikalarni chet mamlakatlardan sotib olishga zarurat tug`iladi. Bu esa har yili katta miqdordagi pul mablag`larni sarflashni talab qiladi va eng salbiy tomoni, O`zbekiston ASMning yaxshi rivojlanishi chet davlatlardan keltiriladigan kerakli ishlab chiqarish vositalarini olib kelishga bog`liq bo`lib qoladi.

Lekin hozirgi paytda Respublikamizda ASMning 1-sohasining ayrim tarmoqlari nisbatan yaxshi rivojlangan, masalan, kimyo sanoati, bunda mineral o`g`itlar, ayniqsa azotli, fosforli va kaliyli mineral o`g`itlar agrar soha talabini to`la qondirmoqda, kimyoviy preparatlar va dorilar ishlab chiqarish sohasi ham rivojlangan. Bundan tashqari, ishlab chiqarilayotgan mineral o`g`itlar chetga eksport ham qilinmoqda.

O`zbekiston mineral o`g`itlar ishlab chiqarishda katta resurslarga ega. Tarkibida ko`plab xushbo`y uglevodorod bo`lgan tabiiy gaz resurslari, uni qazib olib uchun ishlab chiqarish imkoniyati katta. Shuni hisobga olib, ular negizida ichki va tashqi bozorda ko`plab talab qilinadiga polietilen, polipropilen, polistirol va boshqa mahsulot ishlab chiqaradigan yirik-yirik komplekslar barpo etish zarurligi islohotlarni chuqurlashtirish borasida vazifa qilib qo`yilgan edi va bu 2001-2002 yillardan keyin amalga osha boshladi.

Masalan, Sho`rtangazkimyo kompleksi mahsulotlari shular jumlasidandir. Ayniqsa, kaprolaktam, kapron iplari, shtapel tolasini ishlab chiqarish korxonalarining barpo etilishi iqtisodiy mustaqillikning yuksak maqsadidir.

Lekin shu bilan birga, mineral o`g`itlar tarkibini yaxshilash borasidagi ishlar kengaytirilsa, ularning ta`sir qiluvchi moddasining miqdorini oshirish, azot, fosfor va kaliyning ta`sir qilish miqdorini bir foizga oshirish, minglab tonna o`g`itlarni ishlab chiqarishni va tejamkolikka katta imkoniyat ochib beradi.

Respublikamiz ASMSining 1-sohasiga kiruvchi traktorsozlik, paxta terish mashinalari, ishlab chig`arish tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Qishloq xo`jalik mashinasozligi O`zbekiston sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda 300 dan ortiq qishloq xo`jaligi mashinalari va ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarini mavjud. Jumladan, TTZ, Tashselmash, Uzbekselmash va boshqalar. Ayniqsa, paxta terish mashinalari va agregatlari ishlab chiqarish tizimi yaxshi rivojlangan. Masalan, paxta terish mashinalari bilan bog`liq barcha mexanizmlar O`zbekistonda ishlab chiqariladi. Ishchi mashinalar – ya'ni pluglar, ekish agregatlari, dizellar, borokolar va ko`p turdagi ish qurollarini ishlab chiqarish ham yo`lga qo`yilgan. Lekin, don o`rsh kombaynlari maxsus avtomobillar kabi zarur bo`lgan vositalarni ishlab chiqarish tarmoqlari hozircha tashkil etilmagan, ular boshqa davlatlardan import qilinmoqda.

Qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash sohasi uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish ham hozircha yaxshi rivojlanmagan, bular chetdan olib kelinmoqda.

Respublikamizda faqat yengil to'qimachilik tarmog'i uchun zarur bo'lgan ayrim texnikalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Xulosa qilib aytganda, ASMSi 1-sohasining rivojlanish darajasi unchalik yuqori darajada emas, demak buni rivojlantirish O'zbekiston hukumati iqtisodiy siyosatining ustivor yo'nalishlaridan birihisoblanadi.

XULOSA

Ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning barchasi, ya'ni ularning yig'indisi ASMning 1-sohasi hisoblanadi va bu sohaga kirgan sanoat tarmoqlari ASM uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaradi. Bunday tarmoqlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Qishloq xo'jaligi uchun mashinasozlik tarmoqlari, traktorlar va kombaynlar, ishchi mashinalar va maxsus transport texnikalar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar.
2. Oziq-ovqat va yengil sanoat uchun ishlab chiqaruvchi vositalar ishlab chiqaradigan korxonalar.
3. Qishloq xo'jaligi uchun mineral o'g'itlar ishlab chiqaruvchi korxonalar.
4. Chorvachilik uchun konsentrat va em-xashak ishlab chiqaruvchi tarmoqlar kiradi.

TAKRORLASH VA MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. ASMMning 1-sohasining tarkibiy tuzilishi va uning ahamiyati?
2. ASM 1-sohasining O'zbekistonda rivojlanganlik darajasi?

3-MAVZU: AGROSANOAT MAJMUASINING XO'JALIK MAHSULOTLARINI TAYYORLASH, QAYTA ISHLASH VA ISTE'MOLCHILARGA ETKAZIB BERUVCHI SOHASI (3-SOHASI)


Reja:

1. ASM qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi soha tarkibi, ahamiyati va iqtisodiyotda tutgan o'rni.
2. ASM qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi sohaning hozirgi holati va rivojlantirish yo'nalishlari.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997 yil. 88-211-betlar, 203-betidan birinchi abzasdan boshlanadi, 204-betning birinchi abzasigacha. (Strategik jihatdan degan so'z).
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.:1994 yil. 251-267 betlar: Dehqonchilik taraqqiyoti farovonlik manbai.
3. Hakimov R. va boshqalar. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. T.: 2004 yil. IV bob. 28-32 betlar.
4. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnali. 2001-2006 yil.

3-mavzuning 1-rejasiga doir chizma ASM 3-sohasining tarkibiy tuzilishi.



1. ASM QISHLOQ XO`JALIK MAHSULOTLARINI TAYYORLOVCHI, QAYTA ISHLOVCHI VA ISTE'MOLCHILARGA ETKAZIB BERUVCHI SOHA TARKIBI, AHAMIYATI VA IQTISODIYOTDA TUTGAN O`RNI

Bu soha ASMning 3-sohasi bo`lib, murakkab tarkibga ega, unga qishloq xo`jalik mahsulotlarini tayyorlaydigan, dastlabki yoki to`liq qayta ishlovchi va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib beruvchi sohalar kiradi, jumladan: paxta tozalash zavodlari, konserva zavodlari, pillani qayta ishlovchi fabrikalar, sut va go`shtni qayta ishlash korxonalar, meva sharbatlari, vino-konyak kabi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi zavodlar, muzxona (xolodilnik) va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib beruvchi korxonalardan iborat. Bozor talabini inobatga olgan holda tayyor mahsulotlarni ulgurji va chakana holda yetkazib beruvchi savdo tarmoqlari ham kiradi. Buni quyidagi chizmadan ko`rish mumkin.

Hozirgi davrda mamlakat ASM majmuasiga 2210 ga yaqin korxonalar kiradi, bularga fermer xo`jaliklari qo`shilsa 129210 tani tashkil etadi (chunki hozirgi kunda O`zbekistonda 120 mingta fermer faoliyat ko`rsatmoqda). 2005 yil 13 aprelida esa 125 mingta fermer bo`lib, bularga 3355 ming gektar er berilgan. Buxoro viloyatida esa 2005 yilning 25 iyulida 9577 ta fermer mavjud, bular viloyat 65% paxtasini yetkazib berdilar.

Bu sohaning o`ziga xos murakkabligi shundaki, har bir mahsulotning yoki bir-birini to`ldiruvchi mahsulotlar bo`yicha ASMning o`z korxonalari mavjud, lekin ayrim mahsulotlarni respublikada chuqur ishlash darajasi yuqori emas. Masalan, qishloq xo`jaligining asosiy ekin turlaridan biri bo`lgan paxta xom-ashyosining 100% dastlabki qayta ishlangan paxtaning 15-17% i respublikamizda ikkilamchi va chuqur qayta ishlanadi, natijada paxtadan juda kam miqdorda yarim tayyor va tayyor oxirgi (to`liq ishlangan) tovarlar ishlab chiqariladi.

Respublikamiz iqtisodiyoti uchun 3-sohaning ahamiyati ancha yuqori, Ayniqsa bu sohada mehnat resurslarining 22% i 3-sohada band, yalpi ichki mahsulotning 24% dan ko`prog`i shu sohalarda etishtiriladi. Eng muhimi agrar sohada yetishtiriladigan mahsulotlarning nobud bo`lmasligi shu sohalarning rivojlanishiga bog`liq. ASM mahsulotlari eksport salohiyatini oshirish ham shu sohalarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Mamlakat aholisining moddiy turmush darajasining oshirishda ham qishloq xo`jalik mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va tayyor mahsulotlarni sotuvchi sohalarning va xizmatlarning ahamiyati katta. Bu sohalarni rivojlantirish mamlakatda ishsizlikni kamaytirish va ishsizlikka barham berish imkoniyatlarini kengaytirib, yetishtirilayotgan qishloq xo`jalik mahsulotlarining nobud bo`lishini oldini oladi. Masalan, ayrim mahsulotlarga ko`ra hozirgi vaqtda etishtirilayotgan ba'zi bir qishloq xo`jalik mahsulotlarning 20-30% igacha nobud bo`lmoqda, buning asosiy sabablaridan biri ASM 3-sohasining yaxshi rivojlanmagani bo`lsa, ikkinchidan qishloq xo`jalik mahsulotlarini sotishda ularning narxlari asossiz ravishda yuqoriligidadir.

Agar ASM tarkibidagi sohalar o`rtasidagi munosabatlarni qarab chiqadigan bo`lsak, ularni ishlab chiqarish jarayonida o`zaro uzviy bog`langan quyidagi bosqichlarni mavjudligini ko`ramiz.

1. ASM tarkibidagi tarmoqlar uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish.
2. Qishloq xo`jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish.
3. Majmua takror ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish texnikaviy va texnologiya xizmatlarini amalga oshirish.
4. Qishloq xo`jalik mahsulotlaridan oziq-ovqat tovarlarini, iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish.
5. Oziq-ovqat va iste'mol tovarlarini iste'molchilarga etkazib berish.

Bu munosabatlarni ularni mazmunini va shaklini inobatga olgan holda quyidagicha guruhlantirish mumkin.

- a) Huquqiy;
- b) Tashkiliy;
- c) Texnikaviy;
- d) Texnologik;
- e) Iqtisodiy;
- f) Ijtimoiy.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha turdagi erkin munosabatlarning huquqiy asosi yaratilishi zarur, shuning uchun Respublikamizda bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda Mamlakat Oliy Majlisi tomonidan qonunlar va Prezident farmonlari bosqichma-bosqich qabul etilayotgani dalildir. Ularga ASM tarkibidagi barcha xo`jaliklar rioya etishlari shart, rahbar va mutaxassislar barcha qonunlarning mazmunini ularni amalga oshirish yo`llarini yaxshi bilishlari kerak. Lekin hayotda doimo shunday emas, masalan, bir korxonadan ikkinchidan zarur bo`lgan mahsulotni shartnoma asosida sotib olib uning haqqini o`z vaqtida to`lamaydi. Bu esa qonun talabi to`liq bajarilmayotganligidan dalolat beradi.

Qishloq xo`jalik korxonalarini o`zlarining ishlab chiqarishlarining rivojlanishini va samaradorligini oshirish maqsadida sifatli, arzon, ekologiyaga salbiy ta'sir ko`rsatmaydigan zarur qishloq xo`jalik mashinalarini, kimyoviy vositalarni, yoqilg`i-moylash materiallarini bevosita sanoat tarmoqlari korxonalaridan sotib olish uchun shartnoma tuzadilar, shuningdek texnikalarni ta'mirlatish, yerlarini haydatish, hosilni yig`ib-terib olish maqsadida ixtisoslashgan MTTlar bilan zararkunandalarga qarshi kurash uchun esa kimyoviy xizmatlarni amalga oshiradigan tashkilotlar bilan, ekinlarning suvga bo`lgan talabini qondirish uchun Suv xo`jaligi va suvdan foydalanuvchilar uyushmasi (SFU)lar bilan shartnomalarni rasmiylashtiradilar, shartnomalarning shartlarini bajarilishini tomonlar ta'minlashlari kerak, shunda buyurtmachining ham bajaruvchining ham faoliyati samarali bo`lib, yaxshi natijalarga erishiladi. Lekin amaliyotda buyurtmani bajaruvchilar shartnomada ko`rsatilgan muddatda texnikalarni, mineral o`g`itlarini, kimyoviy vositalarni, yoqilg`i va ozuqalarni iste'molchilarga yetkazib bermayaptilar, qishloq xo`jalikni suv bilan to`la ta'minlamayaptilar, natijada bunday kamchiliklar mahsulot miqdoriga, uning sifatiga salbiy ta'sir etadi. Masalan, talab etilgan suv ekinga

o`z vaqtida berilmasa, uning o`shishi susayib hosil to`plashi kamayadi, talab etilgan texnika vaqtida borib hosilni terib olmasa, hosil salmog`i kamayib, sifati pasayadi. Shuning uchun, shartnomada ko`rsatilgan shartlar o`z muddatida va sifatli amalga oshirishini ta'minlash tomonlar uchun zarur va tomonlar madaniyatli bo`lishlari kerak. Bu esa bozor iqtisodiyotining eng muhim talabidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo`jaliklar faoliyatining rivojlanishi va samarali bo`lishi iqtisodiy munosabatlarning amalga oshirilishiga ham bevosita bog`liq. Masalan, majmua tarkibidagi tarmoqlar o`rtasida tovar ayirboshlash jarayonida pul-tovar munosabtlarini amalga oshirilsa ekvivalentlikka, ya'ni mutanosiblikni saqlashga alohida e'tibor beradi va gap baho haqida bormoqda, bunda talab va taklif qonunlarning tilaklari ham inkor etilmasligi zarur. Lekin ASMDa bunday mutanosiblik afsuski to`liq ta'minlanayotganligi yo`q. Ayniqsa, qishloq xo`jalik mahsulotlarining baholari bilan qishloq xo`jaligida foydalanilayotgan sanoat korxonalarini mahsulotlarining baholarini belgilash masalasi doimo sanoat tarmoqlari foydasiga hal etilmoqda. Masalan, 1991-2002 yillarda qishloq xo`jalik mahsulotlarining ularning turlari bo`yicha 70-90 marta oshgan bo`lsa, sanoat mahsulotlarining bahosi 700-900 marta o`sgan, ular o`rtasidagi o`shish farqi 1 ga 10 ni tashkil etgan, ya'ni qishloq xo`jalik mahsulotlarining bahosi bir marta oshgan bo`lsa, shu tarmoqda foydalanilayotgan sanoat mahsuloti hisoblangan ishlab chiqarish vositalarining baholari 10 martagacha oshgan. Masalan, 1991 yilda 1 dona «TTZ-80» markali traktorni sotib olish uchun 3,7 tonna paxta xom-ashyosini sotishdan olingan pul yetgan bo`lsa, 2002 yilda shu traktorni sotib olish uchun esa 89,7 tonna paxta xom-ashyosini sotish kerak bo`lgan. Bu boradagi mutanosiblik 1991 yilda 1:89,7 bo`lgan, ya'ni farqi 24,2 martani tashkil etgan.

Xudi shunga o`xshash xizmat ko`rsatuvchi korxonalar bajarayotgan xizmatlarining narxlar ham asoslanmagan holda yuqori darajada bajarilmoqda. Masalan, 2002 yilda tumanlarda barpo etilgan MTTlar bir gektar sholi maydonidagi hosilni o`rib yanchib berganligi uchun Qoraqalpog`iston Respublikasida 38 ming so`mni tashkil etgan, Toshkent viloyati xo`jaliklarida esa 78 ming so`m bo`lgan.

Buning ob'ektiv va sub'ektiv sabablari ham bor, masalan, sanoat korxonalarini davlat tasarrufidan qarilib, aksionerlik korxonalariga aylantirilishi natijasida to`liq iqtisodiy erkinlikka egadirlar, shu sababli ular talab va taklifni hamda o`zlarining bozordagi o`rnini inobatga olib, o`z mahsulotlariga erkin baholarni belgilamoqdalar. Qishloq xo`jalik korxonalarini esa davlat mulki hisoblangan erlarda mahsulot etishtirmoqdalar, shuningdek, etishtirilayotgan asosiy mahsulotlar paxtaga, g`allaga, sholiga davlat buyurtmasi mavjudligi sababli bu mahsulotlarning xarid korxonalarini davlat tomonidan belgilanmoqda. Bu masalani kelajakda qishloq xo`jaligiga tegishli davlat dasturlari ishlab chiqilishi bilan almashtirishga bosqichma-bosqich o`tish natijasida hal etish imkoniyatlarini shakllantirish maqsadga muvofiq bo`ladi.

2. ASM QISHLOQ XO`JALIGI MAHSULOTLARINI TAYYORLOVCHI, QAYTA ISHLOVCHI VA ISTE'MOLCHILARGA ETKAZIB BERUVCHI

SOHANING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH YO`NALISHLARI

Respublikamizda meva sabzavotlarni qayta ishlovchi sanoat korxonalari yaxshi rivojlangan. Masalan, «O`zmevasabzavotuzum-sanoatxolding» kompaniyasining tashkil etilishi va uning tarkibiga ixtisoslashgan 89 ta shirkat va firma, zavodlarning kiritilishi ASM 3-sohasining rivojlanishiga o`z ijobiy ta'sirini ko`rsatdi. Hozirgi kunda respublikada yiliga 5 mln. tonnadan ortiq meva, sabzavotlar ishlab chiqarilmoqda. Buxorodagi «Shoxrud» firmasi ham «O`zmevasabzavotuzumsanoatxolding» kompaniyasi tarkibiga kiradi. O`zbekistonda meva sharbatlari, konservalar, vino, konyak, likyor kabi mahsulotlar ko`plab ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi kunda «Shoxrud» hissadorlik jamiyati aholiga 3 turdagi ichimlik sotmoqda, bular: «Shoxrud arog`i», «Shoxrud» vinosi va «Buxoro» brendisi. Uzum vinosi turlaridan «Krepkiy», «Suxoy», «Desertno`y» kabilar. Aytib o`tilganidek, «Shoxrud» arog`i va konyak hamda «Balzam» ishlab chiqariladi. Umuman, O`zbekistonda har yili 16 mln.dan vino materiallari ishlab chiqarilib chet ellarga ham eksport qilinadi. O`zbekiston vinolari xalqaro ko`rgazmalarda 92 ta medal olgan. Oziq-ovqat sanoati mamlakatda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarining 315 ga yaqinligini tashkil etadi (30,6%).

Respublikada juda katta yog`-moy ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etilgan. Hozirda mamlakatda aholiga yetarli miqdoda sifatli yog`-moy ishlab chiqara bera oladigan imkoniyat mavjud. Bu boradagi asosiy masala esa yog`-moy xom-ashyo etishtirishni ko`paytirishdan iborat. Albatta, keyingi yillarda kunjut, zig`ir, masxar, soya kabi moy beruvchi ekin turlari yetishtiriladigan maydonlar kengaytirilmoqda, lekin ulardan olinayotgan xom-ashyo miqdori hozirga etarli emas.

O`zbekistonda, ayniqsa go`shtni, sutni qayta ishlash sanoatining quvvati juda katta. Lekin keyingi yillarda chorvachilikning to`liq xususiylashtirilishi yirik chorva fermalarining tugatilishiga olib keldi, bu esa, o`z navbatida go`sht va sutni qayta ishlash sanoatini xom-ashyo bilan yil davomida bir tekisda ta'minlash imkoniyatini yo`qqa chiqardi. Natijada go`shtni va sutni qayta ishlaydigan yirik zavodlar yil davomida deyarli bekor qola boshladi (bularga misol qilib «Buxorogo`sht» va «Buxorosut» hissadorlik jamiyatlarini ham aytish mumkin). Bunday hol o`zining salbiy oqibatlarini ko`rsatmoqda, masalan, shu sohada ishlay deganlarning asosiy qismi o`z ishlarini o`zgartirishlari yoki vaqtincha ishsiz qolishlariga sabab bo`lmoqda. Davlat byudjetiga to`lanadigan soliq va boshqa to`lovlarning ham shu soha bo`yicha kamayishiga olib kelmoqda. Hozirda O`zbekistonda go`sht zavodlari quvvatidan foydalanish darajasi 4-5% dan oshmaydi. Demak, bu sohada qilinishi lozim bo`lgan ishlar juda ko`p.

Respublikada texnika ekinlari xom-ashyosini dastlabki qayta ishlash tizimi etarli darajada rivojlangan, lekin paxta, pilla va kanop tolasini ikkilamchi va chuqur qayta ishlash darajasi hozirgi kunda yuqori emas, demak, bu boradagi asosiy yo`nalish paxta, pilla tolasini rivojlantirishga qaratishdan iborat. Bunga erishilsa, tayyor iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarishni tubdan

rivojlantirish imkoniyati kengayadi. Bu esa, o'z navbatida, ko'pgina mehnat resurslarini ishga joylashtirilishini, respublika ichki mahsulot hajmini keskin ko'payishini va eksport salohiyatini oshirishini ta'minlaydi. O'zbekiston agrosanoat majmuasining 3- sohasida oziq-ovqat sanoatining o'zni katta, agar 2002 yilda mamlakat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida oziq-ovqat sanoatining salmog'i 14,% ni tashkil etgan bo'lsa, 2003 yilda qariyb 15% ga yaqin (14,8%) va 2004 yilda 16% ni tashkil etdi.

O'zbekiston engil sanoati ham agrosanoat majmuasining ham eng salmoqli tarmoqlaridan biri hisoblanadi, keyingi uch yil 2002, 2003 va 2004 yillarda 20% dan ortiq mahsulot yengil sanoat hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Respublikada sanoat mahsulotlarining eng muhim turlari ishlab chiqarilmoqda, masalan, paxta tolasi, ip gazlama buyumlari, poyafzal va boshqalar.

O'zbekiston xalq xo'jaligida oziq-ovqat sanoatining roli ham katta ahamiyatga ega bo'lib, u asosan qishloq xo'jalik xom-ashyosiini qayta ishlashga asoslanadi. Ayniqsa, yog'-moy sanoati asosan paxta chigitini qayta ishlashga asoslangan. Konserva sanoati bir necha yirik zavodlardan iborat, lekin ular Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon viloyatlarida ko'proq rivojlangan. O'zbekiston azaldan o'zining vinochiligi bilan mashhur. Lekin ichkilikbozlikka qarshi kompaniya boshlangandan keyin bu tarmoqqa juda katta zarar yetkazildi, ayniqsa uzumzorlar buzilib tashlandi va keyinchalik 1988 yildan keyin vino ishlab chiqarish asta-sekin ko'payib bordi.

Toshkent yog'-moy kombinatida Shvetsiyaning «Alfa-Laval» firmasi yetkazib berayotgan liniyalarni o'rnatish yordamida margarin ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. AQSh, Germaniya, Italiya, Hindiston, Xitoy va boshqa davlatlarning firmalari bilan hamkorlik o'rnatilib rivojlanib bormoqda. 1993 yildan 1996 yillarda Xorazm viloyatida bir kecha-kunduzda 91 ming tonna qanda lavlagini qayta ishlash quvvatiga ega birinchi qand-shakar zavodini qurish belgilanib, keyinchalik ishga tushirildi.

Samarqand choy qadoqlash fabrikasida yaxshi kayfiyat bag'ishlaydigan turli xil ichimliklarni uy sharoitida tayyorlash uchun xushbo'y o'tlardan hamda ba'zi mevalar ixcham va qulay tarzda qadoqlab joylanadigan ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Respublikaning deyarli barcha hududlarida tegirmonchilik sanoati, go'sht-sut mahsulotlari, konditerlik, alkogolsiz ichimliklar, non mahsulotlari va boshqa xil talab katta mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Respublikada keyingi yillarda oziq-ovqat sanoati mahsulotlaridagi eng muhim turlari hisoblangan go'sht, kolbasa, mol yog'i, o'simlik moyi, sut-qattiq mahsuloti, konservalar, makaron mahsulotlari ko'plab ishlab chiqarilmoqda.

XULOSA

Agrosanoat majmuasining samaradorligi va o'z vazifasini to'liq bajarishi ko'p jihatdan uning 3-sohasi rivojlanganlik darajasiga bog'liq. ASMning uchichi sohasiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi dastlabki va chuqur qayta ishlovchi, tayyor, oxirgi mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazish bilan shug'ullanuvchi tarmoq va xizmatlar kiradi. O'zbekiston Respublikasi

iqtisodiyotiga ASMSi uchinchi sohaning o`rni va ahamiyati beqiyos. Ularning yil davomida bir me'yorga ishlashi qishloq xo`jaligiga ishlab chiqarilgan mahsulotlar nobud bo`lishining oldini oladi va ularning sifatini yanada yaxshilaydi. Mehnatga layoqatli kishilarning katta bir qismini ish joylari bilan ta'minlaydi. O`zbekiston Respublikasi nisbatan yaxshi rivojlangana qayta ishlash sanoatiga ega. Ayniqsa, oziq-ovqat va yengil sanoat kuchli rivoj topgan. Shu bilan birga agrosanoat majmuasining uchinchi sohasiga ko`pgina yechimni kutayotgan masalalar mavjud. Ularning eng asosiysi sohaga kiruvchi tarmoqlar vujudga keltirilgan, mavjud quvvatlardan to`liq foydalanishdir. Ma'lumki, ayrim tarmoqlarda mavjud quvvatlardan foydalanish darajasi 5-20% ini tashkil etmoqda. ASMning 3-sohasini rivojlantirish O`zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining ustivor yo`nalishlaridan hisoblanadi. Bu borada juda katta ishlar amalga oshirilyapti. Asosiy mahsulotlaridan biri paxtani chuqur ishlashni tashkil etish, ayniqsa, katta iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Agrosanoat majmuasi birinchi sohasining tarkibi, iqtisodiyotdagi o`rni va ahamiyati.
2. Agrosanoatning birinchi sohasiga kirgan tarmoqlarning O`zbekistonda rivojlanganlik darajasi.
3. Agrosanoat majmuasi birinchi sohasiga kirgan tarmoqlarni rivojlantirishni asosiy yo`nalishlari.

4-MAVZU: QISHLOQ XO`JALIGI – AGROSANOAT MAJMUASINING ASOSIY BO`G`INI (ASMNING 2-SOHASI)

Reja:

1. Qishloq xo`jaligi - agrosanoat majmuasining asosiy bo`g`ini va uning o`ziga xos xususiyatlari.
2. Qishloq xo`jaligining O`zbekiston iqtisodiyotida tutgan o`rni va ahamiyati.
3. Shirkat xo`jaliklari va ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslari.
4. Fermer xo`jaliklari va ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslari.
5. Dehqon xo`jaliklari va ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslari.
6. Qishloq xo`jaligini boshqarish mexanizmining erkinlashtirilishi.

АДАБИЁТЛАР

1. Karimov I.A. O`zbekiston 21-asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid va taraqqiyot kafolatlari. T.: 1997 y. 188-211 betlar. Bozor munosabatlarining qaror topishi va mulkdorlar sinfining shakllanishi.
2. O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2004 yil, 9-10-sonlari birga chop etilgan, 4-5 betlar.

3. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2003 yil, 8-9 sonlar birga chop etilgan, 25-38 betlar.
4. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2004 yil, 1-2 sonlar birga chop etilgan. 7-bet. O'zbekiston asosiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari.
5. Hakimov R. va boshqalar. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti, o'quv qo'llanma, 2004 yil. T.: 43-45 betlar.

1. QISHLOQ XO`JALIGI - AGROSANOAT MAJMUASINING ASOSIY BO`G`INI VA UNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Oldingi darslarda aytib o'tilganidek, qishloq xo'jaligi ASMning 2-sohasi hisoblanadi. ASM esa tarkibiy tuzilishi jihatidan 4 ta sohadan iborat.

1-soha. ASM tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish.

2-soha. Qishloq xo'jaligining o'zi.

3-soha. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va tayyor bo'lgan mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berish.

4-soha. Infratuzilma, bu tuzilmaning o'zi ikkita sohadan iborat:

1- ishlab chiqarish infratuzilma;

2- ijtimoiy (sotsial) infratuzilma.

ASMning 2-sohasi bo'lgan qishloq xo'jaligi ikkita yirik tarmoqni o'z ichiga oladi, bular:

1- o'simlikchilik;

2- chorvachilik.

2003 yilda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4035,8 mlrd. so'mni tashkil etgan, shundan 2086,7 mlrd. so'mga o'simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, bu 51,7% tashkil etadi. Chorvachilik bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot 1949,7 mlrd. so'mni yoki 48,3% ni tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligining o'zi esa O'zbekiston iqtisodiyotida sanoat sohasidan keyin 2-o'rinda turadi. 2003 yilda O'zbekistonda sanoat sohasida 6062,4 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Shunday qilib, ASMning asosini qishloq xo'jaligi tashkil etadi, qolgan ASMning 3 ta sohalar qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatadi.

ASMning 2-sohasini tashkil etuvchi qishloq xo'jaligi, o'zining 2 ta yirik tarmog'i o'simlikchilik va chorvachilikda inson hayoti uchun oziq-ovqat va sanoat uchun xom-ashyo mahsulotlari yetkazib beradi.

O'simlikchilik va chorvachilikning o'zi esa bir qancha tarmoqlardan iborat. Masalan, o'simlikchilik tarmog'i – bular: paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik, uzumchilik va sholichilik.

Chorvachilik esa: qoramolchilik, qo'ychilik, parrandachilik, asalarichilik, ipakchilik (pillachilik), qo'ychilik, tulchilik, yilqichilik (otchilik), quyunchilik va baliqchilik kabi tarmoqlardan iborat.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'paytirishga turli yo'llar bilan erishish mumkin, lekin uning ikki yo'li mavjud: ekstensiv va intensiv.

Ekstensiv yo'l – bu katta xarajatlarni taqozo etadi, chunki ekin maydonlari kengaytiriladi, chorva mollari soni ko'paytiriladi.


Intensiv yo'l – bu mavjud ekin maydonlaridan samarali foydalanishdir, ya'ni qo'shimcha kapital mablag'lari sarflanib hosildorlikni oshirish, chorvachilikda esa chorva mollarining mahsuldorligini oshirish.

Agrosanoat majmuasining asosini tashkil etadigan qishloq xo'jaligi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar boshqa tarmoqlardan qishloq xo'jaligini farqlab turadi va ishlab chiqarishni tashkil etishda o'z talablarini qo'yadi, jumladan:

1. Qishloq xo'jaligida tabiiy omillarning ta'siri katta. Ular ishlab chiqarishning mavsumiyligidan kelib chiqaradi. Bu esa, ishlab chiqarishni tashkil etishda mavjud resurslardan yil davomida samarali foydalanishni hisobga olishni talab etadi. Qish oylarida aholining vaqtinchalik bekor qolishi ayrim ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Bu masalalar olimlar, mutaxassis va ishbilarmonlar oldiga qator vazifalarni qo'yadi.
2. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositalari sifatida tirik organizmlar qatnashadi. Bu, o'z navbatida, mutaxassislardan faqatgina iqtisodiy qonuniyatlarnigina emas, balki biologik qonunlarni ham bilishni va ishlab chiqarishni tashkil etishda ularni hisobga olishni talab qiladi. Qishloq xo'jaligida sarflanayotgan mehnatning samarasi ko'p jihatdan o'simlik va chorva mollarining biologik imkoniyatlariga bog'liq.
3. Yer asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanib, undan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ularni inkor etish yoki yetarlicha hisobga olmaslik katta salbiy oqibatlariga olib keladi.
4. Qishloq xo'jaligida sarflanayotgan moddiy xarajatlar davri bilan faoliyat natijasida olinayotgan daromadlarning olinish davri o'rtasida farq katta. Boshqacha qilib aytganda, yil davomida faqat xarajat qilinadi. Chunki yerni ekishga tayyorlash, urug'lik, o'g'itlar, yoqilg'i - moylash materiallari xarid qilish va sarflash, mehnatga haq to'lab borish kabi xarajatlar har oyda qilinadi. Ekin turlari hosili esa ma'lum davrlarda pishadi. Yetishtirilgan hosil sotiladi va undan keyin pul daromadlari kelib tushadi. Albatta, amaliyotda shartnomalar asosida qishloq xo'jalik korxonalariga avanslar berish, kreditlardan foydalanish yoki ayrim xizmatlarni tashkil etish natijasida ma'lum miqdordagi pul tushumlari bo'lishi mumkin. Lekin, umuman olganda, yil davomida xarajat sarflanishi, daromadlarning esa ayrim davrlardagina tushishi o'ziga xos ob'ektiv talablarni keltirib chiqaradi. Agrar siyosat bu xususiyatni hisobga olgan holda yuritilishi zarur.
5. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish juda katta maydonlarda olib boriladi. Bu, o'z navbatida, ishlab chiqarishni, aholi punktlarini joylashtirishda ma'lum talablarni keltirib chiqaradi, qishloq xo'jaligining moddiy - texnika bazasini shakllantirishda hisobga olishni talab qiladi.
6. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqargan mahsulotlarining bir qismini o'zi urug'lik, yem-xashak, oziq-ovqat sifatida iste'mol qiladi.
7. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ko'p turlarini uzoq saqlash mumkin emas. Bu muammo qishloq xo'jaligi mahsulotlarining deyarli bir davrda pishib etilishi oqibatida yanada chuqurlashadi. Bu, o'z navbatida,

etishtirilgan mahsulotni tayyorlovchi, qayta ishlovchi tashkilotlarning bir me'yorda tinmasdan ishlashini, bu esa ayrim davrlarda juda katta quvvatlarning bo'lishini talab qiladi. Yilning qolgan davrlarida esa bu quvvatlarning nisbatan bo'sh qolishikuzatiladi. Bu holat qayta ishlash tarmoqlarining katta omborxonalari bo'lishini talab etadi.

ASM 2-sohasining tarkibiy tuzilishi.



2. QISHLOQ XO'JALIGINING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI.

2001 yilda dehqon xo'jaligida 65,4% mahsulot ishlab chiqarilgan.

Fermer xo'jaliklarida 7,3% mahsulotlari ishlab chiqarilgan va qishloq xo'jalik korxonalarida 27,3% mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

2003 yilda esa: dehqon xo'jaligida 65,5%, fermer xo'jaligida 9,9% va qishloq xo'jaligi korxonalarida 24,6% mahsulot ishlab chiqargan.

Dehqonchilikdagi (o'simlikchilikdagi) tarmoqlar:

1. Paxtachilik;
2. G'allachilik;
3. Sabzavotchilik;
4. Kartoshka yetishtirish;
5. Uzumchilik;
6. Kanopchilik.

O'simlikchilik tarmog'ini quyidagicha izohlash mumkin:

1. Don-g'allachilik (bug'doychilik, sholichilik).

Donchilik, g'allachilikka – makkajo'xori, oq jo'xori, arpa, tariq, mosh.

2. Texnika ekinlari – bular paxtachilik, kanopchilik, tamakichilik, lavlagichilik.

3. Sabzavotchilik – bular: karamchilik, pomidorchilik.

4. Polizchilik - qovunchilik, tarvuzchilik.
5. Bog`dorchilik – uzumchilik, o`rikchilik, olmachilik va boshqa tarmoqlar.

Bu tarmoqda qandchilik, yer yong`oq, pomidor, bodring, sabzi, anor, yong`oq, jiyda hosili olinadi, lekin adabiyotda ko`rsatilmaydi.

O`zbekistonda chorvachilik tarmog`ining tarkibiy tuzilishi:

1. Qoramolchilik;
2. Qo`ychilik;
3. Echkichilik;
4. Tuyachilik;
5. Cho`chqachilik;
6. Parrandachilik;
7. Quyunchilik;
8. Yilqichilik (otchilik);
9. Asalarichilik;
10. Baliqchilik;
11. Pillachilik.

Yilning qolgan oylarida esa bu quvvatlarning nisbatan bo`sh qolish holatlari kuzatiladi. Bu qayta ishlash tarmoqlarining katta-katta omborxonalarining bo`lishini, ularni yetarli jihozlar bilan ta'minlashini talab etadi, masalan, sovutgich va muzlatgichlar bo`lishi, ventilyator bo`lishini va hokazo. Bunday sharoitlar mahsulot tannarxining oshirib borishiga olib keladi. Shunday qilib, qishloq xo`jaligining o`ziga xos xususiyatlarini yaxshi o`rganish va uni inobatga olib ishlab chiqarishni tashkil etishni samarali yo`llarini izlab topishni talab qiladi.

Albatta, boshqa sohalardagi kabi agrar sohada ham fan-texnika taraqqiyoti yildan-yilga yaxshilanib bormoqda, bu ma'lum darajada qishloq xo`jaligining o`ziga xos xususiyatlarining ta'siri nisbatan kamayib borishiga olib keladi, lekin butunlay yo`q bo`lib ketolmaydi, chunki yuqorida aytib o`tilganidek, tabiiy iqlim sharoitlari o`z ta'sirini o`tkazadi.

3.SHIRKAT XO`JALIKLARI VA ULARNING TASHKILY – IQTISODIY ASOSLARI

Respublikamizda qishloq xo`jaligida islohotlarni chuqurlashtirish maqsadida, agrar soha iqtisodiyotini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlardan biri, bu 1998 yil 30 aprelda «O`zbekiston Respublikasining shirkat xo`jaligi to`g`risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun 7 bob va 33 moddadan iborat bo`lib, unda shirkat xo`jaliklarining faoliyati to`la ochib berilgan.

Demak, ushbu qonun qabul qilinmasdan oldin respublikada qishloq xo`jaligining 1997 yilga qadar O`zbekiston Respublikasi qishloq xo`jaligi vazirligi boshqarib keldi. Agrar sohada islohotlarni chuqurlashtirishning yana bir muhim jihati shu bo`ldiki, qishloq xo`jaligining ishlab chiqarish natijalari ko`p jihatdan suv resurslaridan foydalanish sababli va suv resurslari boshqa vazirlik ixtiyorida ekanligi agrar sohani rivojlantirish ma'lum muammolarni

keltirar edi, bunday muammolarni yechish maqsadida 1997 yilda O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi tashkil etildi. Natijada, 2001 yilning 1 yanvarida Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi tarkibida 2018 ta qishloq xo`jaligi korxonasi faoliyat ko`rsata boshladi. Bulardan tashqari, O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi qoshida 125 ta qorako`lchilik xo`jaliklarini birlashtirgan «O`zbekqorako`l» kompaniyasi, 51 ta parrandachilik fabrikasi bor «O`zparradasanoat» uyushmasi, 18 ta xo`jaligi bor «O`zsabzavoturug`» birlashmasi, 46 ta xo`jalikdan iborat «Asal» asalarichilik uyushmasi, 84 ta xo`jaligi mavjud, irrigatsiya O`rta Osiyo ilmiy-tekshirish instituti faoliyat ko`rsatmoqda.

Hozirgi kunda yirik qishloq xo`jaligi korxonalari, ya'ni shirkatlar qishloq xo`jaligi mahsulotlarini 32 foizini etkazib bermoqdalar.

Respublikamizda qishloq xo`jalik mahsulotlarini yetishtirish, ularni qayta ishlash bilan «O`zmevasabzavotuzumsanoat xolding» kompaniyasi shug`ullanadi, bu kompaniya tarkibida meva, uzum, sabzavot mahsulotlari etishtirishga ixtisoslashgan 90 taga yaqin qishloq xo`jaligi korxonasi va qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi ko`plab sanoat korxonalari faoliyat yuritadi. Shu jumladan, vino zavodlari 55 ta, meva zavodlari 7 ta, idishlar ishlab chiqarish zavodlari 3 ta.

Umuman, «O`zmevasabzavotuzumsanoat xolding» kompaniyasi tarkibidagi jami korxonalar soni 320 taga yaqin (316).

Masalan, «O`zmevasabzavotuzumsanoat xolding» kompaniyasining Buxoro viloyatida «Shoxrud» firmasi bo`lib, uning tarkibida 1 ta vinzavodi, 1 ta spirt zavodi va 3 ta qishloq xo`jalik korxonasi bor.

Andijon viloyatida esa «Andijon» firmasi bo`lib, uning tarkibida 1 ta konserva zavodi, 1 ta qo`shma korxonasi va 7 ta qishloq xo`jaligi korxonasi faoliyat ko`rsatmoqda.

Shular bilan bir qatorda «O`zmevasabzavotuzumsanoat xolding» kompaniyasi tarkibida 100 taga yaqin (99) savdo korxonalari ham faoliyat ko`rsatmoqda.

Respublikamizning «O`zgo`shtsutsanoat» aksiyadorlik kompaniyasiga chorva mollari boqishga ixtisoslashgan 110 ta korxonasi faoliyat ko`rsatmoqda. Respublikamizda qishloq xo`jaligi mahsulotlari asosan nodavlat sektor etkazib bermoqda, hozirgi kunda nodavlat sektorida etishtirilayotgan qishloq xo`jalik mahsulotlarini 99,1% ni tashkil etadi. Hozirgi kunda davlat sektorida faqat urug`chilik bilan shug`ullanadigan 47 ta korxonasi mavjud, ularning ishlab chiqarishdagi hissasi 0,9 foizni tashkil etadi.

Yuqorida aytib o`tilganidek, O`zbekistonda shirkat xo`jalik faoliyatini «Qishloq xo`jalik kooperativi (shirkat xo`jaligi) to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi qonuni bilan va shirkat Nizomi asosida yuritilmoqdi. Shirkat xo`jaliklarida mehnatni tashkil etish oila pudrati shaklida amalga oshiriladi. Ularning asosida shirkat bilan oila o`rtasida tuziladigan oila pudrati shartnomasi yotadi. Shirkatlar ustav jamg`armalariga ega bo`ladilar. Ularning ustav jamg`armasi pay jamg`armasi va bo`linmas jamg`armadan iborat bo`ladi. Shirkatga a'zolik ixtiyoriydir. 16 yoshga kirgan fuqaro ixtiyoriy ravishda a'zo bo`ladilar. Shirkat xo`jaligining yuqori boshqaruv organi umumiy majlis

hisoblanadi, bu majlis xo`jalik boshqaruvchisini (raisi deb yuritimiz) va taftish komissiyasini saylaydi, shirkatni joriy boshqarish bo`yicha o`z vakolatini ularga beradi.

Shunday qilib, 1998 yildan boshlab eski kolxoz va davlat xo`jaliklari shirkat xo`jaliklari shaklida tashkil etila boshladi. BU xo`jaliklar ham yirik qishloq xo`jaligi korxonalarini bo`lib, ularning ekin maydoni 1240 gektarni tashkil etmoqda, lekin keyingi yillarda bular fermer xo`jaliklariga aylantirilmoqda.

O`zbekistonda etishtirilayotgan paxtaning 60% ni, tamakining 66% ni, qand lavlagining 88% ni, boshqoqli donning 50% ga yaqinini (49%), mevaning 26% ni va uzumning 43 foizini yetkazib bermoqdalar.

Shirkatlar aktsiyadorlik jamiyatlarining o`ziga xos bir ko`rinishi sifatida vujudga keltirildi. Ularda xo`jalikning mol - mulklari unga a'zo bo`lganlarga mulkiy pay ulushi ko`rinishida taqsimlanib berilgan. Bu ulushning egasi xo`jalik faoliyati natijasida vujudga kelgan daromaddan (foydadan) bir qismini oladi.

Lekin so`nggi yillarda shirkat xo`jaliklari fermer xo`jaliklariga nisbatan past rentabelli va zarar bilan ishlaydigan bo`lishini inobatga olib 2004-2007 yillarda ularni fermer xo`jaliklariga aylantirish kontsepsiyasi ishlab chiqildi.

4. FERMER XO`JALIKLARI VA ULARNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI

O`zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreli № 602 qonuniga asosan Fermer xo`jaliklari tashkil etildi. Ushbu Qonun 7 bob, 36 ta moddadan iborat bo`lib, unda ko`rsatib o`tilishicha fermer xo`jaliklarini tashkil etish, ularning faoliyatini qayta tashkil etilishi va tugatilishining huquqiy asoslarini, huquq va majburiyatlarini belgilaydi, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarni belgilaydi.

Ushbu qonunning 1-bobi 1-moddasining mazmuni shundan iborat: Fermer xo`jaligi o`ziga uzoq muddatli ijaraga beriladigan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi bilan shug`ullanuvchi fermer xo`jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo`jalik yurituvchi sub'ektdir.

Ushbu qonunning 3-moddasi: «Fermer xo`jaligining a'zolari» to`g`risida bo`lib, unda ko`rsatib o`tilishicha; Fermer xo`jaliklari a'zolari jumlasiga fermer xo`jaligini birgalikda yuritayotgan bu xo`jalikdagi ish o`zining asosiy mehnat faoliyat joyi bo`lgan fermer xo`jaligining boshlig`i, uning xotini (eri), bolalari, shu jumladan farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olingan bolalari, boshqa qarindoshlari, hamda mehnatga qobiliyatli yoshga etgan boshqa shaxslar kiradi.

Fermer xo`jaligiga mehnat shartnomasi asosida ishlayotganlar fermer xo`jaligi a'zosi hisoblanadi.

Fermer xo`jaligi boshlig`i kim bo`lishi kerak degan savolga ushbu qonunning 4-moddasida ko`rsatib o`tilgan: yuridik va jismoniy shaxslar bilan o`zaro munosabatlarda fermer xo`jaligi nomidan shu xo`jalik boshlig`i ish ko`radi.

Fermer xo`jaligining boshlig`i shu xo`jalikning 18 yoshga to`lgan, qishloq xo`jaligida tegishli malaka va ish tajribasiga ega bo`lgan muomalaga layoqatli a'zolaridan biridir.

Fermer xo`jaligining boshlig`i vaqtincha mehnat qobiliyatini yo`qotgan taqdirda yoki uzoq vaqt bo`lmaganida u o`z vazifalarini bajarish vakolatini shu xo`jalik a'zolarining biriga yoki ushbu moddaning ikkinchi qismi talablariga javob beradigan har qanday shaxsga (shartnoma asosida) berishga haqlidir.

Fermer xo`jaligi qanday shartlar asosida tashkil etiladi: bu to`g`rida uning 5-moddasida shunday deb yozilgan. «Fermer xo`jaligi tanlov asosida, aksariyat hollarda mehnat resurslari ortiqchaligi sezilmayotgan yerlarda va hududlarda tashkil etiladi».

Chorvachilik mahsuloti etishtirishga ixtisoslashgan fermer xo`jaligi kamida 30 shartli bosh chorva moli bo`lgan taqdirda tashkil etiladi. Fermer xo`jaligiga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o`lchami bir shartli bosh molga hisoblanganda, Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg`ona va Xorazm viloyatlaridagi sug`oriladigan yerlarda kamida 0,3 gektar, Qoraqalpog`iston Respublikasida va boshqa viloyatlardagi sug`oriladigan erlarda kamida 0,45 gektar, sug`orilmaydigan (lalmikor) yerlarda esa kamida ikki gektarni tashkil etadi.

Dehqonchilik mahsuloti etishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo`jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o`lchami paxtachilik va g`allachilik uchun kamida 10 gektar, bog`dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlarni etishtirish uchun kamida bir gektarni tashkil etadi.

Albatta, bu qonun 1998 yilda qabul qilingan edi. Keyinchalik bunga ayrim o`zgartirishlar kiritildi va hozirgi kunda 50 gektardan kam bo`lmasligi kerak.

Yer uchastkalari berilganda fermer xo`jaligi o`z zimmasiga qishloq xo`jalik ekinlarining hosildorligi (uch yil uchun o`rtacha yillik hosil hisobida) yerning kadastr bahosidan kam bo`lmasligini ta'minlash majburiyatini oladi. Bu majburiyat yer uchuastkasini ijaraga olish shartnomasida mustahkamlab qo`yiladi.

Fermer xo`jaligini tashkil etish tartibi O`zbekiston Respublikasi fermer to`g`risidagi Qonunning 6-moddasida ko`rsatilgan, unda yozilishicha: «Fermer xo`jaligi ixtiyoriy ravishda xo`jalik boshlig`ining qishloq xo`jalik kooperativi (shirkat xo`jaligi) boshqaruviga va tuman hokimiga yozma murojaati asosida tashkil etiladi. Arizada so`ralayotgan er uchastkasining joylashgan, manzili, maydoni, fermer xo`jaligining tarkibi ko`rsatiladi hamda tovar qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning biznes rejasi taqdim etiladi».

Qishloq xo`jaligi kooperativi (shirkat xo`jaligi) boshqaruvi fermer xo`jaligini tashkil etish to`g`risidagi masalani umumiy majlis muhokamasiga kiritadi, umumiy majlis bu xususda tegishli qaror qabul qiladi. Tuman hokimi qishloq xo`jaligi kooperativi umumiy majlisining qarori asosida, yer uchastkalari berish masalalarini ko`rish bo`yicha tuman komissiyasining xulosasini inobatga olgan holda fermer xo`jaligini tashkil etish to`g`risida qaror qabul qiladi.

Tuman hokimligining fermer xo`jaligini tashkil etish to`g`risidagi qarori tumanning moliyaviy, bank, soliq va boshqa tuzilmalar uchun majburiy hujjatdir.

5. DEHQON XO`JALIKLARI VA ULARNING TASHKILY – IQTISODIY ASOSLARI

O`zbekiston Respublikasining «Dehqon xo`jaligi to`g`risida»gi Qonun 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan.

Ushbu Qonun 7 bob, 29 moddadan iborat bo`lib, unda ko`rsatib o`tilishicha dehqon xo`jaliklarini tashkil etish, ularning faoliyatini qayta tashkil etilishi va tugatilishining huquqiy asoslarini, huquq va majburiyatlarini belgilaydi, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarni tartibga soladi.

Xo`sh dehqon xo`jaligi qanday bo`lishi kerak? Bu savolga javob, dehqon xo`jaligi to`g`risidagi Qonunning 1-moddasida ko`rsatib o`tilgan, unda yozilishicha: Dehqon xo`jaligi oilaviy mayda tovar xo`jaligi bo`lib, oila a'zolarinin shaxsiy mehnat asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig`iga berilgan tomorqa er uchastkasida qishloq xo`jaligi mahsuloti etishtiriladi va realizatsiya qilinadi.

Dehqon xo`jaligidagi faoliyat tadbirkorlik foliyatiga kiradi va dehqon xo`jaligi a'zolarining istagiga ko`ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan ham amalga oshirilishi mumkin.

«Dehqon xo`jaligi o`z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas» (O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. Toshkent. 1998 yil. № 6-5, may-iyun).

2-modda: Dehqon xo`jaligi to`g`risidagi qonun hujjatlari.

Dehqon xo`jaliklarini tashkil etish, ularning faoliyati va tugatilishi bilan bog`liq munosabatlar ushbu Qonun hamda boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

3-modda: «Dehqon xo`jaliklari a'zolari, dehqon xo`jaliklari a'zolari jumlasiga birgalikda yashayotgan va dehqon xo`jaligini birgalikda yuritayotgan oila boshlig`i, uning xotini (eri), bolalari, shu jumladan farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olingan bolalari, boshqa qarindoshlari kiradi.

4-modda: Dehqon xo`jaligi boshlig`i: yuridik va jismoniy shaxslar bilan o`zaro munosabatlarda fermer xo`jaligi nomidan shu xo`jalik boshlig`i ish ko`radi.

Dehqon xo`jaligi boshlig`i qonun hujjatlarida belgilangan tartibda er uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi berilgan oila boshlig`i yoki oilaning muomalaga layoqatli a'zolaridan biridir.

Dehqon xo`jaligining boshlig`i vaqtincha mehnat qobiliyatini yo`qotgan taqdirda yoki uzoq vaqt bo`lmaganida u o`z vazifalarini bajarish vakolatini shu xo`jalik a'zolarining biriga berishga haqlidir, agar dehqon xo`jaligining a'zosi bir kishidan iborat bo`lsa, shartnoma asosida ushbu moddaning ikkinchi qismi talablariga javob beradigan har qanday shaxsga berishga haqlidir.

5-modda: Dehqon xo`jaligini tashkil etish tartibi.

Dehqon xo`jaligi ixtiyoriylik asosida xo`jalik boshlig`ini qishloq xo`jaligi kooperativi (shirkat xo`jaligi) boshqaruviga yoxud boshqa qishloq xo`jalik korxonalarini muassasalari va tashkilotlarining ish beruvchisi (ma'muriyat) hamda tuman hokimligiga yozma murojaatiga asosan tashkil etiladi va belgilangan tartibda davlat ro`yxatiga olingan kundan e'tiboran tashkil etilgan deb hisoblanadi.

Jami korxonalar soni – 316 ta. Shu jumladan:

Sanoat korxonalarini – 81 ta. Ulardan:

Qo`shimcha korxonalar – 25 ta;

Vinozavodlari – 55 ta;

Konserva zavodlari – 16 ta;

Quritilgan meva zavodlari – 3 ta;

Idishlar ishlab chiqarish zavodlari – 3 ta;

Qishloq xo`jalik korxonalarini – 86 ta;

Savdo korxonalarini – 99 ta;

Boshqa tashkilotlar – 34 ta;

O`zga korxonalar – 16 ta.

Jami korxonalar ichida sho`ba korxonalar:

Sanoatda – 34 ta;

Savdoda – 75 ta.

Tashkilotlarda – 3 ta.

6. QISHLOQ XO`JALIGINI BOSHQARISH MEXANIZMINING ERKINLASH TIRILISHI.

O`zbekiston Respublikasi ASMSi iqtisodiyotning nisbatan yaxshi rivojlangan sohasi hisoblanadi. Boshqa tarmoqlarni tashkil etish va rivojlantirish katta moliyaviy va yaxshi sohaga ixtisoslashgan asosiy vositalarni, mehnat resurslarining bo`lishini talab qiladi. ASM esa Respublikamizning tarixiy mavjud bo`lgan va rivojlangan sohalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, ASMni rivojlantirish O`zbekiston uchun eng muhim ustuvor yo`nalishlardan biridir.

1991-2005 yillarda mamlakat ASMSini bozor iqtisodiyoti talablari asosida rivojlantirishni ta'minlaydigan huquqiy baza yaratildi va takomillashtirilib borilmoqda. ASMda davlatning ulushi minimallashtirilib, nodavlat sektor hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`ldi. Hozirda mamlakat qishloq xo`jaligida yetishtirilayotgan yalpi mahsulotning 99% dan ko`prog`i nodavlat

sektorida ishlab chiqarilmoqda. Qishloq xo`jaligida, erdan tashqari xususiy mulkka asoslangan fermer, dehqon xo`jaliklari tashkil topdi va ular rivojlanib bormoqda. Agar 2003 yilning 1 yanvarida fermer xo`jaliklarining soni 77 mingtani tashkil etgan bo`lsa, 2005 yilning 1 martida ularning soni 120 mingtani tashkil etdi (Buxoro viloyatida esa 9400 tadan oshiqdir. 2005-2006 yilda esa 58 ta shirkat xo`jaligi o`rnida 4875 ta fermer xo`jaligi tashkil topdi).

Dehqon xo`jaliklari 3 mln.ga yaqindir. Olib borilayotgan chuqur islohotlar natijasida paxta yakka hokimligi tugatilib, don, meva, sabzavot, poliz ekinlarini yetishtirishga erishildi. Masalan, agarda 1992 yilda jami 2,2 mln. tonna don etishtirilgan bo`lsa, 2002 yilda – 5,4 mln. tonnani, 2004 yilda 5 mln. tonnadan ko`proq don etishtirildi. Shu yillar ichida meva, sabzavot va poliz mahsulotlarini yetishtirish ham ko`paydi. Lekin chorvachilik sohasida aksincha, bu sohani qoniqarli deb ham aytish qiyin, chunki, go`sht, sut, tuxum etishtirish 1990 yil darajasida turibdi. ayniqsa, tuxum etishtirish hajmi 3 martadan ortiq kamaydi.

Chorvachilikdagi turg`unlikka qaramasdan keyingi yillarda qishloq xo`jaligida, umuman yalpi mahsulot ishlab chiqarish yiliga 4,5% dan ko`proq o`simoqda.

Respublikamiz ASMsini rivojlantirishning asosiy yo`nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Mahsulotlar miqdorini ko`paytirish va assortimentini yaxshilash.
2. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni tannarxini pasaytirish.
3. ASMsida ayniqsa, agrar sohada mehnat unumdorligini oshirish.
4. ASM tarmoqlarining bir-biriga mutanosib holda rivojlantirishni ta'minlash.
5. Bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirish, mahsulot eksportini ko`paytirish, xorijiy davlatlarning ilg`or tajribasini o`rganish va ishlab chiqarishga joriy qilish, kadrlar malakasini oshirish.
6. Mehnatkashlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, yuksaltirish masalalari ham ASMsining vazifasi hisoblanadi.

Qishloq xo`jaligini erkinlashtirish jarayonning amalga oshirilishi o`tish davri va jahon xo`jalik taraqqiyoti sharoitida iqtisodiy o`sishning asosi hisoblanadi. Erkinlashtirish jamiyat rivojining shakli bo`lib, uning muhim tarkibiy qismlaridan biri – xalq xo`jaligi tarmoqlarini ham, alohida xo`jalik sub'ektlarini ham samarali boshqarishni nazarda tutiladi.

Jahon tajribasi shuni ko`rsatadiki, davlat boshqaruv organlari infratuzilmalarini o`rganish, resurslarni safarbar qilish xo`jalik rivojlanishining ustuvor yo`nalishlarini belgilash, iqtisodiyotda muvozanat va o`zaro aloqalarni ta'minlash, jahon xo`jaligida iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish kabi vazifalarni o`z zimmasiga oladi.

Bozor o`z holicha ko`pgina muammolarni hal qila olmaydi, jumladan, aholini ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, fundamental ilmiy tadqiqotlarni o`tkazish, infratuzilmalarni shakllantirish va saqlab turish kabilar. Davlat boshqaruvi ikki tomonlama manfaatdorlikka erishishga yordam beradi, bir tomondan bozor mexanizmi ko`magida iqtisodiy o`sishni, ikkinchi tomondan, daromad va resurslarni samarali taqsimlaydi. Bozor sharoitidagi eng muhim

muammolardan biri – markaziy, mintaqaviy organlarni va tovar ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini oqilona uyg`unlashtirishdir. Teng iqtisodiy shart-sharoitlarni ta'minlash bo`yicha asosiy strategik vazifalar quyidagilardan iborat:

1-davlat jamoasidan iqtisodiyotni boshqarish tizimini tarkibiy qayta ko`rish.

2-mahalliy ahamiyatga ega bo`lgan barcha masalalarni hal etish.


3-hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari belgilash huquqini mahalliy hokimiyat organlariga berish.

1 – bunda mulkchilik huquqlarini va byudjetni shakllantirish manbalarini chegaralash uchun boshqariladigan uzoq muddatli me'yorlarni belgilab, mahalliy o`z-o`zini boshqarish hamda mahalliy xo`jalik to`g`risida qonun qabul qilib, ularga shart-sharoit yaratib berish.

2 – hududlar va butun respublikaning tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotini boshqarishning davlat tizimini ishlab chiqarish.

3 – bunda yangi hududiy bozor munosabatlarini shakllantirishning asosi korxonalarni xususiylashtirish, fermer xo`jaliklarini rivojlantirish, bog`dorchilik va polizchilikda cheklovlarni yo`q qilish, ishlab chiqaruvchilarning raqobatini rag`batlantirish va iqtisodiyotda xususiy tarmoqqa alohida e'tibor qaratish taqozo etiladi. Davlat tomonidan hududiy rivojlanish boshqarilishida ikkita asosiy guruhni – bevosita va bilvosita usullarga ajratish mumkin.

Sxema. Davlat tomonidan hududiy rivojlanishni tartibga solish mexanizmi.



XULOSA

Agrosanoat majmuasining asosini qishloq xo'jaligi tarmog'i tashkil etadi. Bu majmuaning boshqa barcha tarmoqlari qishloq xo'jaligi bilan bog'langan holda rivojlanadi.

Agrosanoat majmuasi tarmoqlarining bir qismi qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaradi va etkazib beradi, ikkinchi qismi uning mahsulotlarni tayyorlaydi va qayta ishlaydi, uchinchi esa, tayyor mahsulotlarni sotadi yoki iste'molchilarga yetkazib beradi. Qishloq xo'jaligining rivojlanganlik darajasi umuman mamlakat agrosanoat majmuasining rivojlanganlik darajasini belgilaydi. Agrosanoat majmuasi oxirgi mahsuloti miqdori, sifati, tannarxi va narxi darajasi asosan qishloq xo'jaligining natijalari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi agrosanoat majmuasining eng yirik tarmog'i bo'lib, yaxshi rivojlanib bomoqda, lekin keyingi yillarda agrar sohada islohotlar tufayli uni yanada rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

O'zbekistonning qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish asosan fermer xo'jaliklari shaklida vujudga keltirildi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida mamlakat qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish tarmog'i tarkibi o'zgartirildi va mustaqilligiga erishildi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. «Tarmoq» tushunchasi deganda nima tushuniladi?
2. Qishloq xo'jaligining ahamiyati, tarkibi va uning O'zbekiston iqtisodiyotdagi o'rnini?
3. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etishga ta'sir qiluvchi o'ziga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
4. Shirkat xo'jaliklari va ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslari.
5. Fermer xo'jaliklari va ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslari.
6. Dehqon xo'jaliklari va ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslari.

5-MAVZU: ASMNING INFRATUZILMASI VA TARKIBIY TUZILISHI

Reja:

1. ASM ishlab chiqarish infratuzilmasining mohiyati, tarkibi, ahamiyati, iqtisodiyotda tutgan o'rnini va hozirgi holati.
2. ASM ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlantirish yo'nalishlari.
3. ASM ijtimoiy infratuzilmasining iqtisodiyotni rivojlantirishda tutgan o'rnini.
4. ASM ijtimoiy infratuzilmasining rivojlantirish yo'llari.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: 1995 yil. 228-246 betlar.
2. Karimov I.A. 2002 yilda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2003 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan. Vazirlar Mahkamasi Majlisidagi ma'ruzasi. Ishonch gazetasi. 2003 yil 18 fevral.
3. Xalimov R. va boshqalar. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. T.: 2004 yil. 33-41 betlar.

1. ASM ISHLAB CHIQRISH INFRATUZILMASINING MOHIYATI, TARKIBI, AHAMIYATI, IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNINI VA HOZIRGI HOLATI

ASMning 4-sohasi infratuzilma bo'lib, ikki qismdan tarkib topgan:


- 1) Ishlab chiqarish infratuzilma;
- 2) Ijtimoiy infratuzilma.

Ishlab chiqarishning infratuzilmasini yangi sxemadan ko'rish mumkin.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi ASMning eng zarur qismi bo'lib, ishlab chiqarishning samaradorligi ko'p jihatdan uning bir me'yorida faoliyat

ko`rsatishiga bog`liq va infratuzilmaga quyidagilar kiradi: transport tizimi, yo`llar, aloqa tizimining ishlab chiqarish bilan bevosita bog`langan qismi, bank va moliyaning tegishli qismi, qishloq xo`jalik texnikalarini ta'mirlash, elektr energiyasining uzatish liniyalari, irrigatsiya va meliorasiya inshootlari, veterinariya xizmatlari, yoqilg`i moylash materiallari, o`g`itlar (mineral va organik), kimyo va qishloq xo`jaligini zarur kimyoviy vositalar bilan kabita'minlash kabilar.

ASM 4-sohasining tarkibiy tuzilishi.



Ishlab chiqarish infratuzilmasining o`ziga xosligi shundaki, bir xizmat turining o`zi bir paytda ham ishlab chiqarish infratuzilma, ham ijtimoiy infratuzilma bo`lishi mumkin. Masalan, yo`llar, ishlab chiqarish xizmat qilish paytida ishlab chiqarish infratuzilmasi hisoblanadi. Lekin shu bilan birga aholining ehtiyojlari uchun barchaga beminnat xizmat ko`rsatadigan ijtimoiy xizmat turidir. Shu sababli yo`llar ijtimoiy infratuzilmaga ham kiradi. Shu singari aloqa va transport tizimlari ham ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma bo`la oladi.

Ishlab chiqarish infratuzilma muhim ahamiyatga ega, chunki ishlab chiqarish infratuzilmasi bo`lmasa agrosanoat majmuasi normal faoliyat yurita

olmaydi, ikkinchidan, bu infratuzilma ASMsida ishlab chiqarishini uzluksiz ta'minlaydi. Agarda har bir korxonada barcha ishlarni va xizmatlarni o'zi bajarsa, bu unga qimmatga tushadi va ko'p hollarda bularni amalga oshira olmaydi. Masalan, agrar sohada ishlab chiqarishni tashkil etish uchun urug'lik, mineral o'g'itlar, yoqilg'i-moylash materiallari, elektr energiyasi, turli xil kimyo va dori-darmonlar bilan turli kadrlar yetishtirish va ta'minlash, xo'jalikdagi texnikalarni ta'mirlashishlarini bir korxonada bajara olmaydi. Buning uchun qancha mutaxassis, transport va shunga o'xshash resurslar kerak. Buning uchun esa xo'jalikda moliyaviy va mutaxassis rsurslar kerak. Ayrim xizmat turlarini olib qaraylik, bular faqat bir xo'jalikni emas, balki bir necha xo'jaliklarga amalga oshirilishi kerak. Masalan, elektr energiyasi bilan ta'minlash masalasi, buni bir xo'jalik o'zida tashkil eta olmaydi.

Iqtisodiyot rivojlangan sari ishlab chiqarish infratuzilmasiga talab ham ortib boradi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ishlayotganlarning 60-70% i xizmat ko'rsatish sohasida ishlaydi, O'zbekistonda esa 14% dan kamni tashkil etadi. Natijada qishloq xo'jalik korxonalari o'zlariga xos bo'lmagan ko'p xizmatlarni o'zlari bajaradilar, masalan, mineral o'g'itlarni xo'jalikka olib kelish, yoqilg'i-moylash materiallarini keltirish va shunga o'xshash o'ziga bevosita taaluqli bo'lmagan xizmatlar, shu sababli ishlab chiqarish samaradorligi kutilgan darajada olib borilmaydi.

2. ASM ISHLAB CHIQRISH INFRATUZILMASINING RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Hozirgi kun talabidan kelib chiqib, agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasi quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirish zarur:

1-dan, ASMGa kiruvchi tarmoqlarda xizmat ko'rsatadigan sohalarni va xizmatlarning turlarini ko'paytirish.

2-dan, xizmat bozorida raqobat muhitini rivojlantirish.

3-dan, xizmat ko'rsatish sohasida birgalikda ittifoqlar tashkil etish, masalan, texnikadan birgalikda foydalanish ittifoqi.

4-dan, paxtachilikdagi ayrim zarur xizmatlar g'allachilikda to'g'ri kelmaydi, shuning uchun bu sohalarning o'ziga mos ishlab chiqarish infratuzilmasini tashkil etish.

5-dan, qorako'lchilik xo'jaliklari infratuzilmasi paxtachilikdagi ishlab chiqarish infratuzilmasidan tubdan farq qiladi, bularni zamontalabiga moslashtirish zarur.

3. ASM IJTIMOY INFRATUZILMASINING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI


ASM ijtimoiy infratuzilmasi tarkibiy tuzilishini quyidagi sxemadan ko'rish mumkin.

Sxemadan ko'rinmoqdaki, ASM ijtimoiy infratuzilmasi keng va murakkab tarkibga ega. Bu tuzilmaning aholini ish bilan ta'minlashdagi

imkoniyatlari ham nisbatan katta ahamiyatga ega va bu soha aholining turmush darajasini keskin oshirishga yaxshi imkoniyat yaratadi, insonning turmushini engillashtiradi.

Bu sohaning asosiy maqsadi aholini jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarini, ishlash kuchlarini qayta tiklash, ularning yanada rivojlanishini ta'minlashga xizmat ko'rsatish.

O'zbekistonda, uning regionlarida ASM ijtimoiy infratuzilmasi va uning rivojlanishi turlicha. Masalan, yirik shaharda, transport joylashgan yaqin joylarda ASMsi ijtimoiy infratuzilmasi nisbatan yaxshi rivojlangan. Bozor iqtisodiyoti talabidan kelib chiqib, yangi-yangi ijtimoiy infratuzilma xizmat turlari ham vujudga kelmoqda, ayrim turlar esa yo'qolib bormoqda, bu esa to'g'ri qonuniyat hisoblanadi. Eski ketgach, albatta yangi xizmat turi paydo bo'ladi. Bunday holatlarni O'zbekistonning barcha regionlarida, shahardagi bozorlarda, yo'l transporti ijtimoiy xizmatida, sog'liqni saqlash sohasida kuzatish mumkin.



4. ASM IJTIMOIIY INFRATUZILMASINING RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Ijtimoiy infratuzilma bozor iqtisodiyoti talablari asosida ob'ektiv rivojda rivojlanib boradi. Qishloq aholisiga ish bilan ta'minlashning zarurati qishloq joylarida yangi-yangi xizmat turlarini keltirib chiqadi. Aholini ish bilan ta'minlash darajasini oshirish uchun ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish zarur. Bu borada bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, aholi punktlarining asosiy qismi gaz bilan, ichimlik suvi bilan ta'minlanmoqda, qishloq ambulatoriyalari tashkil etildi va etilmoqda, demak bular yangi ish o'rinlarini

paydo etmoqda. Mustaqillik yillaridan boshlab qishloq xo`jalik mahsulotlarini tayyorlaydigan xususiy tadbirkorlar guruhi shakllandi, masalan, quruq mevalarni tayyorlash, jun va terilarni qayta ishlab tayyor tovarlar yetishtirish shular jumalasidandir.

Lekin, aholining mahsulotlarni va xizmatlarni xarid qilish quvvatini oshirish ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa ishlab chiqarishni rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarini qurish katta iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini bilish zarur.

Demak, ASMSi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, umuman O`zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga olib keladi. O`z navbatida infratuzilmaning rivoji esa shu jihatdan davlat tomonidan qo`llab-quvvatlanishiga bog`liq, chunki ijtimoiy infratuzilmaning shunday yo`nalishlari borki, ularni birorta ishbilarmon o`z faoliyati turiga aylantira olmaydi. Masalan, qishloq joylarida asosiy joylarni, ya'ni ko`chalarni yoritish, kechasi yoritilgan chiroqlar o`rnatish yoki o`t o`chiruvchilar tashkilotlarining xarajatlarini ko`tarish, ishbilarmon faoliyati bilan amalga oshirib bo`lmaydi. Demak, ushbu xarajatlar davlat tomonidan qoplanishi zaruratini keltirib chiqaradi.

XULOSA

Agrosanoat majmuasining muhim bir sohasi ishlab chiqarish infratuzilmasi hisoblanadi. Infratuzilma – ishlab chiqarishning normal ishlashi uchun zarur bo`lgan barcha xizmatlarni ko`rsatuvchi va bevosita ishlab chiqarish jarayoni davomida uzviy ishtirok etuvchi tarmoq va xizmatlar yig`indisidir. Infratuzilmaning asosiy qismi ishlab chiqarish infratuzilmasidir. Ishlab chiqarish infratuzilmasiga transport, yo`llar, muzxona, va omborxonalar, aloqa tizimi, irrigatsiya va melioratsiya tizimi va boshqalar kiradi.

Agrosanoat majmuasining ishlab chiqarish infratuzilmasi majmua barcha tarmoqlarining normal ishlashi uchun zarur sharoitni tug`diradi, ularga xizmat ko`rsatdi. Ularning rivojlanganlik darajasi juda ko`plab muammolarni echadi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. «Agrosanoat majmuasining infratuzilmasi» tushunchasi, uning tarkibi, mohiyati va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati.
2. Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkibi va bu tuzilma rivojlanishining hozirgi holati.
3. Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasini yanada rivojlantirish yo`nalishlari.
4. Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasini tashkil etishning o`ziga xos xususiyatlari.

6-MAVZU: AGROSANOAT MAJMUASIDA YER-SUV MUNOSABATLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Reja.

1. Qishloq xo'jaligi er fondining tarkibi, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari.

2. Yer fondi klasifikatsiyasi, qishloq xo'jaligida yaroqli erlar, er fondlardan foydalanish darajasi va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

3. Yerdan, suvdan foydalanish darajasi va samaradorligini oshirish yo'llari.

4. Yerdan, suvdan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi.

5. Yerdan, suvdan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi

ADABIYO'TLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: «O'zbekiston», 1995 yil. 58-75 betlar.

2. Karimov I.A. Bizdan obod va ozod vatan qosin. T.: «O'zbekiston», 1994 yil. 251-267 betlar: «Dehqonchilik taraqqiyoti – farovonlik manbai».

3. Hakimov Rashid va boshqalar. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. T.: 2004 yil, o'quv qo'llanma. VIII bob, 55-60 betlar.

4. Abdug'aniev Abdulatif, Abdug'aniev Abduqahhor. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. 2004 yil, V bob, 79-98 betlar.

1. QISHLOQ XO'JALIGI ER FONDINING TARKIBI, AHAMIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida Qishloq xo'jaligini isloh qilishga ustunlik berildi. Chunki respublika sanoatining ko'pgina tarmoqlarini, jumladan, paxta tozlasha, to'qimachilik, yengil sanoatni oziq-ovqat, kimyo sanoatini qishloq xo'jalik mashinasozligining va boshqalarni rivojlantirish istiqbollari bevosita qishloq xo'jaligiga bog'liqdir.

Shu bilan bir qatorda O'zbekiston aholisining va foizdan ortig'i qishloq joylarida yashaydi. Shuning uchun ham barcha tashvish va muammolarni echish qishloq xo'jaligini isloh qilishdan boshlanadi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligida band bo'lgan odamlarni barchasiga yer, suv va texnika vositalarini yetkazib berish ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yer esa har bir xalqning asosiy boyligidir. Agar yer sanoat ishlab chiqarishning imoratlari turadigan oddiy bir baza bo'lsa, qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi, ya'ni erga ishlov berish yo'li bilan ishlab chiqarishga ta'sir etib, undan hosil yetishtirib oladilar. Yer bir paytda ham mehnat predmeti sifatida ham mehnat quroli sifatida qishloq xo'jaligida yuzaga chiqadi.

Mehnat predmeti sifatida yuzaga chiqqanda yer mehnat yo'naltirilgan ob'ekt bo'ladi. Mehnat quroli sifatida yuzaga chiqqanda, yerga zarur biologik sharoitlarni tug'dirish natijasida o'simlik rivojlaniladi.

Qishloq xo'jaligida yerdan foydalanishda tuproqning eni yuqorigi qatlamidan foydalaniladi, ya'ni ma'lum darajada fizik-ximiyaviy xossalarga ega bo'lgan qatlamlaridan foydalaniladi. Tuproqning unumdorligi qanchalik yaxshi bo'lsa, hosildorlik shuncha yuqori bo'ladi. Tuproqning unumdor b'ylishi esa undagi ozuqa moddalarining miqdoriga sharoitiga qishloq xo'jaligida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasiga fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi kishilar mehnatiga bog'liq.

Tuproq unumdorligi quyidagi turlardan iborat.

1. Tabiiy va ozuqaviy ya'ni iqtisodiy

2. Potentsila – ya'ni foydalanish mumkin b'ylgan.

1) Tuproqning tabiiy unumdorligi uning paydo bo'lishida uzoq davom etadigan jarayonlar natijasida vujudga keladi. U tuproqning fizik, ximik va biologik xossalari bilan iqlim sharoitlari bilan belgilanadi. Tabiiy unumdorlik ob'ektiv xususiyatdir. U aksariyat ya'ni potensial unumdorlik holatida bo'lib, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishda yerdan foydalangan vaqtdagina samarali natija beradi.

Yerning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda ifodalanadi:

a) Yerni ishlab chiqarish vositasi sifatida ---- ishlab chiqarish vositasi bilan almashtirib bo'lmaydi.

b) yerdan to'g'ri foydalanisa, u hech qachon eskirmaydi, aksincha, yerga qancha yaxshi ishlov berilsa, yer yaxshilanib boradi, hajmi ko'payib boradi.

v) yer insoniyatni barcha avlodlari uchun abadiy ishlab chiqarish vositasidir.

g) yer-tabi'at mahsuli

d) yerni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib bo'lmaydi.

e) yer tabiatda chegaralangan. Uni insoniyat xoxlaganda ko'paytirish imkoniga ega emas. Demak, yagona to'g'ri yo'l – mavjud yer resurslaridan samarali foydalanishdir.

Lekin, sanoatning o'sishi, kommunikasiyaning o'sishi aholining ko'payishini tabiiy holda birikishiga to'g'ri keladigan yer maydonining qisqarishiga olib keladi. Ayrim hollarda esa insoniyat yerdan to'g'ri foydalanmasligi oqibatida yerning ketishiga ham olib keladi.

Taraqqiyotning tuproq eroziyasi sho'r bosish kabi salbiy oqibatlarni kamaytirish uchun har bir davlatning va yerdan foydalanuvchilarning muhim vazifasidir.

Ta'kidlab o'tilganlarning barchasi mavjud yerlardan qaysi 7--- turlarini joylashtirish turlaridan foydalanish va ishlab chiqarishning hajmini qanday bo'lsin maqsadga muvofiqligi inkor yetib bo'lmaydigan talablarni keltirib chiqarar.

Yerning jamiyatdagi ahamiyati nihoyatda beqiyosidir, unda aholi yashash uchun binolar, uy-joylar quriladi. Xalq xo'jaligi uchun inshootlar, korxonalar, muassasa, o'quv binolari, ilmiy-ishlab chiqarish tashkilotlari lar quriladi.

2. YER FONDI KLASSIFIKASIYASI, QISHLOQ XO'JALIGIDA YAROQLI YERLAR, YER FONDALARIDAN FOYDALANISH DARAJASI VA SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATMALAR

O'zbekistonda barcha yerlar davlat yer fondini tashkil etadi, yer davlat mulki umumxalq boyligi hisoblanadi.

Yer fondi deyilganda O'zbekistonning viloyat, tuman, dehqon fermer jamoa xo'jaligi, davlat xo'jaligini yer maydoni, ya'ni quruqlikdagi yer maydonlari bilan suv ostidagi yer maydonlari tushuniladi.

Yer klassifikatsiyasi quyidagicha belgilanish, O'zbekistondagi barcha yerlar davlat yeri bo'lib, uning tarkibiga quyidagi yer kategoriyalari kiradi.

1. Qishloq xo'jalik yerlari
2. Maxsus maqsadlar uchun belgilangan yerlar
3. Shahar yerlari
4. Davlat o'ralgan yer fondlari
5. Davlat zahira yer fondlari
6. Davlat suv fondida band bo'lgan yerlar.

Bularni alohida tavsiflab o'tish kerak.

1. Qishloq xo'jaligi yerlari, bular asosan jamoa, davlat, fermer, shirkat (kooperativ) dehqon xo'jaligi, yordamchi xo'jaliklar, o'quv tajriba xo'jaliklarning qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish maqsadida foydaladigan erlardan iborat.
2. Maxsus maqsadlar uchun belgilangan yerlar bular, sanoat, transport, kurortlar, zapovedniklar, ya'ni qo'riqxonalar, zavod va fabrikalar, davlat muassasalari joylashgan yerlar, tog' konlari va boshqa maqsadlarga davlat ob'ektlari uchun band bo'lgan yerlardan tashkil topgan erlar.
3. Shahar yerlari, bular shahar tipidagi posyolkalar qurish maqsadida band bo'lgan yer massivlaridan tashkil topgan bo'lib, yangi uy-joy, shaharlar qurilishining yo'nalishi bilan bunday yerlar territoriyasi yildan-yilga kengayib bormoqda.
4. Davlat o'rmon yer fondlari. Bunday yerlarga O'zbekistondagi o'rmonlar va o'rmonchilikni rivojlantirish maqsadida ajratilgan yerlar kiradi.
5. Davlat zahira (zapas) yerlari. Bunday erlar jamoa va davlat xo'jaliklariga, dehqon, fermer, kooperativ (shirkat) qishloq xo'jaligi va shunga o'xshashlarga uzoq muddatli foydalanish uchun ajratib beriladigan va yangidan davlat xo'jaliklarini tashkil etish va ko'chib kelganlarni joylashtirish uchun ajratiladigan, shuningdek tog' konlari joylaridan iborat.
6. Davlat suv fondida band bo'lgan yerlar, bularga suv havzalari, kanallar, daryolar, dengizlar, gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari uchun band bo'lgan va ularning atrofidagi yerlar kiradi.

Qishloq xo'jaligining rivojlanish jarayonida bir xil yerlar boshqa birxil yerlarga aylantirilishi mumkin, bunga yerlarning transformatsiyasi deyiladi, ya'ni, quruq yerlarni haydab ekin erlariga aylantirish yoki chakalakzorlarni

kovlab ekin yerlarga aylantirish va shunga o`xshash yerlar transformatsiyasi deyiladi.

Qishloq xo`jalik ehtiyojlariga ishlatiladigan yerlar qishloq xo`jalik yerlari deyiladi, bularga ekiladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko`p yillik daraxtzorlar, ishga solinadigan qo`riqlar va o`tloqlar kiradi. Qishloq xo`jaligida foydalanilmaydigan yerlarga o`rmonlar va chakalakzorlar bilan band bo`lib turgan yerlar, ko`llar, ariqlar, zovu ryoki soylar hamda xalq xo`jaligining boshqa sohalarida foydalaniladigan yerlar kiradi.

Shunday qilib, qishloq xo`jaligida yer fondi asosiy ishlab chiqarish vositasi ekan, undan samarali foydalanish zarur.

O'zbekistonning yer fondi va undan foydalanuvchilar bo'yicha taqsimlanishi, 2005 yil

№		ming, gektar	%
	O'zbekistonning jami yer maydoni		
	Jami yer	44747.7	100
	Shundan: yerdan foydalanuvchilar yerlari	44410.3	99.1
1	Shundan qishloq xo`jalik orkxonalari va tashkilotlari foydalanayotgan yerlar	24968.6	56.2
2	O`rmon xo`jaligi korxonalarini yerlari	8409.2	18.9
3	Sanoat, transport, mudofaa, aloqa va boshqa tashkilotlar yerlari	1928.1	4.3
4	Aholi yashash maydonlari	234.0	0.5
5	Zahiradagi yerlar	7469.6	16.8
6	Gidrotexnika va boshqa suv xo`jalik tashkilotlari yerlari	819.2	1.8
7	Tabiat muhofazasi sog`lomlashtirish va madaniy ahamiyatga ega yerlar	72.5	0.16
8	Boshqa yerlar	57.7	1.3

Yer fondlaridan foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar ikki guruhdan iborat

1. gurux – yerdan foydalanishning darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar

2. gurux – yerdan foydalanish iqtisodiy samaradorligi

1. Guruxga quyidagilar kiradi:

a) yerlarning tarkibi. Jami yer maydonida qishloq xo'jaligi yerlarining salmog'i. Bu ko'rsatkich mavjud yerlarning qayta qismi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga yaroqli ekanligini bildiradi.

b) qishloq xo'jaligi yerlarining tarkibi. Bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning tarkibini ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi yaroqli yerlarining tarkibiga haydaladigan yerlar, ayniqsa sug'oriladigan yerlarning salmog'i muhimdir. Chunki sug'oriladigan yerlarning hosildorligi lalmikor yerlarga nisbatan yuqori bo'ladi.

v) yerdan necha marta foydalanilganligi. Masalan, ayrim xo'jaliklarda maydonlardan bir yilda ikki marta foydalanadilar, hatto uch marta foydalanganlar ham bo'ladi.

2 gurux – yerdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi.

Bundagi ko'rsatkich har bir gektar yerdan olinadigan yalpi mahsulot bilan va har bir gektar yerdan olinadigan foyda bilan aniqlanadi.

Ekinlarning hosildorligi ham yerdan qanchalik samarali foydalanganligini bildiradi.

O'z-o'zidan ma'lumki yerdan ajratmagan holda suv resurslardan foydalanish ayniqsa tejamkorlik bilan foydalanish qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarning xarajatlarini kamaytirishga va rentabellik yuqori b'ylishiga olib keluvchi omildir. Shu sababli bir metr kub suv hisobga olingan mahsulot miqdori suvdan foydalanishning samaradorligini bildiradi. bu ko'rsatkich natura va qiymat holda hisoblanadi.

3. YERDAN, SUVDAN FOYDALANISH DARAJASI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Yerdan va suvdan samarali foydalanish nafaqat Hozirgi kunning hatto kelajakda xam talab qilinadigan dolzarb va zarurat masaladir.

Yer va suvdan foydalanish darajasini va samaradorligini oshirish yo'llari quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

a) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yer va suv resurslarining tatibidan va imkoniyatidan kelib chiqqan holda joylashtirish zarur.

Albatta, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, mavjud resurslardan yaxshi foydalanilgan holda bozor talab qiladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish va aholiningi ehtiyojini inobatga olish kerak. Lekin shunday bo'lganda, yer va suv resurslarining holatini hisobga olmasdan ishlab chiqarishni tashkil etish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, kuchli sho'r bosgan yerlarga kuzgi don ekinlarini joylashtirsak samaradorlikni pasaytiradi. Hozirda O'zbekistondagi jami sug'oriladigan yerlarning 47.8% sho'rlanmagan, 30.8% kam sho'rlangan, 17.2 % o'rtacha sho'rlangan va 4.2% kuchli sho'rlangan yerlardir.

Respublikamizdagi qishloq xo'jalik yerlarinig meliorativ holati bo'yicha ularning 38% yaxshi, 53.4% qoniqarli va 8.2% qoniqarsiz ya'ni meliorativ holati yomon yerlardir. **Yerlarning bir sifat holatidan ikkinchi holatga o'tishi umumiy holda yer transformatsiyasi deyiladi.**

Yer transformasiyasi ijobiy va salbiy bo'ladi.

Ijoby transformasiya – yaxshi erlarning yomon yerlar safiga o'tishga imkoni boricha yo'l qo'ymaslik lozim. Yer islohotlarini to'g'ri o'tkazish ham yer va suvdan foydalanish samaradorligini oshiradi. Yer duch kelgan kishiga emas, balki yerda ishlash tajribasi, bilimi bor kishilarga, xo'jaliklarga berilishi kerak. Shu bilan birga, yerdan olingan mahsulotga egalik qilish sharoitlarini to'g'ri hal etish talab qilinadi.

Eng zarur omillardan biri yer va suvdan foydalanuvchilarning samaradorlikni oshirganliklari uchun manfaatdorligini ta'minlashdir.

Yer va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish ko'p jihatdan ilg'or texnologiyani ishlab chiqarishga joriy etish bilan bog'liq. Masalan, suvdan foydalanish samaradorligi tomchilatib yoki yomg'ir usulida sug'orishda oddiy bostirib sug'orishdan ancha afzaldir.

O'zbekiston Respublikasida suv resurslari juda cheklangan bo'lib, hozirda foydalanilayotgan suvning 12-13 foizi mamlakat hududida vujudga keladi. Qolgan qismi Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari hududidan keladi. O'zbekistonda 50 daryo bo'lib, shulardan faqat 10 tasigina 150 km uzunlikda. Mamlakatda juda katta kanal va ariqlar tizimi yaratilgan. Ularning uzunligi 156 ming km.ni tashkil etadi. Ana shu irrigasiya tizimidan samarali foydalanish mamlakatda yer resurslaridan foydalanishning samaradorligini oshiradigan omillardan biridir.

Fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish ham er va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi. Masalan, paxta va bug'doyning tezpishar va suvga chidamli navlarini joriy etish shular jumlasidandir. Ekologik muhitni hisobga olgan holda kimyolashtirishni rivojlantirish ham yer va suv resurslarining samaradorligini oshirishga ijoby ta'sir etadi. Qishloq xo'jaligida yaroqli erlarni suv va shamol erroziyasidan asrash ham juda muhim tadbirlardan biridir.

Masalan, ekin maydonlarining 2,1 mln. gektari shamol, 0,7 mln gektari suv erroziyasiga, shuningdek, mavjud 22,1 mln. gektar yaylovning 6 mln. gektari shamol va 3 mln. gektari suv erroziyasiga uchragan. Bu holat agrosanoat majmuasi iqtisodiyotiga sezilarli salbiy ta'sir etadi.

4. YER MONITORINGI VA DAVLAT YER KADASTRI

Yer O'zbekistonning umumiy boyligi ekanligi Konstitutsiyamizning XII bob 55-moddasida alohida ta'kidlab o'tilgan, unda ko'rsatib o'tilganki «E, er osti boylklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralari umummilliy boylkdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir» (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. 1992 yil. 19-bet). Yer - qiqloq xo'jaligi uchun asosiy ishlab chiqarish vositasi, xalqimiz hayoti va farovonligining asosidir. Yerdan ilmiy asoslangan holda, samarali foydalanish, uni muhofaza etish umummilliy dolzarb masala hisoblanadi. Bu muhim vazifani hal etilishning ta'minlanishi maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2000 yilning 23 dekabrda «Yer monitoringi to'g'risidagi Nizom» ni tasdiqladi.

Yer monitoringi Respublika yer fondidagi barcha o'zgarishlarni o'z vaqtida ilmiy asoslangan holda aniqlash, yerlarga to'liq baho berish (sifat hamda iqtisodiy jihatdan), ularga ta'sir etuvchi salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini izchil tugatish maqsadida yerning holatini kuzatib borish bilan bog'liq bo'lgan axborotlar tizimidan iboratdir. Respublikamizning barcha yerlari monitoring ob'ekti hisoblanadi.

Yer monitoringi O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi geodeziya, kartografiya va davlat kadastr bosh boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, respublikadagi boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va tashkilotlarning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi (kadastr biror narsa haqidagi ma'lumotlar; biror narsaning ro'yxati, masalan foydali qazilma konlarining kadastr, daryolar kadastr).

Yer monitoringi to'g'risidagi nizomda vazirliklar va idoralar faoliyatini va er monitoringi ma'lumotlarini umumlashtirishdek muhim vazifa O'zbekiston Respublikasi Er resurslari davlat qo'mitasi zimmasiga yuklatilgan. Bu vazifalardan kelib chiqqan holda «O'zdaverloyiha» institutining Yer kadastr sho'ba korxonasi yer monitoringi amalga oshirilishini ta'minlashga quyidagi yirik masalalarni hal etish bilan hissa qo'shishni rejalashtirmoqda:

1) Qishloq xo'jalik yerlari tuproq monitoringini amalga oshirish uchun tuproqshunoslik tadqiqotlariga oid to'plangan barcha ma'lumotlarni umumlashtirib, monitoring tadqiqotlarini olib borish maqsadida respublika, viloyatlar hamda tumanlar hududida asosiy maydonlarni tanlash va ularni asoslash;

2) vaqt o'tishi bilan tuproqlarning asosiy xususiyatlari o'zgarganligini isbotlovchi ma'lumotlarni teran va to'liq tahlil etish;

3) tadqiqot olib boriladigan asosiy hamda ekologik maydonlarda tuproqlarning holatini isbotlovchi ko'rsatkichlar majmuasini asoslash, tashkil etish hamda yuritish;

4) tuproqning holatini kuzatish, unga oid ma'lumotlarni sifatli to'plash hamda ularga o'zgartirishlar kiritish kerak.

Buning uchun esa quyidagilar amalga oshiriladi:

a) qishloq xo'jalik yerlari tuproqlarini suv va shamol eroziyasi ta'siri oqibatida o'zgarishi monitoringi;

b) qishloq xo'jalik yerlari tuproqlari sho'rlanganlik darajasining o'zgarish jarayoni monitoringi;

v) qishloq xo'jalik yerlari tuproqlari og'ir metallar bilan zaharlanganlik hamda zaharlanganlik darajasining o'zgarishi monitoringi;

g) qishloq xo'jalik yerlari tuproqlarining texnogen o'zgarishi monitoringi;

d) neft mahsulotlari salbiy ta'siri natijasida tuproqlarning ifloslanishi monitoringi;

e) barcha o'simliklarning og'ir metallar bilan zaharlanish darajasi monitoringi;

j) qishloq xo'jalik yerlari tuproqlarining gerbitsit va pestitsidlar bilan zaharlanish darajasi monitoringi;

z) mineral o'g'itlardan foydalanish natijasida tuproqlar tarkibidagi o'zgarishlar monitoringi amalga oshiriladi.

Ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblangan bu ishlarni o'z vaqtida, sifatli bajarish uchun respublikamizda malakali mutaxassislar yetarli, lekin bunday ko'zlangan maqsadga erishish katta mablag`ni talab etadi. Bu mablag` evaziga esa korxonaning moddiy-texnika ta'minoti barpo etilishi hamda rivojlantirilishi mavjud.

Shunday qilib, xulosa shuki, yer monitoringi, bu yer tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarining oldini olish va oqibatlarini tugatish uchun yer fondining holatini kuzatib turish tizimidan iborat.

Shu bilan bir qatorda, yer monitoringi davlat yer kadastrini yuritishni, yerdan foydalanishni, yer tuzishni, yer fondidan belgilangan maqsadda va oqilona foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni, erlarni muhofaza qilishni axborot bilan ta'minlash er monitoringi asosida amalga oshiriladi.

Davlat yer kadastrining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Davlat yer kadastrini yerlarning tabiiy, xo'jalik va huquqiy rejimi, ularning toifalari, sifat ko'rsatkichlari va bahosi, yer uchastkalarining joylashgan manzili va o'lchamlari, ularni yer egalari, erdan foydalanuvchilarga, ijarachilarga hamda mulkdorlarga taqsimlash to'g'risidagi zarur, ishonchli ma'lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat. Davlat yer kadastrini yer munosabatlarini tartibga solish, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, yer tuzishni tashkil etish, yer uchun to'lanadigan haq miqdorini asoslash, xo'jalik faoliyatiga baho berish maqsadida barcha tashkilot, korxonalarda fuqarolarni yer to'g'risidagi ma'lumotlar bilanta'minlashga mo'ljallangan.

5. YERDAN, SUVDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR, ULARNI ANIQLASH TARTIBI

Yer va suv qishloq xo'jaligining eng asosiy ishlab chiqarish vositalari ekan, ulardan qanday foydalanilganini bilish zarur. Buning uchun quyidagi ko'rsatkichlardan ifodalash mumkin:

a) Umumiy yer fondidan foydalanish koeffisienti (foizi). Uning darajasini aniqlash uchun qishloq xo'jaligida haqiqatda foydalanilgan yer maydonini foydalanish mumkin bo'lgan yer maydoniga taqsimlash lozim. Buni quyidagi tenglik yordamida aniqlash mumkin:

$$YeFK = \frac{FYe}{FMYe}; \text{ yoki } \frac{FYe}{FMYe}; \times 100:$$

Bunda: YeFK - umumiy yer fondidan foydalanish koeffisienti, (foizi);

FE - qishloq xo'jaligida foydalanilgan yer maydoni, ga;

FME - foydalanilishi mumkin bo'lgan yer maydoni, ga.

Bu ko'rsatkich koeffisientda yoki foizda aniqlanishi mumkin. Uni aniqlash natijasida erdan foydalanishning ty'liqlik darajasi aniqlanadi. Uni

haqiqiy darajasi, ya'ni koeffisienti 1 dan yoki 100 foizdan ortiq bo'lishi mumkin emas. Bu ko'rsatkichni aniqlash natijasida tarmoqda (xo'jalikda) qancha yerdan foydalanilgan va qanchasidan foydalanilmaganligi bilinadi. Shundan so'ng bunday holning sabablari aniqlanib, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

b) **Suvdan foydalanish koeffisienti.** U haqiqatda sug'orilgan maydonni shu suv bilan sug'orilishi mumkin bo'lgan maydonga taqsimlash natijasida aniqlanadi. Buning uchun quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$SFK = \frac{SM}{SMM}; \text{ yoki } \frac{SM}{SMM} \times 100;$$

Bunda: SFK-suvdan foydalanish koeffisienti yoki foizi;

SM-haqiqatda sug'orilgan maydon, ga;

SMM-sug'orilishi mumkin bo'lgan maydoni, ga.

XULOSA

Yer va suvga nisbatan davlat mulkchiligi saqlangan holda ulardan yil davomida to'liq va samarali foydalanish huquqi jismoniy hamda yuridik shaxslarga uzoq muddatga hamda umrbod berilmoqda.

Ulardan to'liq va samarali foydalanganlik darajasini ma'lum bir ko'rsatkichlar tizimi yordamida tahlil etish lozim.

Keyingi yillarda yerlardan, suvlardan foydalanishning samaradorligi talab darajasida emas. Sababi – yerlarning irrigatsiya-melioratsiya holati yomonlashayotganligi, ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan almashlab ekish to'liq joriy etilmayotganligi, sug'orish inshootlarining ishga yaroqlilik holati pasayishi, yer va suvlardan samarali foydalanganlik uchun rag'batlantirishning sustligidir.

Kelajakda yer va suv resurslaridan foydalanish darajasini hamda iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun tuproq unumdorligini, suvning sifatini yaxshilashga qaratilgan barcha tadbirlar o'z vaqtida, sifatli bajarilishini ta'minlash zarur.

Mamlakat miqyosida yer-suv monitoringi va kadastrlari talab darajasida amalga oshirilishini ta'minlash kerak.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Yer va suv resurslarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati, yer va suv resurslari qishloq xo'jaligining asosiy vositasi ekanligi.
1. Yer va suvlarning tarkibi, ularni xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Yer kadastrini, uning tarkibi, amalga oshirilishi haqida nimalarni bilasiz?
3. Yer monitoringi, uning mazmuni haqida-chi?
4. Yer va suv resurslaridan foydalanish darajasini hamda samaradorligini oshirishning qanday yo'llari bor?

7-MAVZU: QISHLOQ XO`JALIGIDA MEHNAT RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

Reja:

1. Qishloq xo`jaligi mehnat resurslari tushunchasi va uning tarkibi.
2. Mehnat resurslaridan foydalanish ko`rsatkichlari, mehnat unumdorligi va uni hisoblash usullari.
3. Qishloq xo`jaligida mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligini oshirish yo`llari.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. «O`zbekiston», 1994 yil. 251-268 betlar. Dehqonchilik taraqqiyoti – farovonlik manbai.
2. Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida. T.: «O`zbekiston», 1995 yil, 58-75 betlar. Qishloq xo`jaligini isloh qilish. Agrar munosabatlarini yangi turini shakllantirish.
3. Hakimov Rashid va boshqalar. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. T.: 2004 yil, o`quv qo`llanma, 61-67 betlar.
4. Abdug`aniev Abdulatif, Abdug`aniev Abduqahhor. Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti. T.: 2004 yil, darslik. VIII bob, 144-165 betlar.
5. O`zbekiston Oliy Majlisining axborotnomasi, 1998 yil №5-6, may-iyun, 87-101 betlar. O`zbekiston Respublikasining fermer xo`jaligi to`g`risidagi qonun.

1. QISHLOQ XO`JALIGI MEHNAT RESURSLARI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBI

Qishloq xo`jaligidagi korxonalarda mehnat resurslari asosiy va yordamchi guruhlariga bo`linadi. Asosiy mehnat resurslariga 16 yoshdan 54 yoshgacha bo`lgan ayollar va 16 yoshdan 60 yoshgacha bo`lgan erkaklar kiradi. Yordamchi mehnat resurslariga 14-16 yoshdagi o`smirlar nafaqadagi ayollar va erkaklar kiradi. Yordamchi mehnat resurslaridan qishloq xo`jaligi yilining ayrim davrlarida foydalaniladi. Masalan, qishloq xo`jaligida hosillarni yig`ib-terib olish paytlarida yoki ob-havo juda noqulay kelgan paytlarda. Ma'lumki, qishloq xo`jaligida ishlab chiqarish jarayoni mavsumiy xarakterga ega. Natijada ishlab chiqarish xususiyatidan kelib chiqib, yilning ayrim davrlarida mehnat resurslari bo`sh bo`lib qolishi mumkin, Ayniqsa, paxtachilikda chigit ekilganidan keyin, urug`unib chiqquncha 15-20 kun o`tadi, bu davrda ishchi xodimlar bekor qoladi.

Qishloq xo`jaligida er asosiy ilab chiqarish vositasi bo`lganligi uchun ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishini tanlashga ta'sir etadi, qishloq xo`jaligida ishlab chiqarish yirik maydonlarda tashkil etilishi ham, mehnatni tashkil etish ma'lum talablar asosida olib boriladi.

Qishloq xo`jaligida mehnat resurslaridan foydalanish darajasi quyidagi ko`rsatkichlar bilan aniqlanadi.

1. Har bir ishchi xodimning bir yilda ishlagan kunlari. Odatda qishloq xo`jaligida erkaklar bir yilda 280 kun, ayollar 240 kun ishlashga normal hisoblanadi, lekin asosiy mehnat resurslariga bu yo`llaniladi.

2. Yil davomida ishlashi lozim bo`lgan shundan foydalanish koeffisienti. Bu koeffitsient haqiqatda ishlagan kunlarni normal bo`yicha ishlashi lozim bo`lgan shu kunlar miqdoriga bo`lishi orqali aniqlanadi. Masalan, yuqorida aytib o`tilganidek, erkaklar bir yilda 280 kun ishlashi kerak, amalda esa 220 kun ishlaydi, deb faraz qilaylik, buning uchun $220:280 \times 100\% = 78,5\%$, demak ishlashi kerak bo`lganidan 21,5% kam.

3. Xo`jalikning mehnat resurslari holatini bilish uchun mehnat resurslari balansi tuziladi. Mehnat resurslari balansi quyidagicha tuziladi: ishlab chiqarish jarayonida haqiqatdan qatnashgan mehnat resurslari sonini, xo`jalikda shartnoma (buyruq) bo`yicha mavjud bo`lgan mehnat resurslari miqdoriga taqsimlanadi, masalan xo`jalikda 110 kishi ishlab chiqarishda qatnashadi, buyruq bo`yicha esa 130 kishi qatnashishi kerak, demak: $\frac{110}{130} = 0,84$

Demak, mehnat resurslaridan foydalanish koeffisienti 0,84.

Balans ma'lumotlari xo`jalikning iqtisodiy rivojlantirilishida ishlatiladi.

Mehnat resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi yil davomida bir ishchi xodim hisobiga ishlab chiqarilganligi mahsulot miqdori bilan aniqlanadi.

Masalan, 2004 yilda dehqonchilikdagi yalpi mahsulot miqdori 110 mlrd. so`mni tashkil etadi, ishlab chiqarishdagi ishchilar soni 90 kishi, demak:

110 mlrd. so`m q 1 mlrd. 229 mln. so`mlik yalpi mahsulot

90 kishi

bir kishiga to`g`ri keladi.

2. MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH KO`RSATKICHLARI, MEHNAT UNUMDORLIGI VA UNI HISOBLASH USULLARI

Mehnat unumdorligi iqtisodiy kategoriya bo`lib, konkret sarflangan mehnatning natijasidir.

Vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori mehnat unumdorligini ifodalaydi.

Qishloq xo`jaligida mehnat unumdorligini aniqlashda natural va qiymat ko`rsatkichlaridan foydalaniladi.

Natural ko`rsatkichlarga vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan yalpi hosil va bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt miqdori kiradi va bu har bir mahsulot turi bo`yicha alohida hisoblanadi. Lekin natural ko`rsatkichlar ma'lum kamchiliklarga ega. Masalan, qishloq xo`jaligida bir ishchi yil davomida turli tarmoqlarda faoliyat ko`rsatadi, jumladan, paxtachilikda, sabzavotchilikda, donchilikda va shu boshqa tarmoqlarda. Ba'zan bir kunning o`zida bir nechta turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etadi. Bu esa ishchi xodimning ish vaqtlarini u ishlagan sohalarga taqsimlash muammosini keltirib chiqaradi. Albatta, iqtisodchilar tomonidan mehnat sarflarini mahsulotga taqsimlash usullari ishlab chiqilgan. Lekin, shunga qaramay, mehnat unumdorligining natural ko`rsatkichlari haqiqiy holatni juda aniq belgilay olmaydi. Shu sababli mehnat

unumdorligining qiymat ko'rsatkichlaridan kengroq foydalaniladi. Mehnat unumdorligini hisoblash usullaridan bir-biri ishchi xodim hisobiga bir yilda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdori. Bu ko'rsatkich mehnat unumdorligining eng asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.

Bu yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini ishchi xodimlarning o'rtacha yillik soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bunda yalpi mahsulot uni ishlab chiqarilgan vaqt, kishi soatlariga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Mehnat unumdorligining kishi soatlari bo'yicha aniqlangani to'g'riroq hisoblanadi. Chunki xodimlarning o'rtacha yillik soni ularni haqiqatda sarflangan mehnatni kishi soatlaridek aniq belgilamaydi. Chunki bir kishining 280 yoki 260 kun ishchi chiqqani, uning haqiqatda har kuni necha soat ishlaganini bildirmaydi. Mehnat unumdorligining bu ko'rsatkichlarni hisoblaganda yalpi mahsulotni hisoblash usullari katta ahamiyatga ega. Amalda yalpi mahsulot joriy baholarda hisoblanadi. Agar uzoq davrlarda mehnat unumdorligining dinamikasini ko'rganda yalpi mahsulotni solishtirma baholarda olish talab qilinadi va bu ko'rsatkichning yildan-yilga oshib borishi ijobiy natija hisoblanadi.

Yoki bir so'mlik, yuz so'mlik va ming so'mlik yalpi mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt ham mehnat unumdorligining ikkinchi iqtisodiy ko'rsatkichidir.

Sarflangan mehnat kishi soatlariga o'lchanadi, bu ko'rsatkich yildan-yilga kamayib borgan ijobiy natija beradi, chunki bu iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

3. QISHLOQ XO`JALIGIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALINISH VA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO`LLARI

O'zbekiston qishloq xo'jaligida mehnat bozori, boshqa sohalarga nisbatan rivojlanmagan, uni rivojlantirish esa birinchi darajali iqtisodiy va ijtimoiy muassasa hisoblanadi. Respublikamizning qishloq xo'jaligida band bo'lganlarning mutloq va nisbiy kamaytirish ham faqat bugungi kun vazifasi bo'lmay, kelajakdagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligidagi mehnat resurslarining malakasi ham boshqa tarmoqlarga nisbatan pastdir, bu muammoni hal etish esa shu soha iqtisodiyotini rivojlantirish bilan birga mamlakat iqtisodiyotini ham yuqori bosqichga olib chiqadi va bunday sharoit sanoat sohasiga va boshqa xizmat turlariga mehnat resurslarining bir qismini o'tish uchun sharoit yaratadi, chunki bu sohada mehnat unumdorligining o'sish jarayonida mehnat resurslarining bir qismini agrar sohadan bo'shatib, boshqa sohaga ishlashga sharoit yaratadi, bu esa rivojlantirishning umumiy ob'ektiv tendentsiyasi hisoblanadi.

Demak, qishloq xo'jaligida mehnat resurslarini malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash tizimini yanada jonlantirish kerak.


Qishloq xo'jaligi aholisini ishchi xizmatchilarning daromadlarini iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari ishchi xizmatchilari daromadlaridan past

bo'lmaganligini ham mehnat resurslaridan foydalanish darajasini oshirishga sharoit yaratadi.

Bizning milliy mintaletitemiz va Respublikamizning mavjud shart-sharoitlari, qishloq aholisini nisbatan kam harakatlantiradi, chunki nisbatan o'troq holda bo'lgan aholini o'sha joyning o'zida ish bilan ta'minlash muammosini hisobga olishini talab qiladi. Lekin, bu muammoni echish bozor iqtisodiyoti talablariga zid kelmasligi kerak, shunga qaramasdan, sanoatni, xizmat ko'rsatishni qishloq joylarida tashkil etish doimiy ravishda amalga oshirilishi lozim.

Qishloq xo'jaligida mehnat resurslarining mehnatini qurollanish darajasini oshirish ham, mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash yo'llaridan biridir, ya'ni, qishloq xo'jaligida mehnat har bir ekin turini, yoki mahsulotning turi bo'yicha texnologiyani hisobga olib, zarur vositalar bilan ta'minlanishi kerak, bu masalani yechish yo'llaridan biri kichik texnika ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish talab qilinadi.

Mehnat resurslarining tarkibi.



Agrar sohada fan-texnika yutuqlaridan foydalanishni yanada yaxshilash ham mehnat resurslaridan samarali foydalanishiga olib keluvchi omildir. Bunga asosiy e'tibor esa yangi va serhosil ekin navlarini yaratish, ularga ishlab

chiqarishga joriy etish, chorvachilikda esa chorva mollarining sarmahsul zotlarini ko`paytirish maqsadga muvofiqdir.

Mehnat resurslarining xalq xo`jaligi tarmoqlarida band bo`lgan qismi iqtisodiy aktiv aholini tashkil etadi. Boshqacha aytganda, mehnat resurslarining haqiqiy sonidan mehnatga yaroqli yoshda bo`lib, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o`qiyotgan va harbiy xizmat saflarida xizmat qilayotganlar soni ayirib tashlanganidan so`ng, qolgan qismi aktiv aholini tashkil etadi.

Iqtisodiy aktiv aholi tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Davlat, kooperativ, jamoat tashkilotlarining korxonalar va muassasalarida band bo`lgan ishchi va xizmatchilar;

2. Qishloq xo`jaligidagi kooperativ (shirkat) fermer va dehqon xo`jaligidan tarmoqlarda band bo`lgan aholi;

3. Xalq xo`jaligida boshqa tarmoqlarida band bo`lgan aholi hunarmandlar va boshqalar.

Iqtisodiy aktiv aholining umumiy aholi soniga nisbati aholining iqtisodiy aktivlik darajasini xarakterlaydi, ya'ni: **aholining aktivlik darajasi** =

$$\frac{2002 \text{ yil q iqtisodiy aktiv aholi soni (1333,2 mln)}}{\text{ma'lumoti}} \cdot 100 = 35,9$$

aholining umumiy soni 26 mln

Aktiv aholi soni mehnat resurslari soni bilan taqqoslanganida, mehnatga qobiliyatli potensial ishchilardan foydalanish koeffitsienti kelib chiqadi.

$$\frac{2002 \text{ yil q iqtisodiy aktiv aholi soni } 9333,2 \text{ ming kishi}}{\text{ma'lumoti}} \cdot 75,6\%$$

mehnat resurslari potentsiali soni 12346 ming k.

XULOSA

Mehnat resurslari deganda aholining mehnat qilish qobiliyatiga ega bo`lgan qismi tushuniladi. Qishloq xo`jaligida ular asosiy va yordamchi mehnat resurslariga bo`linadi. Asosiy mehnat resurslariga 16 yoshdan 55 yoshgacha bo`lgan ayollar, 16 yoshdan 60 yoshgacha bo`lgan, mehnat qilish qobiliyatiga ega erkaklar, yordamchi mehnat resurslariga 14 yoshdan 16 yoshgacha bo`lgan o`g`irlar va nafaqa yoshidagi ayol va erkaklar kiradi.

Qishloq xo`jaligining mehnat resurslari nisbatan katta bilimga ega emas. Bu borada katta ishlar qilish kerak va ularning bilimini keskin oshirish talab etiladi. Sanoat va xizmat ko`rsatish sohalari nisbatan bilimi yuqori mehnat resurslarini talab qiladi. Qishloq mehnat resurslarining yana bir xususiyati ularning kam harakatda bo`lishi yoki o`rtoqligidir.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

a. «Mehnat resurslari» tushunchasi. Qishloq xo`jaligi mehnat resurslari tarkibi.

b. Mehnat resurslaridan foydalanish ko`rsatkichlari.

c. Qishloq xo`jaligida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo`nalishlari.

Mehnat bozori va uning hozirgi holati to`g`risida qisqacha tushuncha.

8-MAVZU: QISHLOQ XO`JALIGIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA MAHSULOT TANNARXI

Reja:

1. Tannarx tushunchasi va uning mohiyati.
2. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarining tannarxini hisoblash tartibi.
3. Qishloq xo`jaligi mahsulotlari tannarxini pasaytirish yo`llari.
4. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarining tannarx darajasi va dinamikasi.
5. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarining tannarxini hisoblash tartibi.

ADABIYOTLAR

1. Xoshimov R. va boshqalar. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. Toshkent 2004 o`quv qo`llanma. XI bob 78-83 betlar.
2. Abdug`aniev Abdulatif va boshqalar. Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti. Toshkent 2004. Darslik XI bob 216-241 betlar.

1. TANNARX TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

Mahsulot tannarxi deganda mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarning puldagi ifodasidir. Mahsulot tannarxi shu mahsulot qiymatining bir qismi hisoblanadi. Mahsulot qiymati bilan tannarxi o`rtasidagi farq umumiy holda foydani ifodalaydi.

Iqtisodiy fan tannarxning ikki turini farq qiladi. Birinchisi, mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi, ikkinchisi mahsulot tannarxining birligining to`liq tannarxi. Mahsulot birligining to`liq tannarxi, shu mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog`liq xarajatlarning puldagi ifodasidir.

Xo`jaliklarda reja tannarxi va hisobot tannarxi mavjud. Reja tannarxi shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun me'yor (normativlar) asosidagi xarajatlar bo`yicha hisoblanadi. Hisobot tannarxi esa joriy yilda haqiqatda qilingan xarajatlar va olingan mahsulot asosida aniqlanadi. Masalan, 2006 yil boshida biznes reja tuzishda 1-sentner paxta etishtirish uchun reja tuzilsa 2006 yilning dekabr oyida 1-sentner paxtaning haqiqiy tannarxi hisoblab chiqiladi. Haqiqiy tannarx hisobot tannarxidan yuqori bo`lishi ham mumkin. Mahsulot tannarxi umumlashtiruvchi ko`rsatgich bo`lib, unda mehnat unumdorligi, ishlab chiqarishning ixtisoslashganligi intensivlik darajasi tejamkorlik ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashganlik darajasi, fan yutuklaridan qanday foydalanayotganligi ifodalanadi. Mahsulot tannarxini darajasidan, korxonaning ishlab chiqarish kelajagini belgilaydi, ya'ni mahsulot birligi tannarxi, shu mahsulot bozoridagi narxdan baland bo`lsa, korxonada zarar ko`radi va korxonada bankrot holatiga tushadi. Qishloq xo`jaligi O`zbekiston xalq xo`jaligining eng muhim tarmog`i bo`lib, uning faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun ma'lum miqdorda pul xarajatlari, moddiy xarajatlar va mehnat sarf xarajatlarini amalga oshiriladi. Bu xarajatlarning Respublika miqyosidagi miqdoriga jami

ijtimoiy xarajatlar deb ataladi. Ijtimoiy xarajatlar ijtimoiy mahsulot qiymati bilan teng.

Ijtimoiy xarajatlarning tarkibi quyidagilardan tashkil topadi:

1. ishlab chiqarish vositalarida buyumlashgan xarajatlar, ular o'tgan davr xarajatlardir.

2. jonli mehnat xarajatlari ular o'zi uchun yangi qiymatni yaratadi.

3. buyumlashgan va jonli mehnatning uyg'unlashuvi natijasida jamiyat uchun qo'shimcha qiymat yaratiladi.

Mamlakatning jami ijtimoiy xarajatlari bular davlat, tarkmoq, korxonalar va tashkilotlar miqyosidagi barcha xarajatlarning yig'indisidir. Tarmoqning ijtimoiy xarajatlari ular individual korxonalarining, tashkilotlarning xarajatlari yig'indisidir. Shunday tarmoqlardan biri qishloq xo'jaligidir. Qishloq xo'jalik korxonalarini turli xildagi mahsulotlarni etishtirish xizmat ko'rsatish va ishlarni bajarish uchun moddiy xarajatlarni amalga oshiradilar. Urug'lik, ko'chat, mineral va mahalliy o'g'itlar, kimyoviy vositalar, yoqilg'i moylash materiallari, ozuqa va yem-xashaklar, asosiy vositalarning eskirish qiymati, ishchi-xizmatchilarning mehnat haqi, mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, kam qiymatli, tez eskiruvchan materiallar va boshqalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarmoqda amalga oshiriladigan xarajatlarning yangi tartibi 1995 yil 1 yanvardan boshlab joriy etila boshlandi. Bu yangi tartib «mahsulot ishlab chiqarish ish, xizmat va sotish tannarlariga qo'shiladigan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizom»da o'z ifodasini topgan. Ushbu nizom 1999 yilda chop etilgan. Hozirgi davrda agrar soha amalga oshiriladigan xarajatlar doimiy xarajatlar va o'zgaruvchan xarajatlardan tashkil topadi. Doimiy xarajatlarni oshirish chikarilayotgan mahsulot hajmining o'zgarishi bilan bog'liq emas. Masalan, ayrim asosiy vositalarning eskirish summasi, ya'ni amortizatsiya summasi to'lovlari yer uchun to'lanadigan ijara haqi yoki ayrim asosiy ishlab chiqarish vositalariga to'lanadigan ijara haqi va boshqalar. O'zgaruvchan xarajatlar esa ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmining o'zgarishi bilan bevosita bog'liq. Masalan, urug'liklar, mineral va mahalliy o'g'itlar, ko'chatlar mehnatga to'lanadigan ish haqi, chorvachilikda esa yem-xashak, ozuqalar va shunga o'xshash xarajatlar kiradi. Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning o'zgarishi yangi texnikalarni sotib olish bilan samarali texnologiyalarni joriy etish, ilg'or tajribani amalga oshirish sarmahsul chorva mollarini yaratish kabilar bilan bevosita bog'liq.

Xo'jaliklarda amalga oshirilayotgan xarajatlar ma'lum maqsadni hal etishga qaratilgan, shundan kelib chiqib, bu xarajatlar quyidagicha guruhlashtirilgan:

1. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar; b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari (ish haqi); v) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar.

2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, lekin asosiy faoliyatdan foyda hisobiga olinadigan hamda davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar. Bunday xarajatlar jumlasiga quyidagi xarajatlar kiritiladi a) mahsulotni sotish

bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar; b) korxonani boshqarish xarajatlari, ya'ni ma'muriy sarf-xarajatlar; v) boshqa operasion xarajatlar va zararlar.

3.Xo`jalik yurituvchi sub'ektning umumxo`jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishdagi moliyaviy faoliyati bo`yicha hisobga olinadigan xarajatlar.

4.Favqulodda zarar, daromad (foyda)dan olinadigan soliq to`langunga qadar foyda yoki zarar hisobga olinadi. O`z-o`zidan ma'lum, xarajatlarning tejalishi foydaning ko`payishiga va rentabillik darajasining yuqori bo`lishiga olib keladi. Foydaning ko`payishi esa xo`jalikni kengaytirilgan tovar ishlab chiqarish asosida rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

2. QISHLOQ XO`JALIGI MAHSULOTLARINING TANNARXINI HISOBLASH TARTIBI

Qishloq xo`jaligi mahsulotlarining tannarxini hisoblash tartibi. Qishloq xo`jaligi mahsulotlari tannarxi mahsulot birligiga, ya'ni 1-sentner paxtaga, 1-sentner go`shtga (tirik vaznda), 1-sentner g`allaga va shunga o`xshash ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatini joriy narxlarda hisoblash asosida aniqlanadi. Qishloq xo`jaligida mahsulot tannarxiga quyidagi xarajatlar kiradi.

№	Xarajatlar	O`simlikchilikda	Chorvachilikda
1	Ish haqi qo`shimchasi bilan	+	+
2	Urugchilik ...	+	-
3	Yem-xashak...	-	+
4	Yoqilg`i moylash materiallari...	+	+
5	O`g`it...	+	+
6	Zarakunanda va kassaliklarga karshi kurash vositalari...	+	+
7	Asosiy ishlab chiqarish vositalarni saklash (amortizasiya) ...	+	+
8	Turli ish va xizmatlar...	+	+

Qishloq xo`jaligida mahsulotlar tannarxini aniqlashda xarajatlar ma'lum guruhlariga bo`lib aniqlanadi va buni mahsulot tannarxi kalkulyasiyasi deyiladi. Tannarx tarkibini yillar davomida tahlil qilib borish iqtisodchilarga ham, xo`jalik rahbarlariga ham mavjud kamchiliklarni va ishlab chiqarishda foydalanilmayotgan imkoniyatlarni ochib beradi.


Ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga qarab xarajatlar to`g`ri xarajatlarga (bevosita) va egri xarajatlarga (bilvosita) bo`linadi.

Bevosita xarajatlar mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida qatnashadi va tannarxga to`g`ridan-to`g`ri kiritiladi. Masalan, o`g`itlar, urug`liklar, chigit, arpa urug`i chorvachilikda esa em-xashak mahsulotlarini ishlab chiqarishda qatnashgan xodimlarning ish haqi va shunga o`xshashlar. Lekin, qishloq xo`jaligining o`ziga xosligi shundaki, unda bir xodim yoki bir texnika bir yildan va bir yilda bir nechta mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiladi, bu xarajatlarni shu mahsulotlar o`rtasida taqsimlash ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, Ayniqsa korxonani boshqarish bilan bog`liq

boʻlgan xarajatlar alohida usul-metodikani talab qiladi. Bu xarajatlar bir mahsulot turiga toʻgʻridan-toʻgʻri kirmaganligi sababli ularni bilvosita yoki egri xarajatlar deyiladi. Yuqorida aytib oʻtilganidek qishloq xoʻjaligida barcha xarajatlar bir gektar erga, yoki bir chorva moliga hisoblanadi. Masalan, 1-gektardan olingan mahsulot miqdoricha, 1-sentnar paxtaga, 1-sentner gʻallaga va shunga oʻxshash mahsulot miqdoriga taqsimlanadi. Chorvachilikda esa bir bosh molga qilingan xarajatlar uni shu chorva molidan olingan mahsulotga boʻlinadi. Masalan, olingan sutga, olingan goʻshtga va hokazo. Bunday metodika bir qaraganda oddiy tuyuladi lekin, aslida esa bu metodika oʻziga xos qiyinchiliklarga ham ega. Masalan, qishloq xoʻjaligida bir ishlab chiqarish jarayonida asosiy mahsulot qoʻshimcha mahsulot va yondosh mahsulot olinadi. Misol uchun sutchilikka ixtisoslashgan qoramolchilikda bir bosh sigirdan maʼlum miqdorda sut sogʻib olinadi. Bu holda sut asosiy mahsulot hisoblanadi, shu sigirdan buzogʻ ham olinadi, bu buzoq qoʻshimcha mahsulot hisoblanadi. Shu sigirdan bir yil davomida goʻng, yaʼni 6-7 tonna organik oʻgʻit ham olinadi va bu olingan oʻgʻit yondosh mahsulot hisoblanadi. Lekin barcha xarajatlar bir bosh sigirga qilingan va natijada 3 xil mahsulot olingan. Koʻrinib turibdiki, sutga, buzoqqa va goʻngga alohida xarajat qilinmagan. Bunday holda mahsulot birligi uchun tannarxni hisoblash oʻziga xos qiyinchiliklarga olib keladi.

Oʻsimlichilikda esa barcha xarajatlar 1-gektarga qilinadi. Masalan, 1 gektar yerga chigit yoki gʻalla ekiladi, yerni ekish uchun tayyorlandi urugʻlik sarflandi, oʻgʻit berildi, sugʻorildi, ishlov berildi va hosil yetishtirilgach yigʻishtirib olindi. Donchilikda asosiy mahsulot don hisoblanadi, qoʻshimcha mahsulot esa don chiqidisi, yondosh mahsulot somon hisoblanadi. Ana shu mahsulotlarga xarajatlarni taqsimlash kerak. Bunday holda bir necha usullar bilan mahsulotlarni tannarxi aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligida mahsulot tannarxi ob'ektlari.



I usulda qo'shimcha va yondosh mahsulot ilmiy asoslangan ma'lum koeffitsientlar orqali asosiy mahsulotga aylantiriladi. Masalan,

G'alla 1 sentner q 1,0 koeff.

Somon 1 sentner q 0,08 koeff.

Don chiqindisi 1 sentner q 0,08 koeff.

Sut 1 sentner q 1,0 koeff.

Buzoq 1 bosh q 1,5 koeff.

Bular natijasida xarajatlar ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga taqsimlanadi va bir birlik mahsulotning tannarxi aniqlanadi.

II usulda mahsulotlarning narxi asosida qilingan xarajatlar taqsimlanadi.

III usulda yondosh mahsulotning qiymati aniqlanadi va qilingan xarajatlar chiqarib (chegirib) tashlanadi. Qolgan xarajatlar asosiy va qo'shimcha mahsulotlarga taqsimlanadi.

3. QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI PASAYTIRISH YO'LLARI

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarini tannarxini pasaytirish eng muhim masalalardan biridir, chunki mahsulot tannarxi qanchalik past bo'lsa baho yuqori bo'lsa, rentabellik ham shuncha yuqori

bo`ladi. Dehqonchilikda mahsulot tannarxini pasaytirish yo`llari quyidagilardan iborat:

1) Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan samarali foydalanish, chunki shu yo`l bilan hosildorlikni oshirish mumkin.

2) Regionga (viloyatga) mos sharoitga to`g`ri keladigan, ilmiy asoslangan qishloq xo`jaligini yuritish.

3) Almashlab ekishni to`g`ri joriy etish, talab va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ekin turlarini maqsadga muvofiq joylashtirish.

4) Urug`chilikni yaxshilash va seleksiya ishlarini yo`lga qo`yish.

5) Barcha kimyoviy vositalardan samarali foydalanish.

6) Mineral va organik o`g`itlardan foydalanishni ilmiy asosda tashkil etish.

7) Ishchi xodimlarning moddiy va ma'naviy manfaatdorligini oshirib borish.

8) Ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash terish yuli bilan mexnat unumdorligini oshirish.

9) Ekinlarni parvarish qilishda ilg`or va intensiv texnologiyalarni qo`llash.

10) Ishlab chiqarish fondlaridan ayniqsa asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanish.

11) Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va maqsadga muvofiq joylashtirish.

12) Agrosanoat integrasiyasini chuqurlashtirish va ASMga kiruvchi tarmoqlarning mutanosib rivojlantirish.

13) Boshkaruv tizimini rivojlantirish va takomillashtirish yo`li bilan xarajatlarni kamaytirish.

Yuqoridagilarga rioya qilinsa dehqonchilik sohasi xarajatlarni kamaytirib, rentabellikni oshirishga erishish mumkin. Qishloq xo`jaliginig ikkinchi asosiy tarmoqlaridan biri bu chorvachilikdir. Xo`sh, chorvachilikda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini qaysi yo`llar bilan pasaytirishga erishish mumkin, bular quyidagilar:

1)Chorvachilikning yem-xashak bazasini mustahkamlash, uning sifatini oshirish va arzon yem-xashak yetishtirish.

2)Chorva mollarining zotini yaxshilash va poda tarkibini maqsadga muvofiq saqlash.

3)Chorva mollarini boqishniing intensiv texnologiyalaridan foydalanish.

4)Chorvachilik mahsulotlarining sifatini yaxshilash va oshirish.

5)Ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash va ayrim jarayonlarini avtomatlashtirish (masalan, sug`orish jarayonlarini avtomatlashtirish mumkin).

6)Ishlab chiqarishda aktiv fondlardan samarali foydalanish.

7)Ishchi xodimlarni manfaatdorligini oshirib borish.

8)Mahsulotlarning nobud bo`lishiga yo`l qo`ymaslik, ayniqsa yem-xashaklarni yaxshi saqlash va ozuqa ratsioniga rioya qilish.

Yuqorida ko`rsatib o`tilganlarga rioya qilinsa chorvachilikda yaxshi samaradorlikga albatta erishiladi.

4. QISHLOQ XO`JALIGI MAHSULOTLARINING TANNARX DARAJASI VA DINAMIKASI

O`zbekiston qishloq va suv xo`jaligi vazirligi tizimidagi qishloq xo`jalik korxonalari turli xildagi qishloq xo`ujalik mahsulotlari etishtirib turli xildagi ishlarni va xizmatlarni bajarish jarayonida material, pul va mehnat sarflaydilar. Bozor iqtisodiyotiga o`tish davrida bu xarajatlar yil sayin oshib bormoqda.

Agarda 1997 yilda jami ishlab chiqarish xarajatlari 104,2 mlrd.so`m, 1998 yilda 128,6 mlrd.so`m, 1999 yilda 196,6 mlrd.so`m bo`lgan bo`lsa, 2000 yilga kelib 265,7 mlrd.so`mga va 2001 yillarda 469,2 mlrd.so`mga etgan.

1997-2001 yillarda xarajatlarning o`shish darajasi yil sayin oshib borgan.1998 yilda xarajatlar 1997 yilga nisbatan 23,4 foizga o`sgan 1999 yilda 1998 yilga nisbatan 52,9 foizga 2000 yilda 1999 yilga nisbatan 35,1 foizga teng bo`lgan, 2001 yilda 2000 yilga nisbatan o`shish 76,5 foizni tashkil etgan. Shu yillar ichida ishlab chiqarish ko`rsatgichlarining umumiy summasi 2,5 marta ko`paygan, buni quyidagi jadvaldan ko`rish mumkin.

№	Viloyatlar	1997 yil	1998 yil	1999 yil	2000 yil	2000yilda 1997yilga nisbatan%
1	Korakalpogiston respublikasi	7008,5	7777,8	13172,7	14514,6	207,1
2	Andijon...	13547	15517,9	24785,3	31609,8	233,3
3	Buxoro...	9338,9	10839	17830,1	21650,4	231,8
4	Kashkadaryo...	13551,7	15583,1	21189,7	27116,2	200,1
5	Samarkand...	9573,1	11365,4	20015,3	25419,1	234,2
6	Sirdaryo...	4020,5	4558,7	6529,2	11122,1	276,7
7	Surxandaryo...	1035,7	11425,4	13969	18229,1	175,7
8	Namangan...	8509,1	9403,1	13409	21561,6	253,4
9	Navoiy...	3296,3	3938,2	6206,8	8206,5	249,0
10	Jizzax...	3298,4	3926,8	6940,5	11397,7	342,5
11	Fargona...	1134,3	12910,2	18616,4	32134,4	283,3
12	Toshkent...	7711,7	8735,8	14284,7	19082,3	247,4
13	Xorazm...	12835,2	12609,6	19674	26722,5	208,3
	JAMI:	104196	128584	196586,7	265666	246,3

Ishlab chiqarish xarajatlarining o`shishiga asosan qishloq xo`jaligida ishlatilayotgan sanoat mahsulotlari baholarining yuqori sur'atlar bilan o`shishi ta'sir etgan. Jumladan yoqilg`i yonilg`i materiallarining o`rtacha bahosi 1996-2001 yillarda 5,2 martaga ortgan.

O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi tizimidagi jamoa, shirkat xo`jaliklarining ishlab chiqarish xarajatlari dinamikasi (mln. so`m)

2-jadval

O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi tarkibidagi jamoa va shirkat xo`jaliklarida asosiy ishlab chiqarish xarajatlarining salmog`i, foiz

Xarajat turlari	Xarajatlar salmog`i, foiz		Shundan			
			o`simlikchi-likda, foiz		chorvachilik-da, foiz	
	1998	2001	1998	2001	1998	2001
Mehnat haqi sarfi ijtimoiy sug`urta va ijtimoiy ta'minotga hisoblangani bilan	33,75	35,9	32,5	36,2	22,3	23,5
Urug`lik va ko`chatlar	6,8	6,4	8,7	7,65	-	-
Yem-xashak	5,9	4,8	-	-	47,9	44,0
Madaniy o`simliklar	10,74	9,96	13,6	12,0	-	-
Yoqilg`i va yonilg`i mahsulotlari	8,9	10,6	10,3	11,1	5,5	6,1
Elektr energiyasi	2,2	1,3	2,5	1,27	1,9	1,6
Ta'mirlash va qurilish materiallari	2,95	1,54	3,4	1,6	2,1	1,7
Ish va xizmatga to`langan, boshqa tashkilotlarning bajargan ishlari va material xarajatlari	10,44	12,95	11,9	14,54	6,7	7,5
Yer unumdorligini oshirish, o`g`itlash va agrokimyo ta'miri	2,93	3,3	3,6	3,76	0,8	0,8
Texnika uchun	5,2	4,26	5,8	4,8	2,2	2,3
Veterinariya va zootexnika xizmati	0,25	0,2	-	-	2,0	1,8

Aossiy vositalarning amortizatsiyasi	1,76	2,1	1,9	1,93	1,5	1,7
Sug`urta to`lovlari	0,3	0,33	0,3	0,4	0,2	0,1
Bank qarzi foizlari	0,08	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
Boshqa xarajatlar	7,8	6,26	5,4	4,6	6,8	8,7
Hamma xarajatlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

1997-2001 yillarda qishloq va suv xo`jaligi vazirligidagi xo`jaliklarda mahsulot yetishtirish tannarxi (bir sentri, so`m hisobida)

	Yillar					2001 yilda 1997 yildagiga nisbatan, marta
	1997	1998	1999	2000	2001	
Boshoqli don Shu jumladan:						
Bug`doy	1043	1353	2013	3075	4638	4,4
	913	1186	1791	2986	4567	5,0
Kartoshka	1279	1698	2020	2686	3107	2,4
Paxta xomashyosi	2440	3272	3240	6770	10380	4,3
Sabzavot	335	466	543	1094	1518	4,5
Poliz	230	283	366	621	926	4,0
Meva	717	844	1119	1352	1717	2,4
Uzum	846	1247	1448	1399	2457	2,9
Sut	2047	2865	3794	6347	11380	5,6
Go`sht(tirik vaznda)	7186	11015	15441	97666	74370	10,3
Jun	3466	3526	5252	14365	25057	7,2
Asal	9018	11581	22006		52156	5,8

Pilla	10363	18252	10765	38388	50890	4,9
-------	-------	-------	-------	-------	-------	-----

5. QISHLOQ XO`JALIGI MAHSULOTLARINING TANNARXINI HISOBLASH TARTIBI

Qishloq xo`jaligi mahsulotlari tannarxi mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan resurslarning xarajatining miqdorini joriy narxlarda hisoblash asosida aniqlanadi. Qishloq xo`jaligida mahsulotlar tannarxini aniqlashda xarajatlarni ma'lum guruhlarga bo`lish zarurati bor va undan foydalaniladi.

Xarajatlarni guruhlarga bo`lish mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi deb ataladi. Kalkulyasiya - qilinayotgan xarajatlarni guruhlarga, xarajat moddalariga bo`lishdir.

Qishloq xo`jaligida mahsulot tannarxiga quyidagi xarajatlar kiradi:

	Xarajat moddalari	O`simlikchi-likda	Chorvachi-likda
1.	Ish haqi qo`shimchalari bilan	+	+
2.	Urug`lik	+	-
3.	Yem-xashak	-	+
4.	Yoqilg`i-moylash materiallari	+	+
5.	O`g`it	+	+
6.	Zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash vositalari	+	+
7.	Asosiy ishlab chiqarish vositalarini saqlash	+	+
8.	Ish va xizmatlar	+	+

Tannarxning tarkibini yillar davomida tahlil qilib o`rganib borish iqtisodchilarga, xo`jalik rahbarlariga mavjud kamchiliklarni va foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlashga imkon beradi.

Ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga qarab xarajatlar to`g`ri yoki bevosita hamda egri yoki bilvosita xarajatlarga bo`linadi.

Bevosita xarajatlar mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonida qatnashadi va tannarxga to'g'ridan - to'g'ri kiradi. Bularga o'g'itlar, urug'liklar, em - xashak, shu mahsulotni ishlab chiqarishda ishtirok etganlarning ish haqi va boshqalar.

Lekin qishloq xo'jaligining o'ziga xosligi shundaki, unda bir xodim yoki bir texnika vositasi bir yilda bir nechta mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiladi. Ularning xarajatlarini ana shu mahsulotlar o'rtasida taqsimlash ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi. Ayniqsa, korxonani boshqarish bilan bog'liq xarajatlar bu borada alohida metodikani talab qiladi. Bu xarajatlar bir mahsulot turiga to'g'ridan - to'g'ri kirmaganligi sababli ularni bilvosita yoki egri xarajatlar deb yuritiladi.

Qishloq xo'jaligida barcha xarajatlar 1 gektar yoki bir bosh chorva hayvoniga hisoblanadi. Bir gektar erdan olingan mahsulot miqdoriga shu bir gektar erga ketgan xarajatlar miqdori taqsimlanadi. Chorvachilikda bir bosh molga qilingan xarajatlar uni shu chorva molidan olingan mahsulotga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bu bir qarashda ancha tushinarliga o'xshaydi. Aslida esa bunda o'ziga xos qiyinchiliklar mavjud. Gap shundaki, qishloq xo'jaligida bir ishlab chiqarish jarayonida asosiy, qo'shimcha va yondash mahsulotlar olinadi. Masalan, sut qaromolchiligida bir bosh sigirdan ma'lum miqdorda sut sog'ib olinadi. Bu holda sut asosiy mahsulot hisoblanadi. Shu sigirdan buzoq olinadi. Olingan buzoq qo'shimcha mahsulot hisoblanadi. Shu sigirdan 5-6 tonna miqdorida organik o'g'it - go'ng olinadi. Bu mahsulot yondash mahsulot hisoblanadi. Barcha xarajatlar bir bosh sigirga qilingan. Ya'ni, sigir boqilgan va natijada 3 xil mahsulot olingan. Biz sutga, buzoqqa va go'ngga alohida xarajat qilgan emasmiz. Bunday holda mahsulot birligining tannarxini hisoblash o'ziga xos murakkablikni keltirib chiqaradi.

O'simlikchilikda esa barcha xarajatlar bir gektarga qilinadi. Masalan, bir gektar erga don ekdik. Erni tayyorladik, urug'lik sarfladik, o'g'it berdik, sug'ordik va hosilni yig'ishtirib oldik. Donchilikda asosiy mahsulot don olindi. Qo'shimcha mahsulot-don chiqindisi va yondash mahsulot - samon olindi. Ana shu mahsulotlarga xarajatlarni taqsimlash zarurati kelib chiqadi. Bunday hollarda bir necha usul bilan mahsulotlar tannarxi aniqlanadi.

Birinchi usul qo'shimcha va yondash mahsulot ilmiy asoslangan ma'lum koeffitsientlar orqali asosiy mahsulotga aylantirib olinadi. Natijada xarajatlar mahsulot hajmiga taqsimlanadi va bir birlik mahsulot tannarxi aniqlanadi. Keyin yana koeffitsientlar yordamida qo'shimcha va yondash mahsulot tannarxi aniqlanadi. Ikkinchi usulda mahsulotlarning narxi asosida qilingan xarajatlar taqsimlanadi.

Uchinchi usulda yondash mahsulotning qiymati aniqlanadi va qilingan xarajatlardan chiqarib tashlanadi. Qolgan xarajatlar asosiy va qo'shimcha mahsulotlarga taqsimlanadi.

9-BOB. ASM TARMOQLARINING MAHSULOTLARINING BAHOLARI

REJA:

1. Baho tushunchasi, iqtisodiy ahamiyati va funktsiyalari.

2. Qishloq xo'jaligida baholar (narxlar) tizimi, ularning darajasi, dinamikasi.

3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baholarni takomillashtirish masalalari.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni takomillashtirish yo'lida. T.: 1995 yil. 88-102 betlar. Narxlarni erkinlashtirish va bozor infrastrukturasi moyillashtirish.

2. Abdug'aniev Abdulutif, Abdug'aniev Abdug'affor Abdulatipovich. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. T.: 2004 yil. XII bob, 242-253 betlar.

3. Hakimov Rashid va boshqalar. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. T.: 2004 yil. XII bob. 84-87 betlar.

1. BAHO TUSHUNCHASI, IQTISODIY AHAMIYATI VA FUNKSIYALARI

Baho iqtisodiy kategoriyadir va o'zida barcha omillarni ifodalovchi murakkab kategoriya hisoblanadi. Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda «baho» ayrimlarida esa «narx» deb yozilgan, mazmun jihatdan bu so'zlar bir ma'noni anglatadi. Lekin bu so'zlar mohiyatidan bir narsani bilamiz. Baho (narx) tovar qiymatining puldagi ifodasidir, ya'ni mexanizmidir. Baho orqali talab va taklifdagi real muvozanat o'rnatiladi, demak taklif ko'p bo'lsa baho arzonlashadi, taklif oz bo'lsa baho qimmatlashadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab hozirgi davrda quyidagi omillarga bog'liq:

1. iste'molchilarning daromadi (xohishiga);
2. xaridorlar soniga;
3. o'rindosh tovarlarning bahosiga (o'rindosh tovarlarga sariyog', ya'ni sigir qaymog'idan tayyorlangan yog', uning narxi margarin yog'iga nisbatan ancha qimmat bo'ladi, shu sababli iste'molchi sariyog' o'rniga margarin yog'ini sotib olishi mumkin. Va shu boshqa o'rindosh tovarlarni misol keltirish mumkin).

Mahsulotlarga bo'lgan talabni o'rganishda xalqimizning milliy urf-odatlarini, albatta, e'tiborga olish kerak. Masalan, o'zbeklarning nonga moyilligi, guruchga, un mahsulotlariga, qo'y va mol go'shtini ko'proq iste'mol qilishlari shular jumlasidandir.


Qishloq xo'jalik korxonalari o'z mahsulotlarini talabni e'tiborga olgan holda taklif etishlari mumkin. Bunda korxonalar quyidagi omillarga asoslanishlari lozim:

1. yetishtiriladigan mahsulotlarning bahosiga,
2. ishlatiladigan resurslar bahosiga,
3. qo'llanilayotgan texnologiyalar darajasiga,
4. texnologiyalarning samarasiga,
5. soliq stavkasiga.

Yuqoridagi holatlarga asoslangan holda qishloq xo'jaligi tarmog'ida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning baholarini, sarflangan mehnat va xizmatlarning baholarini quidagicha tartibda shakllantirishga e'tibor beriladi.

1-chizma

Qishloq xo'jalik korxonalarida bahoning shakllanishi



Demak, taklif va talab omillari va korxonalarining maqsadlarini e'tiborga olgan holdagina muvozanatlashgan baho shakllanadi. Muvozanatli baho esa iqtisodiy jihatdan asoslangan hisoblanadi. Mahsulotga bo'lgan bozor talabini hamda bahoning shakllanishini inobatga olgan holda belgilangan muvozanatli baholari xo'jalik nuqtai nazaridan quyidagi vazifalarni bajarilishi lozim:


- a) xo'jaliklarning maqsadga muvofiq, samarali ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini qoplash;
- b) xo'jalikning davr xarajatlarini qoplash;
- v) xo'jalikka kelajakda rivojlanishini ta'minlaydigan optimal miqdorda foyda keltirish.

Muvozanatli baholar iste'molchilar hamda mahsulot ishlab chiqaruvchilarning xarajatlarini, daromadlarini, foydalarini to'g'ri taqsimlab, ularning iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Lekin mahsulot ishlab chiqaruvchilar «monopolist», sotib oluvchilar «oligopolist», ya'ni unga ko'p bo'lmagan sotuvchilar, bunday holda mahsulot baholarining mutloq darajasi keskin o'zgarib, iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiyotiga turlicha ta'sir etish mumkin. Masalan, 2001 yilda suv tanqisligi sababli sholi hosili keskin kamaydi, bu esa 2002 yilning dastlabki oylarida bozorlarda guruchning bahosini 2-3 martaga oshib ketishiga olib keldi.

Natijada ishlab chiqaruvchilarning daromadlari ortadi, iste'molchilarning daromadlari esa aksincha kamayadi. Bunday hol ularning turmush darajasi nisbatan pasayishiga olib keldi. Paxta hosilini yetishtirishda esa xarajatlar viloyatlardoirasida, tumanlar bir-biridan ancha farq qiladi. Buning sababi

erlarning meliorativ holatidir. Masalan, yerning meliorativ holati yomon bo`lsa, ishlab chiqarish xarajatlari ko`p bo`ladi, chunki ishlab chiqarish vositalarni soib olish, ularni uzoq masofaga olib borish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar ko`p bo`ladi, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun ham xarajat qilinadi.

Bozor sharoitida bahoning funksiyalari, vazifalari **2-jadval.**




Lekin davlat paxta ham ashyosini sotib olish bo'yicha xarid baholarining mutloq miqdori respublika hududlarida bir xil. Bunday hol meliorativ jihatdan yomon bo'lgan qishloq xo'jalik korxonalarining iqtisodiyotiga salbiy ta'sir etadi, chunki so'nggi yillarda yetishtirilgan paxta xomashyosi to'liq davlatga davlat buyurtmalari hamda shartnomalar asosida sotilmoqda.

Bunday sharoitda, iqtisodiy jihatdan asoslangan muvozanatli baholarni shakllantirishda qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifni e'tiborga olish lozim. Bunda davlatning ham roli bo'lishi kerak.

(Iqtisodiy jihatdan asoslangan muvozanatli bahoning funksiyalarini (vazifalarini) 2-jadvalda ko'rish mumkin).

2. QISHLOQ XO'JALIGIDA BAHOLAR (NARXLAR) TIZIMI, ULARNING DARAJASI, DINAMIKASI

Barcha mahsulotlarga bo'lgan talablarni qondirish maqsadida turli xildagi o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqariladi. Ularni iste'molchilarga yetkazib berishda esa, ya'ni sotishda turli baholardan foydalaniladi, jumladan, bular 2-chizmada keltirilgan.



Hozirgi davrda qishloq xo`jalik korxonalarida etishtirilayotgan paxta xomashyosining 30 % «O`zpaxtasanoatsotish» uyushmasiga qarashli korxonalariga va donning 30 % «O`zdonmahsulot» korporasiyasi korxonalariga shartnoma asosida davlat buyurtmalarini bajarish maqsadida davlat harid baholarida sotilmoqda. Bu baholarning mutloq miqdori talab va taklif inobatga oligan holda o`zgarib bormoqda. Masalan, agar 1995 yilda bir sentner paxta xom-ashyosining davlat xarid narxi 800 so`m bo`lgan bo`lsa, 2000 yilda bir sentner paxtaning davlat xarid narxi – 5200 so`m bo`lgan, 2001 yilda – 8000 so`m, 2002 yilda – 10460 so`m bo`lgan. Demak, paxta xom ashyosi bo`yicha davlatning xarid narxi 1995-2002 yillarda 13,1 marta oshgan.

Boshqoli donning bir sentner davlat xarid narxi 1995 yilda 250 so`m bo`lgan bo`lsa, 2000 yilda 2181 so`m, 2001 yilda 3360 so`m va 2002 yilda 5295 so`m bo`lgan yoki 1995 yilga nisbatan 21,2 marta oshgan.

Paxta xom ashyosining xarid narxlari uning sanoat navlari bo`yicha sinflari va tolasining tiplari bo`yicha ham belgilanadi. Masalan, O`rta tolali paxta navi xom-ashyoning 1-navi 2-sinfga taluqli bo`lib, tolasining tipii IV bo`lganda, uning xarid narxi 7-tipdagiga asosan nisbatiga 23,5 foizga yuqori bahoda sotiladi. Boshqoli donlarning ham xarid korxonalarini ularning sifatlariga qarab o`rnatilgan, ya'ni mahsulot sifati qancha yuqori bo`lsa, uning xarid bahosi ham yuqori bo`ladi. Baholar rag`batlantiruvchi vazifani bajarishi lozim, respublikamiz hukumati esa bu masalaga alohida e'tibor bermoqda va bu yaxshi iqtisodiy natijalar bermoqda. Masalan, davlat xo`jaliklarini rag`batlantirish

maqsadida o'z buyurtmasi uchun bug'doyning xarid narxlarinin oshirishi, bug'doy yalpi hosilning oshishiga ijobiy ta'sir etmoqda.

Qishloq xo'jalik korxonalarini o'z mahsulotlarini davlat buyurtmasidan tashqarii erkin baholarda va boshqa turdagi baholarda sotmoqda. Erkin baholar bozorda mahsulot sotuvchi va uni sotib oluvchi o'rtasida iqtisodiy manfaatlar asosida va bozor talabi-taklifi asosida shakllanadi, ya'ni belgilanadi. Bu baho tarmoqlarning mahsulotni oldi-sotdi munosabati bo'yicha tuzilgan shartnomalarda o'z aksini topadi, shu sababli erkin baholar shartnoma baholari deb ham yuritiladi. Uning absolyut miqdori mahsulotning sotish davriga, unga bo'lgan talab va mahsulotning sifatiga bog'liq. Qishloq xo'jaligida erkin (shartnoma) baholarining mutlaq miqdori, agrar sohada foydalanilayotgan ishlab chiqarish vositalari baholarining o'sishi natijasida mahsulotlarga nisbatan talabning oshib borishi natijasida so'nggi yillarda mahsulot bahosi oshib o'zgarib bormoqda. Buni O'zbekiston Qishloq va Suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin (2-jadval).

O'zbekistonning qishloq xo'jalik mahsulotlari jahon bozorlarida ham sotilmoqda. Baholarni mutlaq (absolyut) miqdori jahondagi ixtisoslashgan yirik birjalarda belgilanib, mahsulot eksport iva importi shartnomalarida aks ettiriladi. Bu mahsulotlarning darajasiga jahondagi yirik tovar ishlab chiqaruvchilar va yirik sotib oluvchilar va bu mahsulot baholarining barqarorligini omillari ham ta'sir etadi. Masalan, 2001 yil sentyabrda Amerikada sodir etilgan voqealar jahon miqyosida neft' bahosini oshib ketishiga sabab bo'lgan bo'lsa, paxta tolasining bahosi pasayib borishiga olib keldi, guruch va bug'doyning bahosi ham o'zgarib turibdi, buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

1-jadval

Ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlarining jahon bozoridagi bahosi (1990 yil bahosida, o'rtacha tonna/dollar)

Tovarlar	Yillar						2001y.da 1990y.dagiga nisbatan,foiz
	1990	1997	1998	1999	2000	2001	
Paxta tolasini	1819	1613	1387	1131	1232	1163,5	≈64,0
Bug'doy	135,5	147,2	121,1	108,2	114,9	119,9	88,5
Guruch	270,9	280,0	291,9	239,9	244,9	248,2	91,6

Paxta tolasining o'rtacha jahon bahosi asosan Nyu-York va Liverpool xomashyo tovar birjalaridagi savdoda belgilanadi. Masalan, 1990-2002 yillarda paxta tolasining jahon bozoridagi bahosi 40 foizga yaqin pasaygan bo'lsa, bug'doy bilan guruchning bahosi esa 8-12 foizga pasaygan, bunday holga sabab, bug'doy bilan guruchning o'rindoshlik mahsulotlariga bo'lgan talab bilan qondirilgan, paxta tolasining o'rnini boshqa mahsulotlar bilan qondirish ancha yaxshi.

Qishloq xo'jalik korxonalarini o'z ishlab chiqarishini rivojlantirish maqsadida yetishtirilgan mahsulotlarning bir qismini qayta ishlaydilar, masalan, urug'lik uchun bug'doy hosilidan urug'lik etishtiradilar. Chorvachilik

sohasida esa yem-xashak tayyorlaydilar va shunga o`xshash mahsulotlar ichki munosabatlarni hisobga olib, bu mahsulotlar tannarx bo`yicha beiladi.

2-jadval

Qishloq xo`jalik mahsulotlarining o`rtacha erkin baholari*

Mahsulot turlari	1 s. sotish bahosi, so`m				
	1997 y	1998 y	1999 y	2000 y	2001 y
Boshoqli don	1123	1503	2381	2983	4608
Shu jumladan, bug`doy	1018	1332	2106	2845	4482
Kartoshka	1463	1748	2908	4086	6263
Paxta	1986	2408	3539	567	851
Sabzavot	451	725	874	1591	2250
Poliz	265	374	536	887	1242
Meva	647	915	1545	2175	3337
Uzum	936	1346	2195	2598	3519
Sut	1419	1884	2691	4801	7629
Go`sht (tirik vaznda)	6409	10260	15500	24988	38092
Jun	2160	2542	4593	10759	16169
Asal	15380	18693	30720	66398	92523
Pilla	7117	14709	8757	32300	46018

* Respublika Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shu sababli ham bunday baholarga tannarx baholari deyiladi.

Chakana baholar xo`jaliklar ma'lum miqdordagi ortiqcha mahsulotlarini aholiga sotiladigan baholaridir. Har bir fuqaro xohlagan miqdordagi qishloq xo`jalik mahsulotlarini bozordan, savdo do`konlaridan sotib olishi ham mumkin, bu jarayonda foydalanilgan baholarga ham chakana baholar deyiladi. Chakana baholar savdo jarayonida sotilayotgan tovarlarning bahosi. Chakana baholar orasida ulgurji savdo korxonasi va chakana savdo korxonasi sotib olgan tovarlarning bahosi yotadi. Bunday savdo korxonalarini ulgurji baholarga savdo ustamasini qo`yadilar va shu ustama hisobidan qilingan harakatlar qoplanadi va foyda olinadi. Savdo ustamasining miqdorini savdo korxonalarining o`zlari belgilaydilar, lekin savdo ustamasi belgilanganda ma'lum chegaradan o`tmaydilar, aks holda tovar sotilmasdan qolishi ham mumkin. Savdo ustamasiga qo`shimcha qiymat va maxsus soliq ham qo`shiladi.

Qishloq xo`jalik korxonalarining iqtisodiyotini bir necha yillar davomida o`rganilganda qiyosiy baholardan foydalaniladi, qiyosiy baholar asosida mamlakat miqyosidagi ma'lum bir yilning haqiqiy o`rtacha bahosi yotadi.

Qiyosiy baholar taqqoslama baholar deb ham yuritiladi. Hozirgi davrda O`zbekistonda 1996 yildagi haqiqiy baholar olingan.

Kelajakda esa taqqoslama baho uchun inflyatsiyasi va boshqa asosiy iqtisodiy masalalarni inobatga olib, boshqa yilning haqiqiy bahosi asos qilib olinishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot ayriboshlashda pul o`tkazish operatsiyalari ma'lum darajada buzilishi sababli ayrim mahsulotlar natura hoida barter yo`li bilan ayriboshlash ham amalga oshirilmoqda. Mahsulotlarni ayriboshlashda ekvivalentlik holatini ta'minlash uchun esa shu mahsulotning baholari inobatga olinmoqda. Lekin barter jarayonida korxonalar o`z maqsadlariga erishsalar, bunday holatda davlat ma'lum miqdorda daromad ololmay qoladi, chunki barterda mahsulotning qiymati pulda hisoblanmaydi, oqibatda davlat byudjetiga foydadan olinadigan soliq to`lanmaydi.

Smeta va tarif baholari ham mavjud bo`lib, bular qishloq xo`jaligi korxonalari tomonidan qurilish ishlari, transport va maishiy xizmatlar ko`rsatilganda bunday xizmatlar smeta va tarif baholarida hisob-kitob qilinadi.

Transfert baholari ham mavjud, bunday baholar bir xil birlashma ichida yoki korporatsiya ichida bo`ladigan hisob-kitoblarda qo`llaniladi.

Transfert baholarning mutlaq miqdori bozor iqtisodiga o`tish davrida talab va taklifdan, fan-texnika taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda o`zgarib bormoqda. Masalan, buni paxta xomashyosi uchun o`rnatiladigan davlat xarid baholari ham isbotlashi mumkin.

3. BOZOR IQTISODIYO`TI SHAROITIDA BAHOLARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Fan-texnika taraqqiyoti sharoitida talab va taklif o`zgarishini e'tiborga olib baholarning mutlaq miqdorini o`zgartirish, takomillashtirish, ya'ni liberallashtirish muhim murakkab masaladir va uning ijobiy hal etilishi ko`p holatlarga bog`liq. Ayniqsa bu masalani hal etishda davlatning roli juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun bu jarayonda agrosanoat majmuasini rivojlantirishda qo`llanilayotgan baho va moliya-kredit siyosati quyidagi vazifalarni echishga yo`naltirilgan bo`lishi kerak:

1. Davlatning iste'mol mollari bilan o`z-o`zini ta'minlashni tezlashtirish;
2. Qishloq xo`jaligi va sanoat mahsulotlari o`rtasidagi ekvivalentlik munosabatlarini ta'minlash;
3. Qishloq xo`jaligida tovar ishlab chiqaruvchilarining daromadlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlaydigan darajada rag`batlantirish;
4. Agrar sohada fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy qilishda ko`maklashish;
5. Davlat ichida yagona iqtisodiy rejani tashkil qilish, yaqin va uzoq xorij mamlakatlariga chiqish vazifalarini ham yechish.

Bozor iqtisodiyotida baho munosabatlari quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

1. Erkin baholarni davlat tomonidan boshqariladigan baholar bilan uyg'unlashtirish;
2. Taklif qilinayotgan mahsulotlarning baholarini hisoblashda normativ usullardan foydalanish;
3. Tovar ishlab chiqaruvchilarning daromad olishlarini ta'minlash;
4. Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va samaradorligini oshirish;
5. Baho va moliya-kredit munosabatlarining o'zaro aloqasini optimallashtirish;
6. Talab va taklif ta'siri natijasida muvozanatli baholarni shakllantirish;
7. Fan-texnika taraqqiyotini va ilg'or texnologiyalarni rag'batlantirish.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarining baholarini belgilashda monopoliyaning va oligopoliyaning mavjudligi, erkin raqobatning nisbatan kamligi, inflyasiyaning mavjudligi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotib olishda ma'lum darajada monopoliya yuz berayotganligini ham inobatga olish zarur.

Ma'lumki, qishloq xo'jalik korxonalarida etishtirilgan paxta xomashyosining asosiy qismini «O'z paxtasanoatsotish» uyushmasi sotib olmoqda, bu esa ma'lum darajada erkin bozorning, ya'ni raqobatning mavjud emasligini bildiradi.

Qishloq xo'jalik korxonalari o'zlarining mahsulotlariga dastlabki baholarni belgilashda quyidagilarga asoslanishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

Mahsulotlarni etishtirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika resurslari baholarining darajasiga, chunki hozirgi davrda moddiy-texnika resurslari erkin bozor baholarida sotilmoqda, lekin bu erkin baholarni belgilashda respublika sharoitida monopol holat mavjud. Masalan, respublikamizda mashinasozlik, transportsozlik va qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodlari o'z tovarlarini qishloq xo'jalik korxonalariga sotishda yakkahokimlik qilmoqda, ana shu masalani eishda davlatning roli bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi davrda tarmoqda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxlari tarkibida o'g'itlarning, kimyoviy vositalarning, moylash materiallarning asosiy vositalar amortizatsiyasi 45-55 %ni tashkil etmoqda, bu ham mahsulot tannarxini qimmatlashtiradi, bu to'g'risida ham ma'lum bir fikrga kelish zarur.

XULOSA

Narx (baho) iqtisodiy kategoriya hisoblanib, uning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati beqiyos. Narx bozor iqtisodiyotining asosiy dastagidir. Mahsulot qiymatining pulda ifodalanishi, mahsulot bahosi, deb yuritiladi.

Uning darajasi har qanday mahsulotning raqobat sharoitida yashab qolishini belgilaydi. Iqtisodiy asoslangan narxlar qilingan xarajatlarni to'liq qoplashi va mahsulotini ishlab chiqarib sotuvchi ma'lum miqdorda foyda olishni ta'minlashi lozim. Lekin mahsulot narxi uning qiymatidan katta bo'lmasligi talab qilinadi. Albatta, ba'zan talab va taklif ta'sirida mahsulotlarning narxlari ularning qiymatidan baland bo'lishi, bunday holat qisqa muddat davom etishi mumkin. Mahsulot narxi uning qiymatidan uzoq muddat baland bo'lishi mumkin emas.

NAZORAT VA MUHOKAMA UChUN SAVOLLAR

1. «Narx» tushunchasi nimani anglatadi? Uning mohiyati nimada?
2. Narxning funktsiyalari va vazifalari nimalardan iborat?
3. Iqtisodiy asoslangan narxlar deganda nima tushuniladi?
4. Qishloq xo`jaligidagi narxlar tizimi nimalarni ko`zda tutadi.

10-MAVZU. QISHLOQ XO`JALIGIDA KAPITAL QUYILMALAR (INVESTISIYALAR) VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Reja:

1. Kapital quyilmalar (investisiyalar) haqida tushuncha, ularning ijtimoiy – iqtisodiy zarurligi va ahamiyati.
2. Qishloq xo`jaligida sarflanayotgan kapital quyilamalarning manbalari, ularning sarflanish yo`nalishlari
3. Kapital quyilmalarning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko`rsatkichlar va ularni aniqlash.
4. Kapital quyilamalar darajasi, dinamikasi va uar iqtisodiy – ijtimoiy samaradorligi
5. Kapital quyilmalar ko`lamini kengaytirish va samaradorligini oshirish yo`llari.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida “Xavfsizlikka tahdid, baraqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” Toshkent. 1997 yil 188-211 betlar
2. Abdug`aniev Abdulatif, Abdug`aniev Abduqahhor. Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti. Toshkent 2004 yil darslik 9-bob. 166-196 betlar

1. KAPITAL QUYILMALAR (INVESTISIYALAR) HAQIDA TUSHUNCHA, ULARNING IJTIMOIIY – IQTISODIY ZARURLIGI VA AHAMIYATI

Kapital quyilmalar (investisiyalar) har qanday ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda amalga oshiriladi. Chunki ular davlatni, tarmoqni, korxonalarni va aholining iqtisodiy negizini mustahkamlashga sarflanadi. Bozor iqtisodiyoti O`zbekiston qishloq xo`jaligini rivojlantirish maqsadida kapital quyilmalardan (investisiyalardan) foydalanishni ob`ektiv zaruriyat hisoblanadi. Chunki tarmoqni ustivor shaklda rivojlantirish uchun uning moddiy texnika bazasini mustahkam barpo etish zarur. Buning uchun zamonaviy texnikalar qishloq xo`jaligi uchun mexanizmlar irrigasiya va melioratsiya inshootlari bino-

inshootlar serunum va tezpishar navlar, zotli va mahsuldor hayvonlar, aylanma vositaar bilan ta'minlash zarur.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositalariga sarflanadigan barcha mablag'larga investisiyalar deb ataladi.

Investisiyalarning maqsadi agrarsohaning moddiy – texnika bazasini mustahkamlash, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizasiyalashtirish, elektrlashtirish, yetishtirilayotgan mahsulotlarning hajmini ko'paytirish sifatini yaxshilash, olinadigan foyda miqdorini ko'paytirishdir.

Shularni inobatga olgan holda O'zbekistonda "Investisiya faoliyati to'g'risida", "Chet el investisiyalari to'g'risida" 1998 yilda qonunlar va me'yoriy hujjatlar qabul qilingan va ular amalga oshirilmoqda.

Investisiyalar maqsad va vazifalarga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) Kapital investisiyalar
- b) innovatsion investitsiyalar
- v) ijtimoiy investisiyalar

a) Asosiy fondlarni barpo etishga takror ishlab chiqarishni amalga oshirishga moddiy ishlab chiqarishning barcha shakllarini rivojlantirishga sarflangan investisiyalar kapital investisiyalar deb ataladi.

b) Texnikalar, texnologiyalarning yangi avlodini yaratishga va ular investisiyalarga innovatsion investisiyalar deyiladi.

v) Inson salohiyatini, masalasini va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga sarflangan mablag'larga ijtimoiy-investisiyalar deyiladi.

Investisiyalar real va moliyaviy investisiyalarga bo'linadi. moddiylashgan, asosiy vositalarga aylanma vositalarga sarflangan mablag'larga real investisiyalar deyiladi.

Qimmatli qog'ozlarni shakllantirishga sarflangan mablag'larga moliyaviy investisiyalar deyiladi. Masalan, aksiyalar, sertifikatlar, veksel va obligasiyalarni shakllantirishdagi investisiyalar moliyaviy – investisiyalardir.

Real investisiyalarni kapital quyilmalar deb ham atash mumkin. Kapital quyilmalar yalpi kapital quyilmalarga va sof kapital quyilmalarga bo'linadi.

Real investisiyalarning umumiy summasi yalpi (jami) kapital quyilmalarini tashkil etadi.

Real investisiyalarni sarflash natijasida ishga tushirilgan qismi sof kapital quyilmalardir. Sof kapital quyilma yalpi kapital quyilma summasiga teng bo'lishi ham mumkin yoki kam ham bo'lishi mumkin.

Qishloq xo'jaligida yalpi kapital quyilmani sof kapital quyilmaga aylantirishga alohida e'tibor berish kerak, chunki sarflanayotgan real investisiyalar moddiylashtirilgan taqdirda samara beradi. Milliy hisoblar tizimida asosiy kapitalga va moddiy ishlab chiqarish vositalariga sarflangan mablag'lar real investisiyalar deb hisoblanadi.

Lekin O'zbekiston qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlari sekin sur'atlar bilan rivojlanayotganligi moliyaviy investisiyalarning ko'lamini talab darajisida ta'minlay olmayapti, sabab fermer xo'jaliklarida ilg'or shirkat xo'jaliklarida qimmatli qog'ozlar ki aksiyalar, obligasiyalar, sertifikatlar va

veksellar chiqarilib yutilayotgani yo'q. Shuning uchun ham kelajakda bu muhim ishni hal etish o'rganish ijobiy samarasini beradi.

Davlatning iqtisodiy siyosatida qishloq xo'jaligi korxonalarida ham qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil etish tadbirlarini ishlab chiqish va bu tadbirlar amaliyotga tatbiq etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investision siyosatni shakllantirishda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

1) Tender asosida raqobatbardosh loyiqalarni tashlash zarur, chunki bu qishloq xo'jaligida investision loyihalar bozorini barpo etilishini ta'minlaydi;

2) Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan investisiyalarning iqtisodiy jihatdan asoslanganligi. Qishloq xo'jaligi tabiiy-iqtisodiy omillarining xususiyatlari real hisobga olingan holda iqtisodiy – ijtimoiy natijalari aniqlangan bo'lishi kerak. Chunki aks holda loyihada belgilangan mablag'lar ko'zda tutilgan tadbirlarni bajarish uchun yetmaydi va maqsadga ham erishilmaydi.

3) chet el investisiyalarini va ularning investitsiyalarini qishloq xo'jaligida jalb etishga. Buning uchun esa qishloq xo'jaligida ishlab chiqaralayotgan barcha mahsulotlarga bo'lgan shaxsiy va xususiy mulkchilikni rivojlantirish lozim.

Shunday qilib barcha omillarni e'tiborga olib, sarflanadigan investitsiyalar qishloq xo'jaligining mustahkam moddiy texnika bazasini barpo etadi, ya'ni qishloq xo'jaligi zamonaviy moddiy texnika bazasini barpo etadi, bu esa zamonaviy traktorlar, kombaynlar, mashinalar va bino-inshootlar bilan ta'minlaydi, yangi bog'zorlar, uzumzorlar, zotli sermahsul chorva mollari yaratiladi.

Bulardan tashqari kapital quyilmalarning xalq xo'jaligida ahamiyatini, shu jumladan qishloq xo'jaligidagi ahamiyatini quyidagilardan ham bilish mumkin:

Birinchidan: kapital quyilmalar jami xarajatlarining asosiy qismi hisoblanadi, aholining bandligini va yalpi milliy daromad hajmining ko'payishini ham ta'minlaydi.

Ikkinchidan: Kapital quyilmalar korxonaning asosiy fondlari jang'arilishiga, ya'ni ko'payishiga olib keladi, biroq bu korxonalar faoliyati natijalariga ta'sir etmasligi mumkin, lekin kelajakda iqtisodiy o'sish uchun zarur bazani yaratadi.

Uchinchidan: Kapital quyilmalarning noo'rin sarflanishi ishlab chiqarish resurslarini va xarajatlarining o'sishiga ham olib keladi, natijada yalpi milliy mahsulot hajmi qisqaradi, masalan, tugatilmagan qurilish, moddiy resurslarning oshib ketishi, ish haqining ko'payishi ishlab chiqarishning qisqarishi kabilar shular jumlasidandir.

Kapital quyilmalarning miqdori, dinamikasi va samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

1. Kapital quyilma amalga oshirilayotgan loyihaga;
2. mamlakatdagi va korxonalar faoliyatidagi iqtisodiy o'zgarishga;
3. davlatning soliq siyosati va banklarning foiz stavkasiga
4. tashqi savdodagi iqtisodiy holatga

5. milliy valyutaning ichki va tashqi kursiga
6. mamlakatning siyosiy holatidagi barqarorligiga

Shunday qilib, kapital quyilmalarning – investisiyalarning ahamiyati shundaki, qishloq xo'jaligining har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi, chunki ular evaziga tarmoqning moddiy – texnika bazasi mustahkamlanadi, ulardan samarali foydalanilsa, jonli mehnat xarajatlari qisqarib, mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko'payib, sifati yaxshilanadi, bu esa qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabni yanada yaxshiroq qondirilishini ta'minlaydi, sof foyda summasi ko'payadi, natijada qishloq xo'jaligini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

2. QISHLOQ XO'JALIGIDA SARFLANAYOTGAN INVESTITSIYALARNING (KAPITAL QUYILMALARNING) MANBALARI, ULARNING SARFLANISH YO'NALISHLARI

Agrar sohaning bir qator rivojlanishi tarmoqda mavjud bo'lgan ishlab chiqarish vositalari oqilona tarzda takror ishlab chiqarilishini talab etadi. Bu esa ishlab chiqarish vositalarini sotib olish, qayta ta'mirlash, qurish, innovatsion va ijtimoiy munosabatlar yig'indisidan tashkil topadi.


Barcha investitsiyalar (kapital quyilmalar) ikkita yirik manbadan shakllantirilib amalga oshiriladi:

1. Korxonaning o'z mablag'laridan
2. Chetdan jalb qilingan mablag'lardan
 - 1) Korxonaning o'z mablag'lariga quyidagilar kiradi.
 - a) Korxonaning sof foydasidan ajratilayotgan mablag'lar
 - b) amortizasiya fondidagi mablag'lar
 - v) asosiy vositalarni tugatishdan, sotishdan kelib tushgan mablag'lar
 - g) asosiy vositalarni ijruga berishdan tushgan mablag'lar
 - d) qimmatbaho qog'ozlar chiqarib sotish, boshqalarnikini sotib olish natijasida olinayotgan dividendlardan ajratilayotgan mablag'lar.

Yuqori rentabelli korxonalar ishlab chiqarish vositalarini yangilash maqsadida kapital quyilmalarni amalga bo'ladi.

1-chizma

Investisiyalarning maqsadi, vazifalari manbalari va yunalishlari b'yicha turkumlashtirish



Izoh: vengur – asosan innovation banklarning ilmiy-texnikaviy ishlarni moliyalashtirish

Bundan tashqari, qishloq xo'jalik korxonalarini uchun kapital quyilmalar manbai bo'lib chorva mollarini yutishdan tushlik mablag'lar, Ustav fondi ko'paytirish uchun qilingan anoritmalar ham hisoblanadi. Chetdan jalb qilingan mablag'lar bo'ladi:

1. Qishloq xo'jaligi uchun davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar;
2. Hamkorlikdan olinadigan mablag'lar;
3. Turli xil qarzlari, shu jumladan, tijorat banklaridan olinadigan kreditlar;
4. Xo'jalik a'zolarining b'yshtan yotgan mablag'larini jalb etish;
5. Xorijiy korxonalar, davlat korxonalarini hamda shaxsiy korxonalar va fuqarolarning mablag'lari;
6. Xayriya fondlaridan, homiylar ajratayotgan mablag'lar va boshqalar.

Chetdan jalb qilingan mablag'lar orasida bank kreditlari alohida o'ringa ega. Ular ishlab chiqarish faoliyati natijalaridan qat'iy nazar, korxonalar ehtiyojlarini hisobga olgan holda kapital quyilmalarni amalga oshirishga imkon beradi. Kreditlar kapital quyilma manbai sifatida faqat kapital qurilish ishlarida emas, balki leli texnikani sotib olishda ham ishlatiladi.

Kapital quyilmalarning asosiy vazifasi qishloq xo'jaligida mahsulotni ko'paytirish va ishlab chiqarish samaradorligini o'qish sur'atlarini tezlashtirishni ta'minlashdir.

Kapital korxonalar moliyaviy natijalarining bir qismi bo'lib, aylanma fondlarga ham qo'yilib daromad keltiradi.

Lekin shu narsa muhimki, investitsiya qilishda korxonalar o'z mablag'laridan imkon boricha foydalansa, katta ustunlikka erishadi, birinchidan korxonada tashqi to'lovlar bo'lmaydi, ya'ni olingan kreditlari uchun foizlar to'lamaydi, ikkinchidan korxonalar boshqarishda o'zining mustahkam pozitsiyasiga ega bo'ladi.

Xo'jalikda chetdan kelib qilinadigan mablag'arning manbalaridan ya'ni biri-xo'jalik a'zolarining vaqtincha bo'sh mablag'larini jalb etishdir.

3. KAPITAL QUYILMALARNIG IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR VA ULARNI ANIQLASH

Qishloq xo'jaligiga kapital quyilmalarni sarflashdan maqsad – qo'shimcha foyda olish va aholining yashash sharoitini yaxshilash. Kapital quyilmalarning va aholi turmush darajasini loyihalar tuzishda va bu loyihalarni amalga oshirishda aniqlash mumkin. Buning uchun esa kapital quyilmalarning iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi. Iqtisodiy samaradorlik esa xarajatlar bilan olingan foydani taqqoslash natijasida aniqlanadi, bu aniqlash quyidagicha bo'ladi:

- a) Makroiqtisod ya'ni mamlakat miqyosida aniqlash

- б) mezo-iqtisod ya'ni qishloq xo'jaligi tarmoqlari miqyosida aniqlash
- в) mikro-iqtisod ya'ni qishloq xo'jalik korxonalarini doirasida aniqlash
- г) ayrim yo'nalishlar va ob'ektlar b'yyicha aniqlanadi.

Makro hamda mezo-iqtisod miqyosida investitsiyalarning (kapital quyilmalarning) iqtisodiy samaradorligi ularning mutlaq (absolyut) itisodiy samaradorligi koeffisienti ko'rsatkichi yordamida ifodalanadi. Uning darajasi sarflangan investitsiyalar natijasida yalpi ichki mahsulotning o'sgan summasiga (necha miqdorda o'sganligini) shu o'sishni ta'minlagan investitsiya summasiga nisbati bilan aniqlanadi. Buni quyidagi formulada ifodalash mumkin:

$$I_s = \frac{YaIM}{\sum IS} = \frac{YaD}{\sum IS};$$

bunda I_s -investitsiyalarning absolyut itisodiy samaradorlik koeffisienti
 $YaIM$ – makro, mezo-iqtisod miqyosida ma'lum bir davr ichida yalpi ichki mahsulotning o'sgan summasi (so'm hisobida)

$\sum IS$ - investitsiya yoki sarflangan kapital quyilma summasi

YaD – qishloq xo'jaligida yaratilgan yalpi daromad, chunki iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda yalpi daromadning o'sgan summasi ham olinishi mumkin.

Yuqoridagi formula ko'rsatkichi sarflangan 1 so'mlik investitsion mablag' evaziga necha so'mlik yoki necha tiyinlik yalpi ichki mahsulot yoki yalpi daromad olinganligini ifodalaydi.

Albatta, mutlaq miqdor yuqori bo'lgani yaxshi, chunki shunda investitsiyalarning mutlaq iqtisodiy samaradorlik darajasi yuqori bo'ladi, agar kam bo'lsa, u paytda iqtisodiy samaradorlik darajasi past bo'lganligini bildiradi. bunday holda esa investitsiyalarni sarflash maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

4. INVESTITSIYALAR (KAPITAL QUYILMALAR) DARAJASI, DINAMIKASI VA ULARNING IQTISODIY-IJTIMOIIY SAMARADORLIGI

So'nggi yillarda Respublika iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 5-8 foizi qishloq xo'jaligiga sarflanmoqda. Bu talabga nisbatan kam. Shuning uchun kelajakda bu investitsion siyosatni qishloq xo'jaligi foydasiga o'zgartirish maqsadga muvofiqdir. Chunki tarmoq respublika yalpi ichki mahsulotning o'rtacha 30% ni bermoqda.

Ayniqsa 2005 yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy tuzilmasi sifatida fermer xo'jaliklari qishloqda rivojlantirildi, bu xo'jaliklarda 1mln.dan ortiq kishi ishlamoqda va ular tomonidan 2005 yilda paxta xom-ashyosining 66%idan ortiqrog'i donning 55%dan ortiqrog'i shu xo'jaliklar tomonidan etishtirildi.

2006 yilda esa iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning qishloq xo'jaligi bo'yicha eng muhim ustivor yo'nalishlari etib belgilanganlardan biri – bu 2010 yilgacha bo'lgan davrda eng avvalo qishloq joylarida xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga qaratilsin, shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida mollar, eng avvalo qoramollar bosh sonini ko'paytirishni rag'batlantirishga qaratilgan dasturlarning bajarilishini nazorat

qilishning aniq tadbirlarini va mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligi O'zbekiston Respublikasining 2005 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlari to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida Xalq so'zi gazetasi 2006 yil 15 fevral 1-2 betlar.

1-jadval

O'zbekistonda investitsiyalarning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, foiz hisobida

№	Tarmoqlar	Yillar				
		1996	1997	1998	1999	2000
1	Sanoat tarmoqlari	24.8	24.4	21.5	18.4	26.5
2	Qishloq xo'jaligi	5.2	5.2	4.9	7.9	8.0
3	Neft, elektroenergiya	18.4	13.8	12.1	16.8	11.8
4	Transport, aloqa	17.5	19.8	18.1	13.0	19.3
5	Uy-joy	12.7	13.3	21.7	17.3	13.5
6	Boshqa tarmoqlar	21.2	23.5	21.7	26.9	21.4
	Jami	100	100	100	100	100

2-jadval

O'zbekiston ASM kiritilgan investisiyalar (%)

№	Tarmoqlar	Yillar				
		1996	1997	1998	1999	2000
1	Jami investisiyalar (shu yillar bahosiga)	100	100	100	100	100
A	Shundan: Davlat byudjetidan	42.2	32.3	52.3	21.7	26.9
B	Bank kreditlari	1.3	16.9	6.2	26.8	36.8
B	Korxonalar mablag'lari	39.1	33.1	35.8	36.6	37.2
Г	Yuqori mablag'lari					
Д	Chet el investisiyalari	17.6	17.7	27.7	4.9	5.1

**O'zbekiston viloyatlari bo'yicha irrigatsiya – melioratsiya qurilishini
investitsiyalash (kapital quyilmalarning sarflanashi)
(mln.so'm hisobida, amaldagi bahoda)**

№	Viloyatlar	Yillar					2000 yildan 1996 yilga marta
		1996	1997	1998	1999	2000	
1.	Q-Qalpog'iston res-si	91.8	89	234	235	762	8.3
2.	Andijon	353.8	430	776.7	965	1300	3.7
3.	Buxoro	433.1	512	602.9	854	1350	3.1
4.	Jizzax	238.3	233	474.4	626	1254	5.3
5.	Qashqadaryo	471.7	480	589.2	650	1602	3.4
6.	Navoiy	243.3	169	277	447	550	2.3
7.	Namangan	609	627	776.4	1483	2970	4.9
8.	Samarqand	265.2	954	321.7	343	690	2.6
9.	Surxondaryo	535.3	510	770.6	855	2413	4.5
10.	Sirdaryo	187.7	465	519.6	430	753	4.0
11.	Toshkent	957.2	756	1005.2	1430	1972	2.1
12.	Farg'ona	237.1	243	460.5	450	1270	5.4
13.	Xorazm	432	585	817.6	942	2090	4.9
	Jami:	5055.5	5353	7675.8	9710	18976	3.75

O'zbekistonda o'zlashtirilgan yr maydonlari (gektar)

№	Viloyatlar	Yillar					Besh yilda jami
		1996	1997	1998	1999	2000	
1.	Q-Qalpog'iston res-si	500	300	300	287	300	1687
2.	Andijon	1000	235	260	230	900	1925
3.	Buxoro	2516	975	851	702	488	5532
4.	Jizzax	1330	535	737	806	750	4158
5.	Qashqadaryo	2602	6669	855	589	527	11242
6.	Navoiy	1335	420	477	450	412	3094
7.	Namangan	2605	950	807	1201	1809	7372
8.	Samarqand	2502	846	904	280	240	4772
9.	Surxondaryo	2237	662	858	600	700	5057
10.	Sirdaryo	435	400	255	200	80	1935
11.	Toshkent	1891	351	621	425	353	3641
12.	Farg'ona	1665	530	400	402	252	3249

13.	Xorazm	2366	1717	1062	852	1052	7050
	Jami:	22984	8590	8387	7024	7164	54149

5. KAPITAL QUYILMALAR KO'LAMINI KENGAYTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Kelajakda qishloq xo'jaligining moddiy texnika bazasini talab darajasida barpo etish, mehnat resurslarining bilimlarini, malakalarini va tajribalarini oshirish uchun kapital quyilmalar sarflashni davom ettirish kerak. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun eng avvalo, davlat va mahalliy byudjetlardan ajratilayotgan investitsion mablag'larni o'z vaqtida olishga erishish kerak. Bunda korxonalar ixtiyoridagi fondlarning mablag'larini ham oqilona sarflashga xizmat qilish kerak, chunki ular investisiyalar ko'lamini kengaytirishning real manbalari hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligiga talabni qondiradigan darajada investisiyalar (kapital qo'yilmalar) sarflanishini kelajakda ishonchli ta'minlash uchun investitsiyalarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar ko'lamini kengaytirish talab etiladi.

Bunday shaxslar respublika yoki chet davlatlardan bo'lishi mumkin. Bunda, hozirgi davrda qishloq xo'jaligidagi investitsion jarayonni shakllantirishda sust qatnashayotgan investitsiyalarni faolroq jalb etishga alohida e'tibor berish kerak.

Hozirgi davrda cheklangan miqdorda banklarning ham ko'lamini kengaytirishga erishish lozim. Buning uchun esa, huquqiy, iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratib berish zarur. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligiga ko'maklashayotgan moliya kredit investisiyalarini, jumladan, qishloq kredit uyushmalarini yoki kooperativlarini tashkil etib, ularning faoliyatini rivojlantirish kerak. Bunday kredit institutlarining huquqiy asosi yaratilgan, masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 2002 yil avgust oyida ikkinchi chaqiriq IX sessiyasida qabul qilingan "Kredit uyushmalari to'g'risida"gi qonun. Shu qonunga asoslangan holda qishloq kredit uyushmalarini yoki kooperativlarini tashkil etish va ularning faoliyatini rivojlantirish orqali qishloq xo'jaligiga investisiya oqimini ko'paytirishga erishish mumkin. Ular nodavlat, notijorat kredit institutlari bo'lgani ma'qul. Shuning uchun ularga davlatning imtiyozli iqtisodiy yordami zarur. Bu yordamni davlatning qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi dasturlari asosida amalga oshirish mumkin:

1. "Oziq-ovqat muammosini hal etish"
2. "Irrigasiya va melioratsiya ishlarini rivojlantirish"
3. "Qishloq faunasini, florasini va ekologiyasini yaxshilash"
4. "Yangi ish joylarini tashkil etishni rivojlantirish va ishsizlikni kamaytirish"
5. "Qishloqda malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida "Bilim-malaka" dasturini tuzish"
6. "Qishloqda ijtimoiy sohani rivojlantirish va boshqalar"

Bundan tashqari yangi tashkil etilgan qishloq kredit kooperativlarida ayrim fondlar bo'yicha davlat subsidiyalari va kafolatlari tizimini joriy etish lozim. Tashkil etilayotgan qishloq kredit kooperativlari boshlang'ich kapitalining 35-45 foizi davlatning imtiyozli hamda foizsiz kreditlari hisobidan

shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir. Qishloq kredit kooperativlarini tashkil etish jarayonida davlatning roli quyidagilar bilan chegaralanishi maqsadga muvofiq:

1. Respublikadagi qonun yaratuvchi idoralar bu kooperativlar uchun mamlakat miqyosida va xorijiy davlatlarda tʻyil? faoiyati yuritishning huquqiy asoslarini yaratib berishi;

2. Ushbu kooperativlarning ilmiy, uslubiy muammolari boʻyicha tadqiqot ishlarini rivojlantirish uchun hukumat tomonidan qulay muhit yaratilishi

3. Davlat idoralarining rahbar va mutaxassisleri yangidan tashkil etilayotgan qishloq kredit kooperativlarining afzalliklarini barcha axborot vositalari yordamida targʻib etishga va tushuntirishga qaratilgan faol siyosat olib borishlari, ularni amalda tashkil etishga koʻmaklashishlari zarur.

XULOSA

Qishloq xoʻjaligini ishlab chiqarish resurslari bilan talab darajasida taʼminlash, ularni takror ishlab chiqarish uchun investitsiyalar jalb etilmoqda. Investitsiyalar tufayli tarmoqda fan-texnika taraqqiyoti jadallashmoqda, uning yutuqlaridan foydalanish jarayoni rivojlantirilib, ilgʻor texnologiyalar joriy etilmoqda. Investitsiyalar korxonalarining oʻz mablagʻlari hamda chetdan jalb etilayotgan mablagʻlar evaziga amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillarida qishloq xoʻjaligiga jalb etilayotgan mablagʻlar summasi ortib bormoqda.

Investitsiyalardan foydalanishning mutloq (absolyut) hamda qiyosiy (nisbiy) samaradorligini tarmoq, korxonalar va yoʻnalishlar boʻyicha aniqlash maqsadida muayyan koʻrsatkichlar tizimidan foydalanish lozim. Qishloq xoʻjaligiga jalb etilayotgan investitsiyalar miqdori, iqtisodiy samaradorligi talab darajasida emas. Sababi xoʻjaliklar sof foydasi kamligi sababli maqsad uchun etarli miqdorda mablagʻ ajrata olmayotirlar, oʻzgalarning mablagʻlari yaʼni chet el investitsiyalari, bank kreditlari ham talabni qondiradigan darajada talab etilayotgani yoʻq.

Kelajakda investitsiyalarni talab darajasida jalb etish va ulardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun:

- investitsiyalar manbalarini kengaytirishga erishish;
- investitsiyalar jalb etishda garov hamda sugʻurta masalalarini rivojlantirish;
- investitsiyalarni maqsadga muvofiq, samarali yoʻnalishdarga sarflash kerak.

11-MAVZU: ILMIIY-TEXNIKA TARAQQIYOʻT VA QISHLOQ XOʻJALIGINI INTENSIVLASHTIRISH

Reja:

1. Qishloq xoʻjaligini intensivlashtirishning iqtisodiy mohiyati
2. Fan-texnika taraqqiyoti, uning yoʻnalishlari va samarali texnologiyalar.
3. Fan-texnika taraqqiyoti va intensivlashtirish.
4. Qishloq xoʻjaligini intensivlashtirish darajasi va iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi koʻrsatkichlar va ularni aniqlash tartibi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent, 1995, 236-239 betlar.
2. Hakimov Rashid va boshqalar. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. Toshkent, 2004 yil, o'quv qo'llanma. XIII bob. 89-94 betlar.
3. Abdug'aniev Abdulatif va boshqalar. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Toshkent, 2004 yil, darslik. VI bob, 104 - 122 betlar.

KIRISH

Mustaqilligimiz dastlabki yillarida O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chukurlashtirish yo'lga kirar ekan, iqtisodiy islohotlar ikkinchi bosqichining vazifalari va ustivor yo'nalishlaridan biri - bu chukur tarkibiy o'zgarishlarga erishish – barkaror iqtisodiy o'tishning asosiy sharti – deb respublikamiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan belgilab berilgan edi. Ayniqsa, fan yutuqlari keng joriy etiladigan ishlab chiqarishlarni muttasil rivojlantirish va ularning rolini oshirish tarmoq tarkibi siyosatida juda muhim ustivor yo'nalishdir.

Mashinasozlik sohasida respublika paxtachilik kompleksi uchun mashina va mexanizmlar ishlab chiqarishga asoslanuvchi qishloq xo'jalik mashinasozlikni rivojlantirish – tarmoq ixtisoslashuvining eng muhim yo'nalishi bo'lib qolishi kerak. Yangidan vujudga keltirilayotgan fermer xo'jaliklari uchun kichik mexanizatsiya vositalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi zarur edi va bu to'la amalga oshirilib bormoqda.

Masalan, fermer xo'jaliklari va muqobil mashina traktor parklari uchun kichik texnika vositalari ishlab chiqarilmoqda, jumladan, dalachilikdagi umumiy ishlarni bajaradigan PN-2-30 ikki korpusli osma plug, buning qamrov kengligi 60-70 sm, massasi (og'irligi) 230 kg, haydash chukurligi – 20-25 sm, ishchi tezligi 1,09-1,03 metr soatlaridan biri. Osma universal urug' ekish (mexanizmi) seyalkasi, (markali NR-30-02). Bu kichik texnika vositasi barcha qishloq xo'jaligi ekinlari urug'ini joriy, uning qamrov kengligi 140-180 sm, urug'larni ko'milish chuqurligi; makkajo'xori – 5-8 sm, sabzavot – 0,5-2 sm. Ish tezligi 2-6 km (soat, massasi (og'irligi) 130-150 kg.

Bunday misollarni ko'plab ketirish mumkin. Qaralsin: O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali 2003 yil № 12 soni 4-6 betlar). Bularning barchasi qishloq xo'jaligini intensivlashtirishdan darak beradi.

1. QISHLOQ XO'JALIGINI INTENSIVLASH TIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI

Iqtisodiy fan ishlab chiqarishni rivojlantirishda ikkita yo'l mavjudligini aniqlab berish: bular 1) ekstensiv rivojlanish, 2) intensiv rivojlanish.

1. Ekstensiv rivojlanish yo`li – mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko`paytirish uchun yangi yerlarni o`zlashtirish, chorva mollarining sonini ko`paytirish, ya'ni ishlab chiqarish jarayoniga yangi resurslari jalb etishdir. Bunda mahsulot hajmining ko`payishi asosan ishlab chiqarish omillarining ko`payishi hisobiga yuz beradi. Masalan, 2004 yilda 1000 gektar erga g`alla ekib, har bir gektar erdan 50 sentnerdan hosil olingan bo`lsa. Jami hosildorlik 50 ming sentner bo`lgan bo`lsa, 2005 yilda 1100 gektarga g`alla ekilib, gektaridan 50 sentnerdan hosil olindi, demak, yalpi hosildorlik 55000 sentnerni tashkil etdi, demak 2004 yilga nisbatan, 2005 yilda 5000 sentner ko`p hosil olindi, bu yangi ko`shilgan er hisobidan olingan hosildir. Mahsulot ishlab chiqarishni bu yo`l bilan ko`paytirishga ekstensiv yo`l deb aytiladi, lekin bu yo`lning imkoniyatlari cheklangan, chunki barcha ishlab chiqarish resurslari, er, suv va boshqalarning barchasi seklangan. Har bir davlatning hududi, yer-suv resurslari cheklangan, ularni xoxlagancha ko`paytirish mumkin emas. Lekin, resurslar cheklangan bo`lsa-da, ishlab chiqarishni va insonkorning talab va ehtiyojkorini o`sb boradi. Bunday sharoitda ishlab chiqarishni rivojlantirishning boshqa yo`lini topishga zarurat paydo bo`ladi va bunday yo`l-intensiv rivojlanish yo`lidir.

2) qishloq xo`jaligining intensiv rivojlanishi, bir gektar yerga, yoki bir bosh chorva moliga sarflanayotgan moddiy va mehnat saflarining oshib borishidir, chunki qo`shimcha sarflar natijasida bir gektar yerdan olinadigan hosildorlik yoki chorva mollarining mahsuldorligi oshib boradi, sarflangan moddiy va yo`l xarajatlari qo`shimchasi bilan qaytib keladi.

Demak, intensiv rivojlanishning iqtisodiy mohiyati shundaki, sarflanayotgan moddiy va mehnat xarajatlari, mahsulot miqdorini ko`payishiga olib kelishi kerak mahsulot tan narxini pasaytirish kerak.

Intensiv rivojlanish yo`lining imkoniyatlari cheklanmagan bo`lib, resurslarning tanqisligi yoki chekkinlakligi sharoitida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ham mamlakat iqtisodiyotining tarmoqlarini intensivlashtirish, shu jumladan, qishloq xo`jaligi tarmog`ini ham intensiv rivojlantirish har bir mamlakat iqtisodiy siyosatining asosini tashkil etadi.

2. FAN-TEXNIKA TARAQQIYO`TI, UNING YO`NALISHLARI VA SAMARALI TEXNOLOGIYALAR

Agrar sohani zamon talabi darajasiga javob beradigan qilib rivojlantirish uchun uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash kerak. Lekin, bu sohaning moddiy-texnika resurslarini shakllantirilishi, rivojlantirilishi, ulardan samarali foydalanish fan-texnika taraqqiyotiga bog`liq. Fan-texnika taraqqiyoti deganda esa, qishloq xo`jaligi bilan bog`liq bo`lgan barcha fanlarning rivojlanishi, malakali kadrlar tayyorlash natijasida yangi texnikalarning yaratilishi, mavjud texnikalarni esa takomillashtirilishini nazarda tutish kerak. Fanning rivojlanishi natijasida shu davrgacha bo`lmagan mutlaqo yangi «moddiy texnika resurslari» yaratilishi mumkin. Bu jarayon esa fan-texnika inqilobidan dalolat beradi. Demak, fan-texnika taraqqiyoti inqilobi esa intellektual ong rivojlanishining mahsuli hisoblanadi. Buning uchun

intellektuallarni tayyorlaydigan ta'lim ixtirochilik tizimini yangi bosqichga ko'tarishni takozo etiladi. Ular qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan samarali va qulay mashinalar, traktorlar, mexanizmlar va uskunalarning yaratilishini ta'minlashlari, mavjud texnika vositalarini takomillashtirilishini, serhosil va tezlashar ekin navlarini yaratilishini, sermahsul chorva mollari zotlarini, ilg'or texnologiyalarni yaratadigan fanlarning rivojlanishini ta'minlaydi, buning natijasida moddiy-texnika resurslarining soni ko'payib, sifati ham yaxshilanadi.

Bunday jarayon respublikamizning qishloq xo'jaligi sohasida olib borilayotganini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi mashinasozligi sanoati korxonalarida, yangi texnikalar, paxta teradigan vertikal va gorizontall shpindelli mashinalar, kimyo sanoatida polietilen quvurlar va plyonkalar ishlab chiqarilmoqda. Yomg'irlatib va tuproq ostidan sug'orish uchun, tomchilatib sug'orish uchun yangi samarali texnikalar barpo etilmoqda. Bular qishloq xo'jaligida ilg'or va samarali texnologiyalar joriy etilishini ta'minlaydi.

Fan-texnika taraqqiyoti qishloq xo'jaligida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib borilishi maqsadga muvofiqdir:

a) yangi erlarni kompleks o'zlashtirish, zax va sho'rlanish yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv bilan ta'minlanish tadbirlarini amalga oshiradigan ishlab chiqarish vositalarini yaratish, mavjudlarini esa takomillashtirish;

b) o'simlikchilikda tezpishar, kam suv talab qiladigan sifatli va serhosil urug' navlarni yaratish;

v) chorvachilikda mahsuldor chorva mollari zotlarini yaratish;

g) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida amalga oshiriladigan barcha jarayonlarni avtomatlashtirish, elektrlashtirish, kimyolashtirish;

d) qishloq xo'jaligida servis xizmatlarini ko'rsatish, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning zarur miqdorini qayta ishlab, sifatli saqlab, iste'molchilarga o'z vaqtida yaxshi holatda yetkazib berish;

e) qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini erkinlashtirilishini ta'minlovchi iqtisodiy mexnizmlarni yaratish va hayotga tadbik etish.

j) fan-texnika taraqqiyoti natijalarini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barcha sohalariga o'z vaqtida joriy etish qobiliyatini ega bo'lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, faoliyat yuritayotganlarini esa rag'batlantirishni takomillashtirish mexanizmini yaratish. Shunday qilib, fan-texnika taraqqiyotning shu yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilishi natijasida qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika resurslarini yaratish, mavjudlarini esa takomillashtirish ta'minlanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti natijasida yaratilgan moddiy-texnika resurslari qishloq xo'jaligida yangi texnikaning, yangi texnologiyaning vujudga kelishini va bu jarayon rivojlantirilishini ta'minlaydi. Bu jarayon texnikaning, texnologiyaning ish sifatini yaxshilash bilan birga, uning belgilangan muddatda bajarilishiga, mehnat unumdorligining oshishiga va ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishiga, har bir mahsulot bo'yicha va tarmoq bo'yicha rentabellikning oshishiga olib keladi.

Masalan, hozirgi vaqtda paxtachilikda «Andijon texnologiyasi» yaratilib, respublikada keng ko'llamda joriy etilmoqda. Bu usulda chigit avvaldan olib

qo'yilgan pushtalarga plyonka ostida ekilmoqda, natijada tuproqning kamligi saqlanib chigitning tez o'sib chiqishiga erishilmoqda. Bu texnologiya pushtada begona o'tlarning paydo bo'lishini kechiktiradi, natijada ikki xil ish jarayonini qisqartirish imkonini beradi, birinchidan yagona qilish ishlarini kamaytirish bilan birga, begona o'tlarni yo'qotish ishlarini ham kamaytiradi, ikkinchidan esa, suv sarfini qisqartirish imkonini beradi, chunki pushta qilinganda tuproqning namligi uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Chigitni plyonka ostida ekish texnologiyasi natijasida paxta hosili erta pishadi va uni qisqa muddatda yuqori sifatli terib olish ta'minlanadi. Shu tufayli Andijon viloyatida paxta hosildorligi 1999-2002 yillarda o'rtacha 32 sentnerni tashkil etgan bo'lib, O'zbekistonda eng yuqori ko'rsatgichdir. Viloyatda bir sentner paxta etishtirish uchun 9800 so'm sarflanmoqda, bu esa 13,6 foizga respublikadagi o'rtacha ko'rsatgichdan kamdir.

Lekin shuni aytish kerakki yangi texnologiyani qo'llash uchun shart-sharoit yaratish, uni amalga oshirishda ayrim kamchiliklarga ham yo'l qo'yilmoqda, masalan chigit ekish texnikalari, ya'ni seyalkalar texnologiya talab darajasida takomillashtirilmagan.

Pushtaga yoyilgan plyonka o'z vaqtida to'liq yig'ishtirib olinmay, dalada qolib ketishi tufayli tuproq xolatiga va ayrim bajariladigan ishlarga salbiy ta'sir etmoqda, shu sababli hozirgi davrda ularni bartaraf etish uchun ilmiy va ijobiy ishlar olib borilmoqda. Paxtachiliklari yana bir yangi texnologik g'ozalarni sug'orishda "Isroil texnologiyasi"dir, bu usul g'ozani bostirib sug'ormay, tomchillatib sug'orish. Bu usuldan foydalanish esa bir gektar yerga paxta maydoniga 4-5 marta kam suv berish taqiqlanadi.

Yana bir yangi texnologiya Gollandiyada etishtirilgan kartoshka urug'i ularning texnikasi bilan ekilib, shu texnika bilan ishlov berilib, hosili ham shu texnologiya asosida yig'ishtirib olinmoqda, natijada respublikada kartoshkachilik rivojlanib, chetdan kartoshka keltirishga zarurat qolmadi.

3. FAN-TEXNIKA TARAQQIYO'TI VA INTENSIVLASHTIRISH

Qishloq xo'jaligining yangi moddiy resurslari bilan ta'minlash va ulardan samarali foydalanish fan-texnika taraqqiyotiga bevosita bog'liq. Fan-texnika taraqqiyoti deganda, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq barcha fanlarning rivojlanishi, malakali kadrlar tayyorlanishi natijasida yangi texnikalarning yaratilishi, ularning mavjudalrini esa takomillashtirilishi tushuniladi, ya'ni fan rivojlanish natijasida shu vaktgacha ma'lum bo'lmagan mutlaqo yangi moddiy-texnika resurslari yaratilishi kerak. Bunday jarayon esa fan-texnika inqilobidan darak beradi, demak fan-texnika inqilobidan darak beradi, demak fan-texnika taraqqiyoti inqilobi – bu intellektual ong rivojlanishining maxsuli.

Yuqorida aytib o'tilganidek qishloqxo'jaligini rivojlantirishning ikki yo'li mavjud: 1 - ekstensiv, 2 – intensiv. Bular oldingi mavzularda aytib o'tilgan, shunday bo'lsa bularga qisqacha yana to'xtalib o'tish zarur.

Demak, birinchi yo`l, ekstensiv rivojlanish, bunda maxsulotlar ishlab chiqarish hajmining ko`payishi ishlab chiqarish jarayoniga resurslarni jalb etish yo`li bilan amalga oshiriladi, masalan, yangi erlar ochib qishloq xo`jaligida foydalanish, chorva mollari bosh sonini ko`paytirib, mahsulot olish va shu, demak, ishlab chiqarishga resurslarni ko`proq jalb etish natijasida rivojlanish ekstensiv rivojlanish yo`lidir. Ekstensiv rivojlanishning imkoniyati cheklangan, chunki er, suv, xomashyo kabilar cheklangan.

Ikkinchi yo`l intensiv rivojlanish bo`lib mavjud yerdan chorva mollaridan samarali foydalanishda yangi fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish bilan e`jrlashtirishdir. Masalan, yerlarning hosildorligini oshirish uchun qo`shimcha mineral o`g`itlar berish, chorva mollari mahsuldorligini oshirish uchun qo`shimcha ratsion asosida ularni boqish va sh.o`.

Iqtisodiy fan, intensivlashtirish o`z mohiyatiga ko`ra qishloq xo`jaligi sohasida ma`lum chegaraga ega deb ta`lim beradi, masalan, har bir ekin turi uchun zarur mineral o`g`it miqdori belgilangan, agar me`yordan ortiq mineral o`g`it solinsa, ekinning hosildorligiga salbiy ta`sir etib, hosildorlikning kamayishiga olib kelishi mumkin. Lekin, bu masalani yechish fan-texnika taraqqiyotga bog`liq, chunki yuqorida aytib o`tilganidek, yangi texnika vositalaridan qishloq xo`jaligida foydalanish, mehnat unumdorligini oshirib, mahsulot tan-narxini arzonlashtiradi, ya`ni yangi unumli texnikalardan, progressiv texnologiyalardan foydalanish, oldingisiga qaraganda albatta yaxshi samara beradi va mahsulot ishlab chiqarish miqdori ham ko`payadi.

Bu borada fan-texnika taraqqiyotining ishlab chiqarishni intensivlashtirishga ta`siri chegaralanmagan. Ishlab chiqarishga qishloq xo`jaligi ekinlaridan yangi navlarning joriy etilishi bilan intensivlashtirish yanada kuchayadi. Masalan, paxta va bug`doyning yangi navlarining yaratilishi shular jumlasidandir.

Ishlab chiqarishni intensivlashtirish ishlab chiqarishni kontsentratsiyasini oshiradi, korxonalarda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishni kuchaytiradi, bu esa ishlab chiqarishning mexanizasiyalashish jarayonini oshirib maxsulot tan-narxini orzonlashtiradi. Bu esa ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligiga olib keluvchi asosiy omillardan biridir.

4. QISHLOQ XO`JALIGINI INTENSIVLASH TIRISH DARAJASI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO`RSATGICHLAR VA ULARNI ANIQLASH TARTIBI

Qishloq xo`jalik korxonalarini moddiy-texnika resurslari bilan ta`minlashga katta e`tibor berilmoqda, chunki bu sarflanadigan mehnat xarajatlarini va mablag` xarajatlarini kamayishiga va mehnat unumdorligini oshirib foyda summasini ko`payishi uchun imkoniyat yaratadi. Lekin buning uchun, qishloq xo`jalik korxonalarining moddiy-texnika vositalari bilan ta`minlanish va bu vositalardan foydalanish jarayonini va o`zgarishlarni bilish kerak.

Buning uchun bir qancha ko`rsatgichlardan foydalanish mumkin va birinchi navbatda bu boradagi ko`rsatgich bo`lib, qishloq xo`jaliklarida,

qo'shma korxonalarda va hissadorlik jamiyatlarida ularning moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash kerak.

Ma'lumki, xo'jalik o'z faoliyatidagi ishlarni bajarish uchun texnika vositalari o'rtasida mutanosiblikni traktorlar soni ko'p, ulargatirsaladigan mexanizmlar kam, yoki oqimga bo'lsa, kutilgan iqtisodiy samaradorlikka erishib bo'lmaydi, yoki chorva mollari soni ko'p, ularga beradigan em-xashak kam bo'lsa ham, chorvachilikda samaradorlikka erishib bo'lmaydi. Demak, xo'jalik samarali muvozanatdagi moddiy-texnika va resurslar bilan talab darajasida ta'minlangan bo'lishi kerak. Buning ta'minlanganlik darajasini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$1) \quad MTR_{TD} = \frac{(Y_{EK} + (AF_K - A_S) + AF_K + BG_K)}{KX_{ye}};$$

Bunda: MTR_{TD} – moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, so'm;

E_K - qishloq xo'jalik erlarining qiymati (so'mda);

AF_K - asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati (so'mda);

A_S – asosiy vositalarning o'rtacha yillik eskirish summasi (so'mda);

AF_K – aylanma vositalarning o'rtacha yillik summasi (so'mda);

BG_K - bog'lar, tokzorlarning o'rtacha yillik summasi (so'mda).

Yuqoridagi ko'rsatkich yordamida har bir xo'jalik ixtiyoridagi foydalanilayotgan bir gektar qishloq xo'jalik yeriga, yoki ekin maydoniga qancha so'mlik moddiy-texnika resurslari to'g'ri kelayotganligi aniqlanadi. Uning miqdori talab darajasida, ya'ni me'yor darajasida bo'lishi kerak. Bu umumiy ko'rsatkich maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda boshqa aniq ko'rsatkichlar yordamida yanada aniqlashtiriladi.

Jumladan, xo'jalikning ta'minlanganlik darajasini, masalan, asosiy va aylanma fondlar yoki haydov traktorlari, chopiq traktorlari bilan ta'minlanganlik darajasini shu ko'rsatkichlar bo'yicha ham alohida-alohida aniqlash mumkin.

Yoki, korxonaning energetik resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi aniqlash. Korxonaning energetik miqdori xo'jalikdagi jami energetik resurslar miqdorini, ot kuchi hisobida, foydalanilayotgan qishloq xo'jalik yerlariga, yoki ekin maydoniga taqsimlanib aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$2) \quad ERT = \frac{ER_K}{Em(KX_{ye})}$$

Bunda: ERT - energetika resurslari;

ER_K – jami energetika resurslar quvvati;

$Em(KX_{ye})$ – jami ekin maydoni (qishloq xo'jalik erlari).

Xo'jalikning energetik miqdori ham me'yor darajasida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

3) Mehnatning energetik resurslar bilan qurollanganlik darajasini aniqlash. Buning uchun, yuqorida ta'kidlangan jami energetik resurslar miqdorini, bu ham ot kuchi hisobida, mehnat qilgan kishilarning o'rtacha yillik

soniga, ya'ni kishilarga taqsimlab aniqlanadi. Bunda quyidagi tenglikdan foydalaniladi:

$$Er_k = \frac{ER_k}{Mr}$$

bunda:

Erk – energetika resurslari;

Erk – energetika quvvati

Mr – ishlagan mehnat resurslarining o`rtacha yillik soni (kishi).

Bu ko`rsatkichlar korxonada bajariladigan barcha ishlarning qanday darajada mexanizatsiyalashayotganligini yoki avtomatlashayotganlik holatini o`rganishga yordam beradi. Bularning ham miqdori, aytib o`tilganidek, belgilangan me'yor darajasida bo`lishi maqsadga muvofiq.

4) Xo`jalikda ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalashganlik darajasini aniqlash. Buning uchun traktor, mexanizmlar, mashinalar yordamida bajarilgan jami ish (etalon traktorda) miqdori xo`jalik bo`yicha bajarilgan jami ishlar hajmiga taqsimlanadi (etalon gektarga). U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Md = \frac{Mi}{Ji} \times 100\%$$

Bunda:

Md - ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashganlik darajasi, foizda;

Mi - mashina, traktorlar mexanizmlar yordamida bajarilgan ish (etalon gektar);

Ji - jami bajarilgan ish miqdori (etalon gektarda).

Bu ko`rsatkich jami hamda ayrim ish, ekin turlari bo`yicha ham aniqlanishi mumkin. Masalan, ekinlarni ekish, ularga ishlov berish, hosilini yig`ishtirib olish kabilar bo`yicha. Chorvachilikda esa, sigirlarni sog`ish, chorva mollarni sug`orish, ularga yem-xashak berish va shunga o`xshash boshqa ish turlari bo`yicha. Sigirlarni sog`ish jarayonining mexanizatsiyalashganlik darajasini aniqlash uchun mashinalar yordamida sog`ilgan sigirlarning bosh sonini jami sog`ilgan sigirlar soniga taqsimlab, 100 ga ko`paytirilish lozim. Bu ko`rsatkich 100 foizdan yuqori bo`lmasligi shart.

12 – MAVZU: QISHLOQ XO`JALIGINING MODDIY – TEXNIKA RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

Reja:

1. Qishloq xo`jaligi moddiy – texnika resurslari tushunchasining ahamiyati.
2. Qishloq xo`jaligida asosiy fondlar va ulardan foydalanish ko`rsatkichlari.
3. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo`llari.
4. Aylanma mablag`lar va ulardan foydalanish.

ADABI YO`TLAR

1. Hakimov Rashid, Otaqulov Muhammadjon, Karimova G, Yusupov E, Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. Toshkent 2004 yil. X bob, 68 – 77 betlar.

2. Abdug'aniev Abdullatif, Abdug'aniev Abduqahhor. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Toshkent 2004 yil. XI – bob, 100 – 122 betlar.

1. QISHLOQ XO'JALIGI MODDIY – TEXNIKA RESURSLARI TUSHUNCHASI VA UNING AHAMIYATI

Qishloq xo'jaligining moddiy – texnika resurslari deganda shu sohada, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda, jumladan shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklarida mavjud barcha asosiy fondlar va xo'jaliklar inektorlari yig'indisi tushuniladi.

Agrosanoat majmuasining asosiy bo'g'ini bo'lgan qishloq xo'jaligining moddiy – texnika borasini rivojlantirish katta iqtisodiy ahamiyatga ega, chunki ishlab chiqarish mexanizasiyalashganlik darajasi, mehnat unumdorligini oshirib, mahsulot tannarxini arzonlashtiradi va foyda miqdorini ko'paytiradi. Agar texnikalar yetarli miqdorda bo'lmasa, ishlarni o'z agrotexnik muddatlarda bajarib bo'lmaydi, bu esa sohani iqtisodiyotiga salbiy ta'sir etadi.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat tufayli qishloq xo'jaligining moddiy – texnika bazasi keyingi yillarda yaxshi mustahkamlanib bormoqda. Ayniqsa, “Magnum”, “Keys” kabi yuqori, unumli traktorlarning ishlab chiqarishda qo'llanilishi yaxshi samara bermoqda. Oz miqdorda bo'lsa ham fermer va dehqon xo'jaliklari kichik (mini) traktorlardan foydalanmoqdalar.

Qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan moddiy – texnika resurslari boshqa sohalarining moddiy – texnika resurslaridan, o'zining xususiyatlari bilan farq qiladi, jumladan:

1 – dan, qishloq xo'jaligining moddiy – texnika bazasi tarkibiga yer ham kiradi va asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Yer o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olib undan foydalanish zarur, chunki yerning holatiga qarab organik va mineral o'g'itlarining miqdori beriladi, texnikaning turi qo'llaniladi. Agar yerning memyurativ holatiga qarab ekin turi, mineral o'gitlar unga ishlov beradigan texnikalar talab olinmasa hosildorlik pasayishiga sabab bo'ladi, ayrim holatlarda esa ishlab chiqarish oborotidan chiqib ketishi ham mumkin.

2 – dan, qishloq xo'jaligining moddiy – texnika bazasi tabiat qoidalariga boshqa tarmoqlarnikiga qarab nisbatan ko'proq Bog'liq. Buning natijasida turldi reshonlarda turlicha texnika va boshqa resurslardan foydalanishga zarurat tu?iladi. Shimoliy zonalarda ekin turlari janubiy zonalarga nisbatan farq qiladi, eng avvalo qisqa muddatlarda ishlab etiladigan ekin turlarini joylashtirishni talab qiladi. Janubiy reshonlarda ekin turlarini tanlash imkoniyatlari katta. Bunday holatda esa moddiy – texnika resurslarining turli reshonlarda turlicha bo'ilishini talab qiladi.

3 – dan, qishloq xo'jaligiga moddiy – texnika resurslaridan foydalanish samaradorligini ishlab chiqarishning mavsumiyligi, bilan bog'liq. Masalan, qishloq xo'jaligida ish davri bilan ishlab chiqarish davrining mos kelmasligi

sababli ayrim texnika vositalaridan yilda bir foydalaniladi xolos. Misol uchun don o'rash kombaynlari asosan o'rim – yig'im davrida ikki oy ishlatiladi. Xo'jalik esa bunday qimmatbaho kambaynlarni yil davomida saqlashga majbur, bu esa katta miqdordagi qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi, chunki uning amortizatsiya ajratmalari qimmat. Natijada, asosiy ishlab chiqarish fondlaridan texnikadan foydalanish samaradorligi pasayadi.

4 – dan, qishloq xo'jaligida moddiy – texnika resurslarining katta qismini tirik organizmlar tashkiletadi, bularga chorva mollari, qo'y, yillik daraxtlar va boshqalar. Bu esa ishlab chiqarish jarayonida biologik qonuniyatlarni hisobga olishni talab etadi.

5 – dan, ishlab chiqarishning keng maydonlarda olib borilishi xo'jaliklarda yaxshi rivojlangan transport tizimi bo'lishini, yo'l va aloqa kommunikasiyalar bo'lishini talab qiladi. Ayniqsa texnikalarni bir ekin maydonlardan ikkinchi ekin maydonga olib borish, ularni ta'minlashni tashkil etish, qishloq xo'jaligida moddiy – texnika resurslarini tashkil etishning o'ziga xosligida namoyon bo'ladi va bundan xususiyat katta miqdorda qo'shimcha mablag'larni talab qiladi.

6 – dan, qishloq xo'jaligining moddiy – texnika bazasi ko'p jihatdan sanoatning rivojlanishiga bog'liq. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida moddiy – texnika resurslarining bir qismini o'zida ishlab chiqariladi, masalan yem – xashak, zotli mahsuldor chorva mollari urug'liklar va sh.u.

Hozir respublikamiz qishloq xo'jaligining mexnazasiyalashtirilganlik darajasini oshirish asta – sekinlik bilan uni sanoat asosida o'tkazish borasida olib boriladi, bu hol qishloq xo'jaligi rivojlanishining ob'ektiv yo'nalishlaridan biridir.

2. QISHLOQ XO'JALIGIDA ASOSIY FONDLAR VA ULARDAN FOYDALANISH KO'RSATKICHLARI

Qishloq xo'jalik korxonalarida mavjud fondlar ikki katta guruha bo'linadi. Bular:

I. guruh – asosiy fondlar.

II. guruh – aylanma fondlar.

I. guruhga – mashinalar, mezxanizmlar, kombaynlar, traktorlar, transport vositalari, ko'p yillik daraxtlar, uzumzorlar, maxsuldor chorva mollari va ishchi xayvonlar.

II. guruhga – neft mahsulotlari, ehtiyot qismlar, mineral o'g'itlar, yem – xashak, zaxarli ximikatlar, arzon va tez ishdan chiqadigan buyumlar.

Asosiy fondlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi fond qaytimi va fond yig'imi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi.

Fond qaytimi yil davomida ishlab chiqarilgan ya'ni mahsulotni yoki foydani asosiy fondlarning yrtacha yillik qiymatiga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi. Fond qaytimi xo'jalikda mavjud bir so'mlik asosiy fondlar evaziga qayta so'mlik ya'ni mahsulot ishlab chiqariganligini bildiradi. Bu ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa, xo'jalikda fondlardan foydalanish samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi.

Fond yig'imi fond qiymatining aksi bo'lib, asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatini xo'jalikning yalpi mahsulotiga bo'lish natijasida aniqlanadi. Fond yig'imi xo'jalikda bir so'lmik yalpi mahsulot ishlab chiqarish uchun qancha so'mlik asosiy fond ishlab chiqarishga qatnashganini bildiradi.

Fond yig'imi ko'rsatkicha qanchalik past bo'lsa, asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi shunchalik yuqori hisoblanadi. Fond qaytimi va fond yig'imini foydaga nisbatan ham aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xo'jaliklarning asosiy fondlari besh xil hisoblanadi va baholanadi: 1) dastlabki baho; 2) qoldiq baho; 3) tiklash bahosi; 4) balans bahosi; 5) tugatish bahosi.

1) Asosiy fondlarning **dastlabki bahosi** – ularni birinchi marotaba sotib olish bilan bog'liq xarakatlardan iborat.

2) Asosiy fondlarning **qoldiq bahosi** – bu baho asosiy fondlarning yil boshidagi boshlang'ich bahosidan shu fondlarni ekspluatasiya qilish davridagi eskirgan qismini qoplovchi qiymatni chegirib tashlangandan keyingi baho.

3) **Tiklash bahosi** – ishlab turgan asosiy fondlarning hozirgi bozor narxida qancha baholanishi tushuniladi.

4) Buxgalteriya balanslarida aks ettiriladigan baho asosiy fondlarning **balans bahosidir**.

5) Asosiy fondlarning tugatish bahosi deganda uni tugatish bilan bog'liq holat tushiniladi.

Asosiy fondlar tugatilishi jarayonida qo'shimcha xarajatlar. Ularni tugatishdan ma'lum material olinadi. Asosiy fondlar xizmat muddatini to'la o'tamagan bo'lsa, yoi boshqa sabablarga ko'ra ularga to'la amortizasiya ajratilmagan bo'lishi mumkin. Amortizasiya ajratilmay qolgan miqdorga uni tugatish uchun sarflangan xarajatlar qo'shiladi va tugatish natijasida olingan qiymat ajratish yo'li bilan asosiy fondlarning tugatilishi qiymati aniqlanadi.

Iqtisodiy hisobotlar uchun ishlab chiqarish fondlarini hozirgi davr narxlarida katta baholab turish zarur. Aks holda mavjud inflyasiya ta'mirida yig'ilgan mablag'ga xuddi shunday texnika sotib olib b'ylmaydi. Chunki uning narxi oshib ketgan bo'lishi mumkin.

Biz yuqorida asosiy fondlarning balans qiymatini qarab chiqqanda buxgalteriya balanslarida aks ettirilgan qiymat asosiy fondlarning balans qiymati ekanligini aytib o'tdik. Odatda balans qiymati miqdor jihatidan asosiy fondlarning dastlabki qiymatiga mos tushadi.

Asosiy fondlar ishlab chiqarishda qatnashib, vaqt o'tishi bilan eskiradi. Asosiy fondlarning eskirishi ikki xil bo'ladi:

1 – *ma'naviy eskirish*;

2 – *jismoniy eskirish*;

1) **Ma'naviy eskirish**. Asosiy fondlarning ma'naviy eskirishi quyidagi hollarda yuz beradi: **birinchidan**, mavjud asosiy fondlar unumliroq ishlaydigan ligisi yaratilganda, fan – texnika taraqqiyoti texnikaning yangi, unumli turlarini ishlab chiqqanda, eski asosiy fondlar ligisiga nisbatan unumsiz bo'lganligi uchun ma'naviy eskirgan hisoblanadi. Masalan, x'jalikda ishlatilayotgan, sekundiga 14 kg bug'doy o'raydigan kombayn o'rniga, sekundiga 18 kg

bug'doy o'raydigan yangi kombayn yaratildi deylik, bu holda sekundiga 14 kg bug'doy yraladigan kombayn ma'naviy eskirgan hisoblanadi.

Ikkinchidan, xo'jalikda mavjud ishlab turgan texnikadan narxi arzonroq yangi texnika chiqariladiganda ham ma'naviy eskirish bo'ladi. Masalan, hozirgi xo'jalikda ishlayotgan don o'rish kombaynining narxi 30 mln. So'm turadi. Xuddi shunday kombaynning yangi avlodi yaratildi deylik, uning narxi esa 25 mln. So'm, bunday holda xo'jalikda ishlatilayotgan 30 mln. So'mlik kombayn yangi 25 mln. So'mlik kombaynga nisbatan ma'naviy eskirgan hisoblanadi.

Iqtisodchilarni bunday holatdagi vazifasi ma'naviy eskirgan texnikadan yana qancha muddatda foydalanish zarurligini belgilashdan iborat.

Asosiy fondlarning jismoniy eskirishi, ular vaqt o'tishi bilan faoliyat ko'rsatishi natijasida eskirib borishidir. Bunday eskirish "amortizasiya" tushunchasi bilan belgilanadi. Odatda zavodlarda ishlab chiqarilgan texnikalarning pasportila ularning xizmat ko'rsatish muddati, amortizasiya ajratish normasi belgilangan bo'ladi. Lekin ayrim asosiy fondlarda bu ma'lumotlar berilmagan taqdirda, amortizasiya normasini hisoblab topish mumkin. Umumiy yillik amortizasiya normasi quyidagicha aniqlanadi.

$$An = \frac{B + K + D - L \cdot 100}{H \cdot B}$$

Bunda: An – umumiy yillik amortizatsiya normasi %

K – xizmat ko'rsatish davrida kapital ta'mir xarajatlari.

D – asosiy fondlarni tugatishdagi xarajatlar, so'm.

L – asosiy fondlarni tugatishdan olingan daromad, so'm.

H – asosiy fondlarning o'rtacha xizmat qilish muddati, yil

Hozirda asosiy fondlarning eskirishini belgilashda tezlashtirilgan amortizasiya ajratmasi ajratish yo'lidan ham foydalanilmoqda. Bu inflyasiya darajasi yuqori paytda inflyasiyaning salbiy ta'sirini kamaytiradi. Bundan tashqari fan – texnika taraqqiyoti tezlagan paytda asosiy fondlarni tezlikda almashtirish imkonini beradi.

3. ASOSIY FONDLARDAN FOYDALANISH SAMARDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Asosiy foidalardan foydalanish samardorligini oshirishning asosiy ko'rastikhlari quyidagilardan iborat:

1. Qishlq xo'jalik ekin turlarining hosildorligini oshirish, chorvadorlikda chorva mollarining maxsuldorligini oshirish. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida yangi, ser hosil ekin turlarini ishlab chiqarishga joriy etish.

2. Asosiy foidalarning aktiv qismi bo'lgan texnikadan, asbob-uskunalardan foydalanishining smenalik koeffisienlarini ko'tarish.

3. Asosiy fondlar tarkibini takomillashtirish, ulardan foydalanishning muhim yo'llaridan hisoblanadi. hozirgi davrda ishlab chiqirishda foydalanilayotgan kuch beruvchi texnikalar (traktor va x.k) katta quvvatga ega.

Masalan, bitta “Magnum” rusumli traktordan yil davomida to’liq foydalanish uchun 35 va undan ko’proq ishchi mashinalar, kruglar, ekin agregatlari kerak. Birorta ishchi mashinalarning bo’lmasligi ushbu kuch beruvchi mashinalardan foydalanish imkoniyatini pasaytirish olib keladi.

4. Asosiy va iborat fondlar mutakosibligini ta'minlash ham ulardan foydalanish samardjorligini oshiradi. Misol ekin uchun zarur chigiting yetishmasligi texnikalar bekor turib holiga sabab bo'ladi.

5. Asosiy fondlardan foydalanishida jamoa a'zolarining moddiy makoraoydorligini ta'minlash, ulardan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri hisoblanadi.

4. AYLANMA MABLAG'LAR VA ULARDAN FOYDALANISH

Qishloq xo'jaligida asosiy fondlar bilan bir qatorda aylama mablag'larning ham ahamiyati katta. Aylanma fondlar bir ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etib, o'zining qiymatini tayyor maxsulotga to'laligicha bir ishlab chiqarish jarayonida o'tkazadi. Ular ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etib, o'zining fizik ko'rinishini qisman yoki to'laligicha o'zgartiradi. Ana shunday talablarga javob bergan fondlarga aylanma fondlar deb yuritiladi.

Aylanma fondlar deganda xo'jalikning hisob raqamlarida mavjud bo'lgan pullari sotilga, lekin hali puli kelib tushmagan mahsulot uchun mablag'larni qo'shib hisoblaganda aylanma mablag'lar tushunchasi kelib chiqadi.

Aylanma mablag'lar – ishlab chiqarishni tashkil etish va mahsulotni sotish maqsadida zarur aylanma fondlarni va muomala fondini tashkil etish uchun avanslashtirilgan pul mablag'larining yig'indisidir. Biron bir ishlab chiqarish sohasi aylanma mablag'larsiz amalga oshirish mumkin emas. Aylanma mablag'larning tarkibiy tuzilishini 2 – jadvaldan ko'rish mumkin.

Aylanma mablag'lardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi quyidagicha aniqlanadi:

1. Aylanma mablag'larning aylanish koeffisienti:

$$Ko = \frac{R + M = S}{O} \text{ (S – minus qiymat uchun)}$$

Bunda: Ko – koeffisient.

R – ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishdan va ko'rsatilgan xizmatdan olingan pul tushumi, so'm;

M – asosiy podaga o'tkazilgan yosh chorva mollarning qiymati, so'm;

S – asosiy podani sotishdan tushgan pul tushumi, so'm;

O – aylanma mablag'larning o'rta yillik qoldig'i, so'm.

2. Aylanma mablag'larning o'rtacha bir anlanish muddati yilning 360 kunini aylanma mablag'larning aylanishi koeffisientiga bo'lish orqali hisoblanadi.

3. Bir so'mlik pul tushumiga to'g'ri keladigan aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qoldig'i, so'm.

4. Bir so'mlik aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qoldig'iga to'g'ri keladigan sotilgan mahsulot hajmi, kg.


Aylanma mablag'lar manbasiga qarab o'z mablag'laridan va chet eldan jalb etilgan mablag'larga bo'linadi.

**RESPUBLIKA VILOYATLARI BO'YICHA JAMI TRAKTORLAR SONI VA
ULARNING ISHGA YAROQLIGI.**

	1996 yil			1997 yil			1998 yil			1999 yil			2000 yil		
	Mavjud	Tayyor	%	Mavjud	Tayyor	%	Mavjud	Tayyor	%	Mavjud	Tayyor	%	Mavjud	Tayyor	%
Q-Qalpog'iston res-si	15888	9160	58	15064	7837	52	13786	6593	48	12181	6314	51,8	11320	6119	54,0
Andijon	10917	8185	75	10288	6921	67	9523	6812	72	9068	7100	78,3	8511	7292	85,7
Buxoro	11605	8866	76	10706	8137	76	10366	7622	74	9221	7099	77,0	8638	6470	74,9
Jizzax	8450	5005	59	7726	4376	57	5229	3545	68	5398	3757	69,5	5261	3798	62,7
Qashqadaryo	19363	13826	71	17628	11750	67	15219	9945	65	14548	10014	69,0	13695	9214	67,3
Navoiy	4894	3757	77	4747	3521	74	4373	3358	77	4183	3322	79,4	4057	3104	76,5
Namangan	8974	6967	78	8839	9320	72	8499	6090	72	7907	5925	74,9	7693	5629	73,2
Samarqand	16351	12030	74	14964	10879	73	13335	9910	74	12633	9085	71,9	11237	8342	74,2
Surxondaryo	12414	9685	78	13498	9624	71	11810	8509	72	10986	8637	78,6	10938	8164	74,4

															6
Sirdaryo	7693	4542	59	8006	4977	62	6137	3944	64	5403	3525	75,2	4831	3391	6 8, 8
Toshkent	11388	7378	65	10133	6488	64	8699	5515	63	7695	5239	68,1	73315	5205	7 0, 9
Farg'ona	11019	9038	82	10835	8397	77	10028	7506	75	9537	7081	74,2	8961	6086	6 7, 9
Xorazm	13199	11113	84	12437	9292	75	11965	8004	74	10958	8266	75,4	10481	7873	6 5, 1
Jami:	52155	109561	72	144871	98519	68	128950	88153	68	119718	85391	71,3	113080	80187	7 0, 9

AYLANMA MABLAG'LARNING TARTIBI.



XULOSA

Ishlab chiqarish jarayonini moddiy xarajatlarsiz tasavvur etish mumkin emas. Tarmoqlarda ishlab chiqarishni rivojlantirishda ishlatilayotgan asosiy vositalari, aylanma mablag'laribirgalikda ularning moddiy – texnika bazasi deb yuritiladi. Moddiy – texnika bazasining asosini asosiy fondlar tashkil yetadi. Bir necha ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan, o'zining qiymatini tayyor mahsulotga bo'lib – bo'lib o'tkaziladigan va fizik ko'rinishini saqlab qoladigan fondlar asosiy fondlar deb yuritiladi. Ularning tarkibi, miqdori qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning asosiy natijaviy k'rsatkichlarini belgilaydi. Asosiy fondlarning eng muhim qismi asosiy ishlab chiqarish fondlaridir. Ulardan foydalanishning darajasini va samaradorligini aniqlash talab qilinadi. Buning uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Biz ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan, o'zining qiymatini tayyor mahsulotga to'liq o'tkazadigan va fizik ko'rinishini o'zgartiradigan fondlarga aylanma fondlar deyiladi. Ulardan foydalanishni yaxshilash zarur. Aylanma mablag'larning mavjudligi ishlab chiqarishning bir me'yorda samarali borishini ta'milaydi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Qishloq xo'jaligining moddiy – texnika bazasi deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday fondlarga asosiy fondlar deyiladi?
3. Aylanma mablag'lar nima va uning ahamiyati nimada?
4. Fondlardan foydalanishning samaradorligi qanday aniqlanadi?

13-MAVZU. «QISHLOQ XO`JALIGI MARKETINGI» TUSHUNCHASI, UNING MOHIYATI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Reja:

- 1.«Marketing» tushunchasi, uning mohiyati va samaradorligi.
2. Qishloq xo'jaligi marketingi funksiyalari.
- 3.Qishloq xo'jaligi marketingi strategiyasini tuzish.

ADABIYOTLAR

1. Hakimov R., Otaqulov M., Yusupov E., Yusupov Muxiddin. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. T.: 2004 yil, 96-108 betlar.

1. «MARKETING» TUSHUNCHASI, UNING MOHIYATI VA SAMARADORLIGI

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida agrar sohani rivojlantirishda ma'lum bir iste'molchilarning talablarini aniqlash va qondirishga qaratilgan marketingga alohida e'tibor berilmoqda.

Marketing esa – inglizcha so'z bo'lib, market-bozor degan ma'nodio. Marketing esa eng soda qilib aytganda, tovar va xizmatlar bozorini o'rganish va tahlil qilish yoki bozorshunoslik ma'nosini bildiradi. Qishloq xo'jaligi

marketingining maqsadi- talabni shakllantirish va rag`batlantirish, qishloq xo`jaligi ishlab chiqaruvchisi ishining rejalari va qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining asosli ekanligini ta'minlash, qishloq xo`jaligi mahsulotlar ko`lamini, bozor hissasi va foydasini ko`paytirishdan iborat.

Sotiladigan, ya'ni bozorga chiqqan qishloq xo`jalik mahsulotlarini yetishtirish – qishloq xo`jaligi fermeri faoliyatiga marketing nuqtai nazaridan yondashishining asosiy nishonidir.

Marketing – iste'molchi talabining tahlili va nazarda tutilishining ilmiy ishlab chiqilgan kontsepsiyasi. Bu rag`batlantirish, reklama andozalarini o`z ichiga olgan sotishni tashkil qilish tizimidir.

Marketing – peshtaxtaning boshqa tomonida turib biznesga iste'molchi ko`zi bilan qarashdir.

Bu xaridor topish va uni ushlab turish xaridorga, raqobatchiga ko`ra yaxshiroq va tezroq xizmat ko`rsatish va uning talablarini qondirish qobiliyatidir. Agar korxonada birinchi navbatda ishlab chiqarishga tegishli tadqiqotlarni bajargan bo`lsa, unda marketing tizimi asosiy e'tiborni bozordagi ahvolning tahliliga qaratadi.

Agar qishloq xo`jaligi mahsulotlari assortimentini rejalashtirish oldin faqat uning sifatini yaxshilashga qaratilgan bo`lsa, unda marketing tizimi, asosan, iste'molchi talablarini hisobga oladi.

Ishlab chiqarishga qarab ish tutishda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sotish va tarqatish masalalari bilan shug`ullanayotgan mutaxassis qishloq xo`jaligi fermeri uchun buyurtma oluvchi sifatida ikkinchi darajali rol o`ynaydi.

Marketingni nazarda tutib ish yuritishda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sotish bo`yicha menejer tashkiliy tizimdagi boshliqlardan biri bo`lib, uning vazifasi bozorning tovar va xizmatlar bilan to`lgan qiyin sharoitlarda korxonaning uzluksiz va samarali ishlashini ta'minlashdan iborat. Aynan to`la bozor, ya'ni sotuvchilar taklifi xaridorlar talabidan oshganda, «xaridor bozori» marketing kontsepsiyasini qo`llash va uning samarali bo`lishini ta'minlash uchun asosiy shart-sharoit bo`lib xizmat qiladi.

Marketing qishloq xo`jaligi faoliyatining barcha jihatlari bilan bog`liq to`liq boshqaruv tizimining muhim sohalaridan birini o`zida aks ettirgan holda moliyaviy, ta'minot tizimi, xizmatlarning tashkiliy tuzilganligi, kadrlar siyosati bilan boshqarishni o`z ichiga olib quyidagi tamoyillarga xos:

- 1) qishloq xo`jaligi biznesining iste'molchilar talablariga qarab ish tutishi;
- 2) segmentasiya va maqsadli bozorni aniqlash;
- 3) ishlab chiqarish va sotishni tashkil etishning aktiv va potentsial iste'molchilarning talablariga va bozor sharoitlarining o`zgarishiga moslashishi yoki egiluvchan ta'siri;
- 4) yangiliklar kiritish;
- 5) strategik rejalashtirish va boshqalar.

Qishloq xo`jaligi fermerining iste'molchilar talablariga yunaltirishi ko`p tajriba talab qiladigan ilmiy-amaliy, tadqiqot va analitik ishni, bozor ehtiyojini chuqur va har tomonlama o`rganishni, bozor muhiti va iste'molchining

motivatsiyasini o`rganishni nazarda tutadi. Tahlil uchun bozor hajmi, narxni tashkil etish tizimi, qishloq xo`jaligi mahsulotlarining iste'mol xususiyati, hamkor qishloq xo`jaligi fermerlari ishining qurilishi va uslublari xususiyati, sotishni tashkil etish shakllari, sotishni rag`batlantirish usullari, savdo ishining o`ziga xosligi kerak bo`ladi.

Shu bilan birgalikda qishloq xo`jaligi mahsulotlarining turlari assortimenti taftishini, ishlab chiqarish quvvatini, moddiy-texnikaviy ta'minot tizimini o`z ichiga oladigan ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish imkoniyatlari o`rganiladi; kadrlar tarkibi va malakasi darajasi, moliyaviy imkoniyatlar, savdo xizmatini tashkil etish shart-sharoitlari tahlil qiladi.

Bu tadqiqotlarning asosiy maqsad fermer xo`jaligining bozorda olib borayotgan faoliyati strategiyasi taktikasini aniqlash raqobatchilikka nisbatan ko`proq omadga va afzallikka erishishini ta'minlash.

Bozor, marketing muhiti va iste'molchilar xohishini asosiy uslubi bu:

- a) so`rov;
- b)kuzatish;
- c) test;
- d) taqlid.

Keng miqyosli va sermashaqqat marketing tadqiqotining asosiy sharti – kompyuter texnikasi va bank ma'lumotlaridan foydalangan holda yaxshi jihozlangan va to`liq ishlab chiqilgan informasion tizimdir.

2. QISHLOQ XO`JALIGI MARKETINGI FUNKTSIYALARI

Marketing funktsiyasi ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish faoliyati bilan boshqaruv kontsepsiyasi sifatida boshqaruvning barcha turlariga xos umumiy funktsiyalarga ega.

Qishloq xo`jaligi marketingi funktsiyalari quyidagilardan iborat:

1. Qishloq xo`jaligi mahsulotlari bozori, bozor muhiti va iste'molchilar talablarini kompleks tarzda tadqiq qilish;
2. Qishloq xo`jaligi fermeri shirkati va dehqon xo`jaligining ishlab chiqarish-sotishni tashkil etish imkoniyatlari tahlil qilish;
3. Maqsadli bozor tanlovi;
4. Tovar siyosati;
5. Narx (baho) siyosati;
6. Sotish (tarqatish) siyosati;
7. Kommunikasion siyosat - qishloq xo`jaligi mahsulotlariga bo`lgan talabni shakllantirish va sotishni rag`batlantirish.

Bozor muhitini va iste'molchilar talablarini kompleks tarzda tadqiq qilish analitik ishlarni tahlil qilish, ko`p vaqt talab qiladigan, mutaxassislarning yuqori tayyorgarligini talab qiladigan muhim ishdir.

Bu tadqiqot quyidagi muhim yo`nalishlarni qamrab oladi:

- 1) Marketig muhitini o`rganish, jumladan tadbirkorlik faoliyatini geografik va demografik shartlarini, iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini bilish, raqobatchi, vositachi, etkazib

beruvchi fermer va shirkatlar faoliyatining maxsus xususiyatlarini va munosabatlarini bilish;

2) Qishloq xo`jaligi mahsulotlarining iste'mol xususiyatlari tahlili: talab, taklif, sig`im, talab elastikligi, narx elastikligi va raqobat darajasini bilish;

3) Muayyan qishloq xo`jaligi mahsulotlarining bozordagi harakati va iste'molchilar xohishini va tovar haqidagi tasavvurni bilish;

4) Savdo shakllarining va uslublarning tahlili;

5) Bozor segmentlarini olish va o`rganish;

6) Iste'molchilarni, individual va kollektiv iste'molchilarning sotib olishdagi hatti-harakatlarini o`rganish.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlari bozori segmentasiyasi marketing ishining tarkibiy qismi bo`lib, bozorni segmentlarga, ya'ni bir xil talab xarakteriga ega bo`lgan iste'molchilar guruhi va qishloq xo`jaligi fermari va shirkat xo`jaliklarining marketing ta'siriga bo`lgan bir turdagi ta'siridir.

Bozor segmentasiyasi qishloq xo`jaligi mahsulotlarining individuallashtirish siyosati bilan bog`langan. Marketing yondashishi barcha iste'molchilarga hisoblangan standart, universal tovar tayyorlash zaruratidan voz kechadi va biznesning optimalligini va raqobat afzalligi taklifini individuallashtirish va rang-barang qilishda ko`radi.

Maqsadli bozorni tanlash – marketing tadqiqotlarining muhim ko`rinishidir, chunki korxonalar faqat bozor ehtiyojini va o`z imkoniyatlarini aniqlabgina bozor talablarini o`z potentsiali va istiqbol rivojlanishi bilan moslashtira oladi va jamlangan marketing ishi uchun muayyan bir segmentni samarali ravishda tanlay oladi. Maqsadli bozorni tanlash bir tomondan, bozor segmentlari talablari baholanishi asosida, ikkinchi tomondan, qishloq xo`jaligi o`z imkoniyatlari asosida, ular o`rtasidagi muvozanat va balansni o`rnatish maqsadida quriladi.

Maqsadli bozor shunday bozor segmentiki, unda nafaqat raqobat afzalliklari, balki bir necha raqobat kamchiliklari ham shu qishloq xo`jaligi fermari, shirkati va qishloq xo`jaligi mahsulotlari uchun raqobatda yaxshi pozitsiyalarni yaratishi va ular uchun eng samarali bozor talabini vujudga keltirishi mumkin.

3. QISHLOQ XO`JALIGI MARKETINGI STRATEGIYASINI TUZISH

Tadqiqotlarni olib borish natijasida marketologlar maqsadli bozor rivojlanishi prognozlarini, qishloq xo`jaligi fermari va shirkatining unda harakat qilish maqsadi, strategiyasi va taktikasini, uning tovar, narx, sotish siyosatini hamda sotishni rag`batlantirish va reklama tadbirlari o`tkazish siyosatini o`z ichiga olgan qishloq xo`jaligi fermari va shirkatining ishlab chiqarish-sotish faoliyatining strategik, taktik va operativ rejalarini tuzib chiqishadi.

Muqobil strategiyani ishlab chiqish qishloqda tadbirkorlikning samarali bo`lishini belgilab beradi. Marketing bozor strategiyalarining turli xil variantlarini taklif etadi: global va umumiy - talab holati va darajasi, bozorni

qamrash me'yor, bozor ulushi, tovar va bozorning yangiligiga ko'ra. Marketing dasturlari marketing faoliyatida juda ham muhim o'rinni egallaydi, qishloq xo'jaligi fermerining bozordagi o'rni qandaydir ma'noda ana shu dasturlarning sifatli ishlab chiqilishi va samarali amalga oshirilishiga bog'liq.

Tovar siyosati qishloq xo'jaligi fermerining raqobatdagi pozitsiyasini oshirishga qaratilgan marketing mix kompleksining tarkibiy qismi bo'lgan maxsus marketing dasturini ifodalaydi. Bunda bu siyosat chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining iste'mol xususiyatlarini, ularning yangi turlarini ishlab chiqish va raqobatdoshligini oshirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hayotiy siklini uzaytirish va ularning assortimentini optimallashtirishga qaratiladi. Bu choralar tanlangan bozor segmentida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat tasniflari va xususiyatlarini iste'molchilarning aniq talablari darajasiga yetkazish va uning samarali sotilishini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Narx siyosati qishloq xo'jaligi fermeri va shirkatining bozorda uzoq muddatli harakatidagi narx strategiyasini va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining har bir guruh va turiga hamda bozorning aniq bir segmentiga nisbatan qisqa muddatli narx taktikasini aniqlashni bildiradi.

Narx siyosati tovar narxini o'zgartirib, raqobatbardoshligini oshirishga imkoniyat yaratadi (bozor munosabatlari sharoitida savdo faoliyatini olib borish talab qilganidek) va bozor talablaridan kelib chiqqan holda, tovar hayot siklining fazalarini va boshqa omillar asosida narx belgilashni taminlaydi.

Odatda, narx siyosati bir necha bozor strategiyalarini o'z ichiga oladi: «bozorga yorib kirish» siyosati (penetration policy), «qaymog'ini olish» siyosati (skimming policy), differensiyalangan, diskriminatsiyalovchi, raqobatbardosh, obro'li narxlar va boshqa turdagi narxlar, chegirma va narxli imtiyozlar siyosati va b. Narx siyosati, shuningdek, taqribiy miqdorda ifodalangan, belgilanadigan narx darajasini aniqlash metodologiyasi va shartnoma narxini hisoblash va qayd qilish metodikasini o'z ichiga oladi.

Sotish siyosati qishloq xo'jaligi mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita usullar orqali sotish kanallarini vujudga keltirishni nazarda tutadi. To'g'ridan-to'g'ri usul sotish filiallari, omborlar, stansiya va texnik xizmat ko'rsatish markazlarining bevosita ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jaligi fermeri va shirkat xo'jaligi tomonidan tashkil qilinishini ko'rsatadi, ya'ni o'zining sotish tizimi orqali. Bilvosita usul savdoning mustaqil vositachilar orqali amalga oshirilishini bildiradi. Qishloq xo'jaligi fermeri intensiv, selektiv va «eksklyuziv» sotish sistemalaridan foydalanishi, nolinni yoki ko'p darajali sotish tarmoqlarini yaratishi, sotishning vertikal va gorizontalarini aniqlashi mumkin. Chakana, ulgurji va tashqi savdo sotish sistemalarini ishlab chiqish ham qishloq xo'jaligi fermerining sotish siyosatiga kiradi.

Kommunikatsion siyosat qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bozorga olib kirilishiga qaratilgan tadbirlar kompleksini rejalashtirish va amalga oshirishni anglatadi. Bu sohada turli xil reklama ko'rinishlaridan foydalaniladi, jamoatchilik bilan aloqalar o'rnatiladi, sotishni rag'batlantirish, sotishdan oldingi va keyingi xizmat ko'rsatish hamda zamonaviy savdo markasi, ya'ni «brend»lardan foydalanadi.

Marketing – qishloq xo`jaligi fermeri va shirkat xo`jaligi boshqaruv faoliyatining yaxlit kontseptsiyasi bo`lib, umumiy printsiplar va funktsiyalar bilan xarakterlanadi va qishloq xo`jaligi fermerining ishlab chiqarishi va sotishni tashkil qilishi iste'molchilarning talablarini qondirishga yo`naltirilgan. Ammo, qishloq xo`jaligi fermerini boshqarishning marketing kontseptsiyasini qo`llash sohasi va ob'ektiga qarab marketingning turli xil ko`rinishlari ko`rsatiladi.

Rivojlanish xususiyati va yondashuvlaridan kelib chiqib, uning «menejeristik», «bixevioristik», «integrallangan», «innovatsion», marketingni kontseptsiyasi to`g`ridan-to`g`ri, strategik, ekologik va ijtimoiy marketing turlari mavjud.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlariga bo`lgan talabning xususiyatlariga qarab quyidagi marketing turlari mavjud:

- konversion – negativ, manfiy talabni ijobiyga aylantiradi;
- kreativ – bozorda ma'lum vaqtda muayyan tovarga talab yo`q bo`lsa, talabni yaratadi;
- rag`batlantiruvchi – past darajadagi talabni oshiradi;
- remarketing – susayayotgan talabni jonlantiradi;
- sinxromarketing – o`zgarib turuvchi talabni barqarorlashtiradi;
- qo`llab-quvvatlovchi – optimal talab saqlanishini ta'minlaydi;
- demarketing – oshiqcha yuqori talabni pasaytiradi.

Marketing taklif qilinayotgan tovar va xizmatlarning ko`rinishlariga qarab bir necha turlarga bo`linadi. Xususan, marketing o`zining shaxsiy xususiyatlariga ega bo`lgan iste'mol tovarlari marketingi, qishloq xo`jaligi mahsulotlari marketingi, bank va moliya marketingi, savdo-sotiq marketingi, turistik biznes marketingi, ilmiy-texnikaviy marketing, g`oyalar marketingi va boshqa turlarga bo`linadi.

Tashkilot va qishloq xo`jaligi fermeri va shirkatining turiga, tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanadigan sub'ektga qarab quyidagi qishloq xo`jaligi marketing turlari mavjud: notijorat va tijorat tashkilotlar marketingi, qishloq xo`jaligi kichik biznes marketingi, saylov oldi kompaniyalar, alohida shaxslar marketingi va boshqalar.

XULOSA

Marketing (ingl. Market-bozor) – tadbirkor muhitini, bozorni, iste'molchining aniq talabini va ular uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni ko`zda tutishni o`rganishga asoslangan, qishloq xo`jaligi korxonalarining ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko`rsatish bilan bog`liq bozor kontseptsiyasidir. Qishloq xo`jaligi marketingi maqsadi – talabni shakllantirish va rag`batlantirish, qishloq xo`jaligi ishlab chiqaruvchisi ishining rejalari va qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining asosligini ta'minlash hamda qishloq xo`jaligi mahsulotlarining savdo ko`lami, bozor hissasi va foydasini ko`paytirishdan iborat. Sotiladigan, ya'ni bozori chaqqon qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish – qishloq xo`jaligi fermeri faoliyati marketing nuqtai nazaridan yondashishining asosiy nishonidir.

Qishloq xo'jaligi marketingi uchun quyidagi asosiy holatlar yoki tamoyillar xosdir:

1. Qishloq xo'jaligi biznesining iste'molchilar talablariga qarab ish tutishi;
2. Segmentatsiya va maqsadli bozorni aniqlash;
3. Ishlab chiqarish va sotishni tashkil etishning aktiv va potentsial iste'molchilarning talablariga va bozor sharoitlarining o'zgarishiga moslashishi yoki egiluvchan ta'siri;
4. Yangiliklar kiritish;
5. Strategik rejalashtirish va boshqalar.

Tadqiqotlar olib borish natijasida marketologlar maqsadli bozor rivojlanishi prognozlarini, qishloq xo'jaligi fermeri va shirkatining unda harakat qilish maqsadi, strategiyasi va taktikasini, uning tovar, narx, sotish siyosatini hamda sotishni rag'batlantirish va reklama tadbirlari o'tkazish siyosatini o'z ichiga olgan qishloq xo'jaligi fermeri va shirkati ishlab chiqarish-sotish faoliyatining strategik, taktik va operativ rejalarini tuzib chiqishadi.

Muqobil strategiyani ishlab chiqish qishloqda tadbirkorlikning samarali bo'lishini belgilab beradi. Marketing bozor strategiyalarining turli xil variantlarini taklif etadi: global va umumiy - talab holati va darajasi, bozorni qamrash me'yori, bozor ulushi, tovar va bozorning yangiligiga ko'ra. Marketing dasturlari marketing faoliyatida juda ham muhim o'rinni egallaydi, qishloq xo'jaligi fermerining bozordagi o'rnini qandaydir ma'noda ana shu dasturlar sifatli ishlab chiqilishi va samarali amalga oshirilishiga bog'liq.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. «Marketing» tushunchasi nimani anglatadi? Uning mohiyati nimada?
2. Qishloq xo'jaligi marketingi samaradorligi nimalarga bog'liq?
3. Qishloq xo'jaligi marketingi funktsiyalari nimalardan iborat?
4. Qishloq xo'jaligi marketingi strategiyasi qanday tuziladi?

14-MAVZU: QISHLOQ XO'JALIGINING YALPI VA TOVAR MAHSULOTLARI, ULARNING TAQSIMLANISHI VA KO'PAYTIRISH YO'LLARI

Reja:

1. Qishloq xo'jaligining yalpi va tovar mahsuloti haqida tushuncha, ularning ahamiyati.
2. Qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti tarkibi dinamikasi (o'zgarishi).
3. qishloq xo'jalik mahsulotlarini taqsimlash, sotish va ularning tovarlilik darajasi.
4. yalpi mahsulotni ko'paytirish, uning tovarlilik darajasini oshirish yo'llari.

ADABIYOTLAR

1. Abdug'aniev Abdullatif, Abdug'aniev Abduqahhor. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. T.: TDIU, 2004. 197-215 betlar.

2. O`zbekiston qishloq xo`jaligi jurnali. 1998-2005 yillardagi sonlari.

1. QISHLOQ XO`JALIGINING YALPI VA TOVAR MAHSULOTI HAQIDA TUSHUNCHA, ULARNING AHAMIYATI

Yalpi mahsulot deb, ma'lum vaqt ichida (odatda bir yilda) ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yig`indisiga aytiladi. Yalpi mahsulot dehqonchilik va chorvachilik sohalarida yetishtirilgan yil davomida etishtirilgan mahsulotlardan tashkil topadi. Jumladan, paxta, bug`doy, makkajo`xori, sholi, arpa, kartoshka, qovun-tarvuz, pomidor va shunga o`xshash, dehqonchilikda etishtirilgan mahsulotlar yalpi mahsulotlari deb yuritiladi. Etishtirilgan bu kabi mahsulotlar ularning yalpi mahsuloti natural miqdorini ifodalaydi. Lekin bu natural ko`rsatkichlar fermer, shirkat va boshqa dehqonchilikdagi yillik faoliyatni to`liq ifodalay olmaydi, chunki ularni natura hoida bir-biriga qo`shib bo`lmaydi. Shu sababli yetishtirilgan barcha mahsulotlar qiymat shaklida aniqlanishi zarur, yalpi mahsulotlarning qiymati har yilgi so`mda haqiqiy va qiyosiy baholarda hisoblanadi. Hozirgi davrda qiyosiy baholar sifatida 1996 yildagi haqiqiy baholarning o`rtacha yillik miqdori olingan. Lekin, ma'lum yillardan so`ng boshqa yilning o`rtacha baholari olinishi mumkin. Tarmoqda, masalan: dehqonchilikda, chorvachilikda va boshqalarda yetishtirilayotgan yalpi mahsulot qiymati alohida mahsulot turlari tarmoqlar bo`yicha va xo`jaliklar bo`yicha aniqlanadi. Yalpi mahsulot tarmog`ining korxonaning bir yillik faoliyatini ifodalovchi umumiy ko`rsatkichdir. Bunda mahsulotlar o`z turlari bo`yicha va og`irligi (bo`yicha) jihatdan, kilogramm, sentner, tonna va shunga o`xshash boshqa o`lchov birliklarida hisobga olinadi. Chorvachilikda esa yalpi mahsulot barcha chorva mollarining turidek yil davomida etishtirilgan mahsulotlarning yig`indisidan iborat. Bu sohalarda ham yalpi mahsulot qiymat o`lchovida hichobga olinadi. Bunda sham joriy yilning qiyosiy baholaridan foydalaniladi. Chorvachilik yalpi mahsulotlari ham qiymat hoida hisoblab chiqiladi, chunki turli mahsulotlarni, masalan: sutni, go`shtni, junni va boshqa turdagi mahsulotlarni bir-biriga qo`shib hisoblab bo`lmaydi.

Qiymat shaklida hisoblangan yalpi mahsulotning tarkibi quyidagicha bo`ladi:

1. Tayyor mahsulot;
2. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari.

Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi jarayonida bir yil davomida yetishtirilib, yig`ishtirilib, hisobga olingan, taqsimlashga va sotishga tayyor bo`lgan mahsulotlar - tayyor mahsulot hisoblanadi.

Kelgusi yillarda mahsulotlar etishtirish uchun sarflanadigan xarajatlar tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari deyiladi. Masalan, kelgusi yilda paxta, bug`doy, sabzavot va boshqa mahsulotlar etishtirish uchun joriy yilda erlarni haydash, tekislash bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar, kelgusi yilda go`sht etishtirish uchun joriy yildagi xarajatlar sanaladi. Bunday xarajatlar bog`dorchilikda ham bo`ladi.

Natura hoidagi qishloq xo`jalik mahsulotlari turlari bo`yicha alohida-alohida hisoblanadi, ya'ni o`simlikchilik mahsulotlari alohida yalpi hajmda va

qiymat holida alohida hisoblanadi. Chorvachilik mahsulotlari ham alohida yalpi hajmda va qiymat holida alohida hisoblanadi. Bu mahsulotlar bir yillik hajmi qiymati shu yilgi qiyosiy baholarda quyidagicha hisoblanadi:

- sotilgan mahsulotlar sotish baholarida;
- xo`jalikning ichki ehtiyojlari uchun berilganlari, yetishtirilgan tannarxlari bo`yicha.

Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida bu usul xo`jalik ehtiyojlarini, ishlab chiqarish bilan shug`ullanganlarning moddiy manfaatdorligi oshishini etarli darajada ta'minlay olmaydi. Mahsulotlar tannarxda belgilanganligi uchun foyda olmaydi. Foyda bo`lmagach, ishchilarni mahsulot ishlab chiqarish natijasiga ko`ra, rag`batlantirib bo`lmaydi. Shuning uchun ichki ehtiyojlarga berilgan mahsulotlarning qiymatini ham o`rtacha sotish baholarida aniqlash yoki ichki baholarni belgilash maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo`jaligidagi tayyor mahsulotlar ichki va tashqi bozor talabini e'tiborga olgan holda sotiladi, ya'ni qishloq xo`jaligida ham pul-tovar (P-T) munosabatlari amalga oshiriladi. Mahsulotlarning pul-tovar munosabatlari asosida sotilgan miqdori tovar mahsuloti deb ataladi. Shunga asoslangan holda mahsulotlarning tovarlilik darajasi ham aniqlanadi.

Mahsulotning tovarlilik darajasini aniqlash uchun sotilgan mahsulotning jami yetishtirilgan mahsulotning natura holiday ulushiga taqsimlab 100 ga ko`paytirish kerak. Chunki u foizda hisoblanadi. Uning formulasi quyidagicha:

$$T_d = (S_m \div Ya_m) * 100$$

Bunda: T_d – mahsulotning tovarlilik darajasi, foizda;

S_m – sotilgan mahsulot miqdori, tonna, sentner, kilogramm;

Ya_m – yetishtirilgan jami mahsulot (paxta, bug`doy) tonna, sentner

Mahsulotlarning tovarlilik darajasi tayyor mahsulot hamda talabdan kelib chiqqan holda turlicha bo`ladi. Unga ayrim paytlarda davlatning siyosati ham ta'sir etadi. Masalan, hozirgi davrda paxtaga nisbatan davlat buyurtmasi va talabning mavjudligi sababli uning tovarlilik darajasi 100 foizga teng. Yoki ayrim texnika (vositalari) mahsulotlari ham xo`jaliklarda faqat sotish maqsadida yetishtirilmoqda. Shu sababli bunday mahsulotlarning tovarlilik darajasi 100 foizga teng bo`ladi. Misol uchun kanop mahsuloti.

Ayrim qishloq xo`jalik mahsulotlari faqat ichki talablarni qondirish maqsadida yetishtiriladi. Bunday hollarda ularning tovarlilik darajasi aniqlanmaydi. Jumladan, chorvachilik uchun ozuqa yetishtirish uchun yem-xashak tayyorlash, aholi uchun pomidor, sholg`om, turp va boshqalar.

Yalpi va tovar mahsulotlarning mamlakat iqtisodiyotidagi tarmoq va korxonalar iqtisodiyotidagi ahamiyati katta, chunki ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotning hajmi, qiymati o`shishi natijasida mamlakat yalpi ichki mahsulotining ham o`sadi. Masalan, 2005 yilda yalpi ichki mahsulotning o`shish sur'ati 7%ga, qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi esa 6,2%ga o`sdi.

Qishloq xo`jaligining ishlab chiqarishining asosiy tuzilmasi sifatida fermer xo`jaliklari qishloqda jadal rivojlantirildi. 2005 yilda fermer xo`jaliklarida bir milliondan ortiq kishi ishladi va ular tomonidan 2005 yilda paxta xom-ashyosining 66%dan ortig`i, donning esa 55%dan ko`prog`i yetishtirildi.

2. QISHLOQ XO`JALIGINING YALPI MAHSULOTI TARKIBI DINAMIKASI (O`ZGARISHI)

Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarishning garovidir natijasi yalpi mahsulotdir. Agrosanoat majmuasida yalpi mahsulot dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlaridan tashkil topadi.

Agrosanoat majmuasining yalpi mahsuloti tarkibiga yil mobaynida yetishtirilgan jami qishloq xo`jalik mahsulotlari kiradi. Qishloq xo`jaligini rivojlantirish siyosati tufayli yalpi mahsulot hajmi yildan-yilga oshib bormoqda, yalpi mahsulot o`zgarishining haqiqiy holatlari qiyosiy baholarda real ko`rinadi. Chunki har yili haqiqiy baholar o`zgarishining ta'siri qiyosiy baholarda ko`rinadi va yalpi mahsulot qiymati qiyosiy baholarda yil sayin o`shib bormoqda. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko`rish mumkin.

1-jadval

Respublika qishloq xo`jaligi yalpi mahsulotining o`zgarishi *

	Yillar						
	1995	1996	1997	1998	1999	2000	2001
Yalpi mahsulot qiymati - haqiqiy baholarda, mlrd. so`m	124,4	181,0	421,1	550,2	833,1	972,5	2086, 8
- 1995y.dagiga nisbatan o`zgarishi, foizda	100,0	145,5	338,5	442,3	6,7 m.	7,8 m.	16,8 m.
- qiyosiy baholarda, avalgi yildagiga nisbatan, foizda	102,3	93,5	105,8	104,0	105,9	104,5	104,5

*Jadval Respublika Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadvaldagi ma'lumotlardan respublikada qishloq xo`jaligi mahsuloti qiymatining haqiqiy bahosi ancha yuqori bo`lgan qiyosiy baholarda esa uncha katta emas.

Yalpi mahsulotning o`shishi quyidagi omillar hisobidan bo`lgan:

1. Qishloq xo`jalik mahsulotlarining natural miqdori hisobiga ko`paygan;
2. Qishloq xo`jalik mahsulotlarining bahosi o`shishi hisobidan ko`paygan;
3. Yetishtirilayotgan mahsulot tarkibining o`zgarishi hisobidan, ustuvor sur'atlarda rivojlanishi ya'ni diversifikasiya hisobidan o`sgan.

Bu respublikada don mahsulotlari yetishtirishda bug`doy yetishtirishni diversifikasiya qilinayotganligidan dalolat beradi. Bu esa don mahsulotlariga bo`lgan respublikaning ichki talabini qondirishdagi davlat siyosatining ijobiy natijasidir. Chunki don mahsulotlarini yetishtirish asosan paxta yakkahokimligining kamayib borishi nazarda tutilgan. Masalan, 2002 yilda

respublika bo'yicha jami 5,4 mln. tonna don mahsulotlari yetishtirilgan, don mahsulotlari tarkibida esa bug'doy ustuvor sur'atlarda o'sgan. 1993-2000 yillar mobaynida bug'doy yetishtirish esa 4,8 marotaba ko'paygan. Bu esa yuqorida aytib o'tilgandek, O'zbekistonda don mahsulotlari yetishtirishda bug'doy yetishtirishni diversifikasiya qilinayotganligidan dalolat beradi. Buning natijasida 1993-2000 yillarda paxta xom-ashyosini yetishtirish qariyb 30%ga kamaygan.

O'zbekistonda yetishtirilayotgan asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlarini quyidagi 2-jadvaldan ko'rish mumkin.

2-jadval

Respublikada etishtirilayotgan asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari, ming tonna*

	Yillar								2000y.da 1993 yilda- giga nisbatan, foiz
	1993	1994	1995	1996	1997	1998	1999	2000	
Jami don jumladan:	2142,4	2466,9	3215,3	3562,0	3775,6	4147,7	4321,3	3915,7	182,8
Bug'doy	876,0	1363,1	2346,9	2741,8	3073,0	3555,5	3599,7	3510,6	4 mapra
Paxta	4234,5	3937,8	3934,1	3350,1	3645,0	3206,3	3652,3	3001,8	70,9
Kartoshka	472,4	567,1	439,8	513,5	691,9	691,4	649,6	729,8	154,5
Sabzavot	3038,7	2975,3	2712,6	2498,0	2384,2	2403,5	2651,0	2637,3	86,8
Poliz	622,3	578,0	471,9	469,7	476,2	470,0	502,1	457,2	73,5
Go'sht	814,1	827,2	853,0	800,6	800,7	808,7	819,7	841,5	103,4
Sut	3764,0	3731,6	3665,4	3403,6	3406,1	3494,9	3541,9	3656,5	97,1

* Jadval Respublika Makroiqtisodiyot va statistika hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirliklari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2-jadvalda 1993-2000 yillarda olingan hosilning ekin maydoni quyidagicha bo'lgan 1993 yilda ekilgan maydon 4229,7 ming gektar bo'lib hosil yetishtirilgan bo'lsa, 2000 yilda esa barcha ekin maydoni 3774,9 ming gektarni tashkil etadi. Jumladan, 42,7%ga don ekinlari 39%ga texnika ekinlari, shu jumladan paxta 6,2%da, kartoshka sabzavot hamda poliz ekinlari 12,1% , yem-xashak ham yetishtirilgan. Hozirgi davrda kartoshka aholining talabi kundan-kunga ortib bormoqda va ikkinchi non mahsuloti o'rnini egallamoqda. Endilikda O'zbekistonda chetdan kartoshka sotib olish yo'q. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish sur'atlari keskin oshmayapti. Buning sababi tarmoqda iqtisodiy islohotlar bozor iqtisodiyoti talabi darajasida amalga oshmayapti. 1993 yildan boshlab chorvachilikda xususiylashtirish amalga oshirilmogda, asosiy xususiylashtirilgan fermerlar uchun yer bilan ta'minlash to'liq bo'lmaydi, natijada sermahsul chorva mollari sotib yuboriladi. Mavjud chorva mollarning mahsuldorligi pasayadi. Bu holatni yaxshilash uchun rentabellikka hukumat tomonidan chorvachilikni rag'batlantirish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Keyinchalik bu soha mahsulotlari ko'payishini ta'minlash mumkin.

Respublika viloyatlarida qishloq xo'jaligining mahsulotlari ishlab chiqilishini 3-jadvaldan ko'rish mumkin.

3. QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI TAQSIMLASH, SOTISH VA ULARNING TOVARLILIK DARAJASI

Agrar sohaning muhim vazifalaridan biri O'zbekiston hududidagi agrar soha mahsulotlarining qayta ishlovchi korxonalarining xom-ashyo bo'lgan va aholining sha mshu soha mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda tashqi bozor talabini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Buning uchun agrar sohada davlatning paxtaga va g'allaga bo'lgan eng muhim buyurtmalarni bajarishga asoslanadi. Bu mahsulotlar bo'yicha buyurtma miqdori hajmiga nisbatan 30%ga. Muhim bir narsani eslatib o'tish kerak. Qishloq xo'jaligining o'rtacha hosildorligidan kelib chiqib sohada yetishtirilayotgan mahsulotlardan urug'lik, em-xashak va OZUqalarning bir qismini ichki talabni qondirishga sarflanadi. Aks holda sohada takror ishlab chiqarishni rivojlantirib bo'lmaydi.

Agrar sohada ishlab chiqarishni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlantirishni ta'minlash uchun yetishtirilgan mahsulotlardan, bir qismini ishchi-xizmatchilarga ish haqi o'rniga natural shaklda beriladi, ularning ovqatlanishi uchun ajratiladi, aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida ularga ma'lum miqdorda tekinga beriladi.

Hozirgi davrda qishloq xo'jalik korxonalarida yetishtirilayotgan mahsulotlar muayyan shakllar bo'yicha taqsimlanishini 4-jadvaldan ko'rish mumkin.

4. YALPI MAHSULOTNI KO'PAYTIRISH, UNING TOVARLILIK DARAJASINI OSHIRISH YO'LLARI

Agrar sohada yalpi mahsulotni ko'paytirishning ikki yo'li mavjud:

1. Ekstensiv yo'l;
2. Intensiv yo'l.


Ekstensiv yo'l ekin maydonlarini, chorva hayvonlari bosh sonini ko'paytirish hisobiga yalpi mahsulot hajmini ko'paytirish, bu usulni iqtisodiy adabiyotlarda, Amerika usuli, deb ham ataydilar. Lekin ekstensiv yo'l bilan yalpi mahsulot hajmining ko'paytirilishi ayrim ishlab chiqarish resurslari, jumladan, yer va suv resurslari tabiatan cheklanganligi sababli to'liq ta'minlanmaydi.

Ekstensiv usuldan qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmini ko'paytirish uchun moddiy mablag` va mehnat resurslari asosan yangi yerlarni o'zlashtirish, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi muomilasiga kiritishga, chorva mollarining bosh sonini ko'paytirishga qaratiladi. Natijada o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarining miqdori ko'paytiriladi. O'zbekistonda ekstensiv yo'l bilan qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'paytirish Farg'ona vodiysining ayrim xo'jaliklarida, Xorazm viloyatida ancha cheklangan.

Intensiv yo`l – bu foydalanilayotgan erlarning unumdorligini oshirish, fan-texnika, samarali texnologiyalarni joriy etish natijasida mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ularning unumdorligini yuksaltirish, chorvachilikda sa naslchilik ishlarini yaxshi rivojlantirib, mahsulotni ko`paytirish. Intensiv usul Prussiya yo`li, deb ham ataladi. Qishloq xo`jalik mahsulotlarining hajmini ko`paytirish, sifatini yaxshilash asosan moddiy, mablag` va mehnat sarflarini, fan yutuqlarini, yangi texnika va ilg`or texnologiyalarni, hayvonlarning nasl va zotlarini, o`simlikchilikda esa o`simlik navlarini yaxshilash orqali, demak qo`shimcha investisiyalarni sarflash yo`li bilan amalga oshiriladi.

Intensiv usuldan barcha sohalarda foydalanish mumkin.

Hozirgi davrda qishloq xo`jalik korxonalarida etishtirilayotgan mahsulotlar muayyan kanallar bo`yicha taqsimlanmoqda va sotilmoqda, 4-jadval.



Respublika viloyatlarida etishtirilgan
qishloq xo`jalik mahsulotlari, ming tonna*

Viloyatlar	Paxta		Boshqli don		Sabzavot		Poliz mahsulotlari		Go`sht		Sut	
	1996y	2000y	1996y	2000y	1996y	2000y	1996y	2000y	1996y	2000y	1996y	2000y
Qoraqalpog`iston Respublikasi	203,9	125,4	10	64	20,3	15,1	15,7	8,1	37,6	38,9	117	126,1
Andijon	315,9	337,4	389,7	512,8	33	37,1	0,8	0,9	49,1	55,3	274,2	331,6
Buxoro	360,6	351,1	126,7	213,5	84	23,2	4,2	5	64,1	69,4	260,6	267,5
Jizzax	139,4	155,5	175,4	316,9	10,4	13,6	5,6	7,5	57,3	60,1	197,2	194,5
Qashqadaryo	375,7	265,1	321,3	263,9	28,8	60,6	11,6	18	91,5	94,4	334,1	345,8
Navoiy	101,3	103,6	55,5	92,6	3,3	9,2	2,5	2	46	45,5	118,7	124,2
Namangan	239,8	243,5	251,3	258,2	61,7	110	6,2	8	51	53,6	258,9	266
Samarqand	216,8	167,7	231,2	278,1	115,9	162	4,2	5	97	104,4	347,2	425,1
Surxondaryo	360,1	259,5	271,3	203,1	14	20,1	4,3	11	67,7	74,6	294,4	326,1
Sirdaryo	186,5	174,6	153,1	185,6	4,9	12,1	4,7	6	26	25,6	119,9	119,6
Toshkent	258,8	256,4	283,1	336	135	148	6,1	20	99	102,8	337	346,7
Farg`ona	301,3	362,6	295,7	325,1	26	46,1	4,2	6,3	58,9	63,7	389,9	377,4
Xorazm	290	199	52	76,7	18,7	39,5	4,5	1,1	48,6	52,3	340,9	382,6
JAMI	3350,1	3001,5	2616,3	3126,5	480,3	696	74,5	98,9	793,8	840,6	3390	3633,2

* Jadval Respublika Makroiqtisodiyot va statistika hamda Qishloq va suv xo`jaligi vazirliklari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Chizmadan ko`rinib turibdiki, qishloq xo`jalik korxonalari, avvalo, yetishtirgan paxta, don mahsulotlarining davlat buyurtmasida ko`rsatilgan miqdorini «O`zpaxtasanoatsotish» uyushmasi hamda «O`zdonmahsulot» kompaniyasining joylardagi korxonalari bilan tuzilgan shartnomalar asosida sotadilar. Bu turdagi mahsulotlarning davlat buyurmalaridan ortiqcha qismi erkin savdoda shartnomalar asosida qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarga sotiladi. Shu o`rinda ta'kidlash kerakki, bozor iqtisodi sharoitida korxonalarga etishtirgan mahsulotlarini erkin sotish imkoniyatlari to`liq borilishi zarur. Shuning uchun davlat buyurtmalari o`rniga iqtisodiy jihatdan rivojlangan demokratik davlatlardagidek mahsulotlarni erkin sotib olish bo`yicha davlat dasturini ishlab chiqish lozim. Shu orqali davlatning iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosati amalga oshirilishi uchun to`liq imkoniyat yaratiladi.

XULOSA

Qishloq xo`jaligida aholi va qayta ishlash tarmoqlarining talablarini qondirish maqsadida turli xil mahsulotlar etishtirilmogda. Ular mamlakat yalpi ichki mahsulotining 26-30 foizini tashkil etmogda. Yalpi mahsulot–tayyor mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari yig`indisidir.

Tayyor mahsulotlarni sotish natijasida respublika valyuta tushumining aksariyat qismi shakllantirilmogda. Yalpi mahsulot tarkibida tayyor va tovar mahsulotlar salmog`ini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo`jalik mahsulotlarini taqsimlash va sotish yo`llarini, ularning bozorini rivojlantirishga erishish lozim.

Yalpi mahsulot miqdorini talab darajasida ko`paytirish, sifatlarini yaxshilash maqsadida ekstensiv hamda intensiv usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Yalpi mahsulot deganda nimani tushunasiz?
2. Yalpi mahsulotlar qanday turlarda hisobga olinadi?
3. Yalpi mahsulotning tarkibi qanday?
4. Tayyor mahsulot deganda nimani tushunasiz?
5. Qanday mahsulot tovar mahsuloti deb ataladi?
6. Mahsulotlarning tovarlilik darajasi qanday aniqlanadi?
7. Yalpi va tovar mahsulotlarning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati qanday?
8. Yalpi mahsulotni ko`paytirishning qanday yo`llari bor?
9. Ekstensiv hamda intensiv usul haqida qanday tushunchaga egasiz?
10. Mahsulotlar sotishni rivojlantirishning qanday yo`llari mavjud?

15-MAVZU: QISHLOQ XO`JALIGINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA QO`LLAB-QUVVATLASH

Reja:

1. Qishloq xo`jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo`llab-quvvatlashning mohiyati va zaruriyati

2. Davlatning qishloq xo`jaligini tartibga solish va qo`llab-quvvatlashdagi asosiy vazifalari, ularni amalga oshirish shakllari va usullari
3. O`zbekiston respublikasining agrar siyosati va uni takomillashtirish yo`llari

ADABIYO`TLAR

1. Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida. T.: 1995 yil. 17-29 va 43-57, 58-74, 228-245 betlar.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.: 1994 yil. 94-127, 251-267 betlar.
3. Karimov I.A. O`zbekiston 21-asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: 1997 yil. 188-211 betlar.
4. Hakimov R. va boshqalar. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. T.: 2004 yil. 109-126 betlar.

1. QISHLOQ XO`JALIGINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA QO`LLAB-QUVVATLASHNING MOHIYA`TI VA ZARURIYA`TI

Qishloq xo`jaligini markazlashgan rejalar asosida davlat tomonidan ma'muriy usullar orqali boshqarish tamoyillaridan voz kechib, bu sohaga erkin bozor munosabatalari kirib kelayotgan paytda davlatning agrar ishlab chiqarish munosabatlariga aralashuvi hayotiy zaruratga aylanadi. chunki bunday zaruratni bozor iqtisodiyoti munosabatlarining o`zi va rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi ham buni isbotlab bermoqda, bu aralashuv shundan iboratki, tegishli qonun-qoidalar asosida tartibga solinishi va qo`llab-quvvatlanishi lozim.

Erkin bozor tarafdorlarining fikricha, bozorning o`z-o`zini tartibga sola olish xususiyati, qishloq xo`jaligi iqtisodiyotiga davlat aralashuvi shart emas va bunga zaruriyat ham yo`q deb o`ylaydilar. Ikkinchidan, ular, qishloq xo`jaligiga xos bo`lgan bir qator xususiyatlarga ham tayanib, qishloq xo`jaligida erkin bozor munosabatlari amal qilishi uchun qulay sharoitlarning mavjudligi ham qishloq xo`jaligiga davlatning aralashuviga zaruriyat yo`q, degan g`oyani ilgari suradilar, qishloq xo`jaligining o`ziga xos xususiyatlari, masalan, bu soha mahsulotlari bozorida sof raqobat imkoniyatlarining mavjudligi, qishloq xo`jalik ishlab chiqarishiga xos tabiiy omillar dehqonlardan mustaqil qaror qabul qila olmasligi kabilarni ilgari surib, davlatning aralashuvini inkor etmoqchi bo`ladilar.

Lekin O`zbekiston bozor munosabatlariga o`ta boshlagshandan davrdan beri, hozirgi vaqtgacha ham respublikamizda qishloq xo`jaligi iqtisodiyotini rivojlantirish davlatning faol aralashuvisiz rivojlantirib bo`lmasligini ko`rsatmoqda. Birinchidan, qishloq xo`jaligida tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy xarakterdagi omillar bilan bir qatorda yer, suv, o`simlik va chorva mollari organizm, yorug`lik, issiqlik, havo, tabiiy iqlim va jug`rofiy joylashuv kabi tabiiy omillar ham muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, ishlab chiqarish jarayonida xo`jalik faoliyatiga ta'sir ko`rsatuvchi omillarning serqirraligi va murakkab tizimdan iboratligi ham qishloq xo`jalik korxonalarining samarali

faoliyat ko`rsatish imkoniyatlarini cheklab qo`yadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish tabiiy omillarning bir qismini boshqarish dehqonlarning imkoniyatlar doirasidan tashqarida ekanligi, ularni oldindan rejalashtirib yoki oldini olib bo`lmasligi ham xo`jalikni rivojlanishiga salbiy ta'sir ko`rsatadi.

Masalan, ayrim qishloq xo`jalik yilida ob-havoning yomon kelishi, sohaga albatta manfiy zarar keltirishi mumkin. Ya'ni bu omillar xo`jalikning yakuniy moliyaviy natijalariga kuchli ta'sir etadi.

Masalan, qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishining tabiiy iqlim sharoitiga bog`liqligi dehqonlar faoliyatini rag`batlantirish va sug`urtalash kabi bir qator himoya vositalarini yaratib berilishini talab qiladi, jumladan, dehqonlarning ob-havoga bog`liqligi, geografik muhitga, jonli organizmlarga bog`liqligi va boshqa tabiiy sharoitlar.

Agar qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishiga dehqon manfaati tomonidan yondashsak, ularning yil davomida mahsulot yetishtirish uchun sarflangan xarajatlar tabiiy ofat va qurg`oqchilik tufayli bekorga sovurilib ketishi mumkin. Bunday sharoitda uning ko`rgan zararini qisman bo`lsa ham davlat tomonidan qoplamaslik kelgusi yil hosili uchun ham tahdid soladi.

Ob-havoning noqulay kelishi faqat qishloq xo`jaligiga qiyinchilik keltirmasdan butun mamlakat miqyosida ham qiyinchiliklarni keltiradi. Oziq-ovqat tanqisligi vujudga kelmasligi uchun davlatning maxsus zahiralari bo`lishi maqsadga muvofiqdir. Hosil mo`l bo`lgan yillarda davlat oziq-ovqat mahsulotlarining talabdan oshiq qismini dehqonlardan xarid qilib, maxsus omborlarda saqlashi va ob-havo noqulay kelib, tanqislik vujudga kelgan yillari bu zahiralardan talabni qondirish maqsadida foydalanishi mumkin. Bu tadbir hozirgi vaqtda dunyoning bir qator ilg`or davlatlarida qo`llanib kelinadi va o`zining ijobiy samarasini bermoqda.

2. DAVLATNING QISHLOQ XO`JALIGINI TARTIBGA SOLISH VA QO`LLAB-QUVVATLASHDAGI ASOSIY VAZIFALARI, ULARNI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA USULLARI

O`zbekistonda milliy qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, davlatning qishloq xo`jaligini tartibga solish va qo`llab-quvvatlashdagi asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

1. Huquqiy tartibga solish vazifasi;
2. Barqarorlashtirish vazifasi;
3. Tartibga solish vazifasi;
4. Rag`batlantirish vazifasi;
5. Taqsimlash vazifasi;
6. Ijtimoiy kafolatlash vazifasi;
7. Muhofaza qilish vazifasi;
8. Nazorat etish vazifasi;
9. Tashqi iqtisodiy faoliyatni muqobillashtirish vazifasi;
10. Istiqbolni belgilash vazifasi.

1. Huquqiy tartibga solish vazifasi – davlat agrar iqtisodiyot barqaror rivojlanishini va har bir xo`jalik yurituvchi sub'ekt teng sharoitlarda

faoliyat yuritishini ta'minlashga imkon beruvchi me'yorlar hamda qonunlarni qabul qilish orqali, ijtimoiy- iqtisodiy jarayonlarning huquqiy asoslarini yaratishni nazarda tutadi.

2. **Barqarorlashtirish vazifasi** – agrar iqtisodiyotda inqirozli holatlarni bartaraf etish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining pasayishiga yo'l qo'ymaslik va agrosanoat majmui tarkibining mutanosibligini ta'minlash bilan bog'liq.
3. **Tartibga solish vazifasi** – xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida bozor tuzilmalari bilan davlat boshqaruvining o'zaro manfaatligi hamda uyg'unligini shakllantirishdan iborat.
4. **Rag'batlantirish vazifasi** – milliy iqtisodiyot doirasida qishloq xo'jaligida fan-texnika taraqqiyotini, xususiy tadbirkorlikni, adolatli raqobat kurashini yoki boshqa ustuvor yo'nalishlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash choralari ifodalaydi.
5. **Taqsimlash vazifasi** - ijtimoiy adolat va himoyalash vositasi sifatida daromadlarni qayta taqsimlash, shuningdek, ichki mahsulot tarkibini o'zgartirish maqsadida resurslar taqsimotiga tuzatishlar kiritish bilan bog'liq.
6. **Ijtimoiy kafolatlash vazifasi** – qishloq xo'jaligida ijtimoiy ta'minot va aholi nochor qatlamlarini himoyalashning samarali tizimini yaratish, ishlab chiqarish va taqsimotning ijtimoiy yo'naltirilganligini ta'minlash, ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniy tadbirlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.
7. **Muhofaza qilish vazifasi** agrar ishlab chiqarishni salbiy xarakterdagi tashqi ta'sirlardan (masalan, atrof-muhitning ifloslanishi, qurg'oqchilik yoki tabiiy-ofatlar va boshq.) saqlash, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni tashqi eksportyorlardan yoki jahon bozoridagi kuchli raqobatdan himoyalash kabi vazifalardan iborat.
8. **Nazorat etish vazifasi** - qishloq xo'jaligida qonuniy-me'yoriy hujjatlar, hukumat qarorlari va davlat andozalarining bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish bilan bog'liq.
9. **Tashqi iqtisodiy faoliyatni muqobillashtirish vazifasi** – xalqaro bozorlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportyorlarining manfaatlarini himoyalash, bojxona ta'riflari va soliqlar orqali eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar yaratishni rag'batlantirish, ular uchun qulay iqtisodiy muhit hosil qilish tadbirlaridan iborat.
10. **Istiqbolni belgilash vazifasi** – qishloq xo'jaligini istiqbolda rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, barqaror agrar taraqqiyotning samarali variantlarini izchil amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

3. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AGRAR SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Respublikamizda amalga oshirilayotgan qishloq xo'jaligi sohasidagi davlat siyosati, birinchi navbatda O'zbekistonda mustahkam oziq-ovqat bazasini mustahkamlash, yerdan va suvdan oqilona foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish, mulkchilikda esa davlat monopoliyasini keskin cheklash yo'li bilan, xususiy mulk egalariga keng yo'l ochib berish, qishloqda tadbirkorlikning keng rivojlanishiga erishish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga qaratilgandir.

Hozirgi davrda Respublikamizda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash borasida quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

1. Qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatining me'yoriy-huquqiy negizini takomillashtirish;
2. Qonunda ko'rsatilgan huquqlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik;
3. Korxonalarining ichki faoliyatiga aralashuvning har qanday ko'rinishiga yo'l qo'ymaslik;
4. Qishloq xo'jaligida maqbul baho siyosatini yuritish, doimiy ravishda qishloq xo'jaligi va sanoat tovarlari orasidagi baholar paritetini saqlab boorish;
5. Daromadlar pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik;
6. Ilg'or texnologiya va texnikalar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish;
7. Fuqarolar tadbirkorlik faoliyati bilan erkin shug'ullanishlari va undan manfaatdorligining kafolatlari va sharoitlarini ta'minlash, ularning ishbilarmonlik faolligini oshirish hamda qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish;
8. Moliya-kredit tizimini takomillashtirish hamda korxonalarining kredit manbalari va sarmoyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
9. Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarni kengaytirish va rivojlantirish;
10. Ulgurji va mayda ulgurji savdoni rivojlantirish, korxonalarining xomashyo, axborotlar va texnologiyalardan erkin va to'siqlarsiz foydalanish imkoniyatini kengaytirish, kichik va o'rta biznes korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda sotish tizimini takomillashtirish;
11. Qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyati ko'rsatkichlarining buxgalterlik hisobi va tahlili tizimini takomillashtirish, ular uchun davlat statistika, buxgalteriya va soliq hisobotining soddalashtirilgan tartibini joriy etish;
12. Kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;
13. Pul-kredit tizimining barqaror faoliyatini ta'minlash uchun sug'urta tizimi ahamiyatini oshirish;
14. Yerga mulkchilik, yer va suvdan samarali foydalanish mexanizmini shakllantirish.

Xabaringiz bor, biz o'tgan darslarda suvdan foydalanish mexanizmlaridan biri bo'lgan Respublikamizda suvdan foydalanuvchilar uyushmasi (SFU) tashkil etilganligini qarab chiqqan Edik.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini tartibga solish, muvofiqlashtirish va qo'llab-quvvatlash ishlari bilan shug'ullanadiganlar:

a) tegishli davlat boshqaruvi organlari;

b) Qishloq va suv xo'jaligi Vazirligi;

v) Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi hamda boshqa tuzilmalar.

Shular bilan bir qatorda: Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, Biznes-fond, Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi, tijorat banklari, «Madad», «Birjasavdosug`urta», «Agrosug`urta» sug`urta agentliklari va boshqa institusional tuzilmalar qishloqxo'jalik korxonalariga: biznes-reja tuzish, imtiyozli kreditlar olish va ularni amalga oshirishga ko'maklashadilar. Bunda tijorat banklari, turli jamg'armalar imtiyozli kredit ajratish bilan yordam bersa, sug`urta agentliklari kredit xatari va boshqa favqulodda holatlardan sug`urtalaydi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va muvofiqlashtirish borasida mustahkam huquqiy-me'yoriy asos yaratilgan, bular jumlasiga:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi;

2. «Fuqarolik Kodeksi»;

3. «Yer kodeksi»;

4.«Soliq Kodeksi»

5. «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to`g`risida»gi qonun;

6. «Shirkat xo'jaligi to`g`risida»gi qonun;

7. «Fermer xo'jaligi to`g`risida»gi qonun;

8. «Dehqon xo'jaligi to`g`risida»gi qonun;

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmonlari

10. Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlar respublikamizda qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatining turli jihatlarini tartibga solib turadi va ularning xo'jalik faoliyatiga davlat organlari va tashkilotlarning hamda boshqa organlar va tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat tadbirkorlarning erkinligi, huquqlarini himoya qiladi va ularning faoliyatiga asossiz aralashuvlarni cheklab qo'yadi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish maqsadida fermer xo'jaliklarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi «Fermer xo'jaligi to`g`risida»gi qonunining 29-moddasida: «Davlat qishloq xo'jaligi mahsuloti etishtirish va uni realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini kafolatlaydi», - deb e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 22 avgustdagi 347-sonli «Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to`g`risida»gi qarori bilan

tadbirkorlik sub'ektlarini, jumladan, fermer xo'jaliklarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning engillashtirilgan tartibi joriy etildi. Unga ko'ra, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatiga olish «bir yo'la» tamoyili asosida, ularni avtomatik tarzda hisobga qo'yish bilan amalga oshiriladi. Qarorga muvofiq tuman hokimiyatlari tarkibida davlat ro'yxatiga olish bo'yicha maxsus xizmat tashkil etilgan bo'lib, uning xodimlari tadbirkorni davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq barcha hujjatlarni tayyorlash, ularni yo'l fondi, mehnat, bandlik va ijtimoiy ta'minot bo'limi, soliq hamda statistika organlarida hisobga qo'yish ishlarini o'zlari amalga oshiradilar.

XULOSA

Ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlash mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning davlat tomonidan tartibga olinib turilishini talab qiladi. Bozor sharoitida ishlab chiqarish davlat tomonidan iqtisodiy dastaklar yordamida tartibga solinib turiladi.

Qishloq xo'jaligi o'z xususiyatlariga ko'ra davlat tomonidan tartibga solinib turishga ayniqsa muhtoj. Gap shundaki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bilan juda ko'plab korxonalar shug'ullanadi. Natijada ma'lum ma'noda ideal raqobat muhiti vujudga keladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy muhitga bog'liqligi ham davlat tomonidan aralashuvni talab qiladi. Aks holda juda ko'plab korxonalar ishlab chiqarish natijalariga ko'ra, zarar ko'rishi mumkin.

Qishloq xo'jaligiga davlat juda ko'p dastaklar orqali ta'sir ko'rsatadi. Davlat tomonidan ishlab chiqarishni tartibga solish jarayoni yildan-yilga takomillashtirilib borilmoqda.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solib turish va qo'llab-quvvatlashning mohiyati va zarurati nimada?
2. Davlatning iqtisodiy funksiyalari, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash sohasidagi vazifalari nimalardan iborat?
3. Agrar siyosat nima? o'zbekistonda agrar siyosatni takomillashtirish yo'llari nimalarga asoslanadi?

16-MAVZU: AGROSANOAT MAJMUASIDA MOLIIYa-KREDIT TIZIMINING AMAL QILISH MEXANIZMI

Reja:

1. Agrosanoat majmuasi moliya-kredit tizimining mohiyati va xususiyatlari.
2. Qishloq xo'jaligini kreditlash usullari, shakllari va ularning manbalari.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: 1995 yil. 17-29, 58-74, 88-101, 172-178, 179-194 betlar.
2. O'zbekistonda kichik va o'rta tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab - quvvatlash. -T.: Bosqon, 1998.
3. Hakimov R., Otaqulov M. va boshqalar. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. T.: 2004 yil. 127-143-betlar.
4. Serova E.V. Agrarnaya ekonomika: Uchebnik dlya studentov ekonomicheskix vuzov, fakultetov i spetsialnostey. – M.: GU VShE, 1999.
5. Popov N.A. Ekonomika selskogo xozyaystva: Uchebnik. – M.: Izd-vo «Delo i Servis», 2000.
6. Ishmuhammedov A.E. va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari. O'quv qo'llanma. T.: 2004 yil. XII bob. 93-104 betlar. Moliya va bank tizimi.

1. AGROSANOAT MAJMUASI MOLIIYa-KREDIT TIZIMINING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

Bozor iqtisodiyotidagi har qanday faoliyat pul talab qiladi, moliyani yuzaga keltiradi. Umuman, moliya xalq xo'jaligidagi pul resurslari bilan bog'langan bo'lib, «bunday resurslarni hosil qilish», «taqsimlash» va «ishlatish jarayonlarining shakllanishi» tushunchalaridan iborat.

Moliya, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sharoitlarini ta'minlash va davlatning o'z oldiga qo'ygan maqsadini, vazifalarini amalga oshirish uchun markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul jamg'armalarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlarni o'zida aks ettiruvchi tizimdir.

Markazlashtirilgan moliya deganda davlat byudjeti tizimining va hukumatining byudjetdan tashqari jamg'armalarida jamlanadigan pul mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar tushuniladi.

Markazlashtirilmagan moliya esa korxonalar pul jamg'armalarining doiraviy aylanishi bilan bog'liq munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Moliya pul munosabatlarining ajralmas qismi bo'lib, uning iqtisodiy tizimdagi o'rnini va ahamiyati ana shu pul munosabatlarining shakllanish darajasiga bog'liq. O'zining moddiy mazmuniga ko'ra, moliya mamlakatning moliyaviy resurslarini tashkil etuvchi maqsadli pul mablag'lari jamg'armasini ifodalaydi.

Moliya – bu quyidagi pul munosabatlarini o'zida aks ettiradi:

1-dan, tovar moddiy qiymatliklarni xarid etishni, mahsulotni, ish va xizmatlarni realizatsiya qilish jarayonidagi korxonalar o'rtasidagi pul munosabatlarini aks ettiradi;

2-dan, moliya - markazlashgan pul mablag`lari jamg`armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish yuzasidan vujudga keladigan korxonalar o`rtasidagi pul munosabatlarini aks ettiradi;

3-dan, moliya – bu byudjet tizimiga soliqlar to`lash va xarajatlarni moliyalashtirish jarayonida korxonalar bilan davlat o`rtasida vujudga keladigan pul munosabatlarini aks ettiradi;

4-dan, moliya – bu to`lovlarni amalga oshirish va resurslarni xarid etishda korxonalar o`rtasidagi uy xo`jaligi va byudjetdan tashqari jamg`armalar o`rtasida vujudga keladigan pul munosabatlarini aks ettiradi;

5-dan, moliya - byudjet tizimining alohida bo`g`inlari o`rtasida vujudga keladigan pul munosabatlarini aks ettiradi;

6-dan, moliya - sug`urta xolatlari vujudga kelganda zararlarni qoplash va sug`urta to`lovlarni amalga oshirishda korxonalar, uy xo`jaligi va sug`urta organlari o`rtasida vujudga keladigan pul munosabatlarini aks ettiradi.

Pul mablag`lari hosil bo`lishining asosiy moddiy manbai bo`lib, mamlakatning milliy daromadi, ya'ni yangitdan yaratilgan qiymat yoki YaIMdan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalarining va mehnat qurollarining chegirib tashlangan qismi xizmat qiladi.

Moliyasiz milliy daromadni taqsimlab bo`lmaydi.

Moliya va kredit o`zaro bog`langan kategoriyalar bo`lib, ular yordamida korxonalarining kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida pul jamg`armalari doiraviy aylanishi ta'minlanadi.

Kredit bank tizimi va ixtisoslashgan moliya-kredit muassasalari orqali ssuda jamg`armasining harakatini ifodalaydi.

Qishloq xo`jaligi korxonalarini moliyasining mohiyati nimadan iborat? Qishloq xo`jaligi korxonalarini moliyasining mohiyati 1-navbatda qishloq xo`jaligining o`ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Qishloq xo`jaligida yer, chorva mollari va boshqa tabiiy boyliklar ishlab chiqarish jarayoniga jalb etilib, bu uning iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan farqlanishiga sabab bo`ladi. Ayniqsa, qishloq xo`jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo`lgan yer boshqa asosiy vositalar singari eskirmaydi (amortizatsiya qilinmaydi) va shu sababli mahsulot tannarxini shakllantirishda ishtirok etmaydi. Lekin, shu bilan bir vaqtda yer uchastkalarining tabiiy unumdorlik darajasi va joylashgan o`rni qishloq xo`jaligi korxonalarida differentsial daromad (renta) hosil bo`lishiga sabab bo`ladi. Qishloq xo`jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo`lgan yer, boshqa ishlab chiqarish fondlarining muhim qismini mahsulodor mollar va ishchi hayvonlar tashkil etadi. Lekin, ularni takror ishlab chiqarish jarayoni bevosita qishloq xo`jaligining o`zida amalga oshiriladi. Yer singari mahsulodor chorva mollariga nisbatan ham amortizatsiya hisoblanmaydi va mahsulot tannarxi shakllanishida ishtirok etmaydi.

Qishloq xo`jaligining o`ziga xos yana bir xususiyati shundaki, ishlatiladigan ko`pgina xomashyo va materiallar bevosita korxonaning o`zida yaratilgan mahsulotning ma'lum bir qismi realizatsiya qilinmasdan korxonaning o`zida takror ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun korxonaning o`zida olib qolinadi. Masalan, podani to`ldirish uchun yosh mollar, urug`lik, chorva

mollari uchun xashak, ozuqa, mahalliy o'g'it sifatida go'ng, o'simlikchilikda esa ekin uchun urug'lik va boshqalar.

Qishloq xo'jaligining o'ziga xos yana bir xususiyati shundaki, chorva mollari boqish va o'simliklarni parvarish qilish, ishlab chiqarish jarayoniga aylanma mablag'larning uzoq vaqt davomida aylanish 1 yilgacha davom etsa, chorvachilikda esa 9 oygacha davom etadi, natijada qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi yil oxirida asosan IV chorakda realizatsiya qilinadi va pul tushumining bir maromda aylanishiga imkon bermaydi. Bu esa xo'jalikning yakuniy moliyaviy natijalarini faqat yil yakuniga ko'ra aniqlashni taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligining yana bir o'ziga xos xususiyati – bu ishlab chiqarishining tabiiy-iqlim sharoitlariga bog'liqligi. Masalan, qurg'oqchilik yoki suv toshqini, hosil bo'lmay qolishi yoki past hosildorlik va shunga o'xshashboshqa tabiiy ofatlarning bo'lib turishi, bunga qarshi esa korxonalarining moddiy zahiralarini va pul zahira fondlarini bo'lishini taqozo etadi.

2. QISHLOQ XO'JALIGINI KREDITLASH USULLARI, SHAKLLARI VA ULARNING MANBALARI

Qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini moliyalashtirishda korxonalar mablag'lari yetarli bo'lmagan holatlarda chetdan qarzga mablag' jalb etishga to'g'ri keladi. Chetdan jalb etiladigan qarz mablag'lari quyidagi manbalar evaziga bo'lishi mumkin:

1. Tijorat banklarining kreditlari;
2. Byudjetdan tashqari jamg'armalarning kreditlari;
3. Xalqaro moliya tashkilotlarining mablag'lari, lekin tijorat banklari loyihalari orqali;
4. Davlat byudjetining mablag'lari hisobidan kreditlar;
5. Kredit ittifoqlari va boshqa kredit beruvchi sub'ektlar kreditlari.

Tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligi korxonalarini kreditlash ular faoliyatini moliyalashtirishning eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Chunki, u qishloq xo'jaligi korxonasi va kredit tashkiloti o'rtasida tegishli shartnomaviy munosabatlarni shakllantirish orqali o'rnatiladigan moliyaviy munosabatdir. Bu munosabatlarning markaziy bo'g'ini bo'lib kredit shartnomasi hisoblanadi, chunki bu shartnoma ssudaning ta'minlanganligi, kreditlar o'z vaqtida foizi bilan qaytarilishining huquqiy asoslarini belgilab beradi.

Tijorat banklari tomonidan kredit berish muddatliligi, o'z vaqtida qaytarib berish, to'lovliligi va ta'minlanganlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Muddatlilik tamoyili shuni bildiradiki, kreditlar taqdim etish muddatiga ko'ra qisqa, o'rta va uzoq muddatga ajratiladi.

Qisqa muddatli kreditlar, odatda, joriy ishlab chiqarishni aylanma mablag`lar bilan ta'minlash maqsadida, nisbatan yuqori foizlarda va bir yilgacha muddatda qaytarish sharti bilan beriladi.

O`rta muddatli kreditlar 1 yildan 5 yilgacha muddatga, ishlab chiqarishning xususiyati sarflangan investitsiyalarni shu muddat ichida to`la qoplash imkonini beradigan sohalarga beriladi.

Uzoq muddatli kreditlar 5 yildan ko`p muddatga, investision loyihalarni moliyalashtirish uchun, odatda, ishlab chiqarishni texnik qurollantirish, qayta qurish va kapital ta'mirlash maqsadlariga beriladi.

Qaytarishlik tamoyili qarzdorning kreditni to`liq hajmda kreditorga qaytarishi bo`yicha javobgarligini ajratadi.

To`lovlilik tamoyiliga esa kreditlash shartlariga ko`ra, qarzdor kreditorga kreditni qaytarish kafolatini ta'minlashi lozimligida kelib chiqadi. Chunki, qarzdor kreditni qaytarishdan bosh tortganda, kreditor qarzdorning yoki qarzdorga tegishli kafolat bergan, yoki kafillik bergan yuridik shaxsning mol-mulkidan tegishli miqdoridagi mablag`larni o`z tasarrufiga olish imkoniyatiga ega bo`lishi kerak.

Lekin, banklar o`zlari bilan doimiy aloqada bo`lgan, bank raqamida muntazam ravishda pul oqimi mavjud, yaxshi obro`ga va kredit tarixiga ega bo`lgan qarz oluvchilarga bu ta'minot turlarini talab qilmasdan, blankali, ya'ni ishonchli kredit berishlari ham mumkin.

Bank kreditlari loyihaning xususiyatiga ko`ra, imtiyozli kredit yoki imtiyozsiz kredit shartlarida berilishi ham mumkin.

Imtiyozli kreditlar ustivor yo`nalishlar uchun, odatda, davlat dasturlari doirasida investision loyihalarni moliyalashtirish maqsadida beriladi.

Ayrim hollarda esa davlat qishloq xo`jaligining o`ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, qishloq xo`jaligida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida qisqa muddatli kreditlarni qaytarish muddatini uzaytirishga imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, barcha xo`jalik yurituvchi sub'ektlar uchun aylanma mablag`larni to`ldirishga beriladigan qisqa muddatli kreditlar, odatda, 1 yilgacha muddatga berilsa, qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish uchun fermer xo`jaliklariga, shuningdek, yuridik shaxs maqomiga ega bo`lgan dehqon xo`jaliklariga aylanma mablag`larni to`ldirish uchun beriladigan bunday kreditlar, odatda, 2 yildan kam bo`lmagan muddatga beriladi.

Lekin, fermer va dehqon xo`jaliklarining o`z aylanma mablag`larini to`ldirish maqsadida, qishloq xo`jaligi bog`liq bo`lmagan faoliyati uchun olingan kreditdan foydalanish muddati, uni qaytarish muddati uzaytirilishini hisobga olgan holda, 12 oydan oshmasligi kerak.

17-MAVZU. YEVROPA HAMJAMIYATINING YaGONA AGRAR SANOATI

Reja:

1. Yevropa hamjamiyati yagona agrar siyosatining zaruriyati, ahamiyati va rivojlanishi.
2. Yevropa yagona agrar siyosatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: 1995 yil, 102-118 betlar.
 2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997 yil. 296-323 bet. Jahon hamjamiyati bilan hamkorlik.
 3. O'zbekistonda kichik va o'rta tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. T.: 1998 yil.
 4. Hakimov R., Otaqulov M. va boshqalar. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. T.: 2004 yil. 144-148 betlar.
 5. Popov N.A. Ekonomika selskogo xozyaystvo. Uchebnik. M.: izdatelstvo «Demo i servis», 2000 god.
- Siyosiy partiyalar. Spravochnik. Ruscha nashrdan tarjima. «O'zbekiston» nashriyoti, bundan 33 ta Yevropa davlatlari to'g'risida va 50 ta AQSh davlatlari to'g'risida ma'lumot berilgan.

1. YEVROPA HAMJAMIYATI YAGONA AGRAR SIYOSATINING ZARURIYATI, AHAMIYATI VA RIVOJLANISHI

Ma'lumki, ikkinchi jahon urushi 1941 yilda boshlanib 1945 yil 9 mayda tugagan edi. Shundan keyin Yevropa davlatlari uchun integratsiyalashuv jarayoniga xavfsizlikni ta'minlaydigan eng asosiy omil sifatida boshlandi va shu maqsada 1948 yilda Yevropa Iqtisodiy Kooperatsiyasi Tashkiloti tuzuldi. Natijada Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg yagona bojxona ittifoqi vujudga keltirdilar.

Belgiya to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, bu G'arbiy Yevropada joylashgan, territoriyasi – 30,5 ming km². Belgiya konstitutsion monarxiya. Davlat boshlig'i - Qirol.

Qonun chiqaruvchilik hokimiyati vakillari palatasi deputat va senatdan iborat parlament qo'lida. Aholisi to'g'risida ma'lumot hozirga yo'q, lekin 1985 yilda 10 mln kishi bo'lgan (spravochnik 94-bet).

Niderlandiya (Niderlandiya Qirolligi) G'arbiy Yevropaning Shimoliy sohilidagi davlat. Territoriyasi – 41,1 ming km². Niderlandiya - konstitutsion monarxiya. Qonun chiqaruvchilik hokimiyati, qirol va 2 palatadan iborat, bosh shtatlar (parlament) qo'lida.

Ijroiya hokimiyatini ministrlar kabineti amalga oshiradi. Aholisi to'g'risida hozirgi yangi ma'lumot yo'q. Lekin 1984 yilda 14,6 mln. kishi bo'lgan (spravochnik 89-bet).

Lyuksemburg (Lyuksemburg Buyuk Gretsoqligi) - G'arbiy Yevropadagi davlat. Territoriyasi – 2586 km². Lyuksemburg – konstitutsion monarxiya.

Davlat boshlig'i – Buyuk gertsog. Qonun chiqaruvchilik hokimiyatini deputatlar palatasi amalga oshiradi, hukumat shu palata oldida mas'uldir.

1867 yilgi London konferensiyasi Lyuksemburgni «abadiy betaraf» davlat deb e'lon qildi, ammo 1948 yilda betaraflik to'g'risidagi modda Lyuksemburgning Konstitusiyasidan chiqarib tashlandi. 1949 yilda Lyuksemburgning o'ng doiralari mamlakatni NATOga tortdilar.

Lyuksemburg Benilyuks (Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg) iqtisodiy Hamkorligiga (EIH) va G'arbiy Yevropa ittifoqiga ham kiradi.

Yevropa davlatlarining iqtisodiy integratsiyalashuvida Marshal rejasi katta ahamiyat kasb etdi. Integratsiyalashuv natijasida 1948-1952 yillarda AQSh va Kanada davlatlaridan Yevropaga 25 mlrd. AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb etildi. 1951 yilda Yevropa ko'mir va po'lat hamjamiati vujudga keldi, bu hamjamiyat natijasida ko'mir va po'lat uchun bojxona to'lovlari, kvotalar va subsidiyalar bekor qilindi.

1941-45 yillardagi urushdan keyingi yillarda Yevropa qishloq xo'jaligi juda yomon ahvolda edi. Bu davlatlardagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi AQSh va Kanadadagidan bir necha marta qimmat edi, bu esa, Yevropa davlatlari uchun juda katta muammolarni keltirib chiqardi. Bunday muammolarni echish zarurati esa, qishloq xo'jaligi imkoniyatlarini kengaytirish va Yevropa davlatlari o'rtasida mahsulotlarning erkin harakatlanishini ta'minlashdan iborat edi. Buning uchun Yevropa davlatlari arzon import mahsulotlaridan himoyalani, o'zlarining qishloq xo'jaligini mustahkamlash mustahkam asosga qo'yishga kirishdilar. Buning natijasida 1957 yilda Yevropa davlatlaridan 6 tasi Rim shahrida Rim shartnomasini imzoladilar. Bu shartnoma Yevropa hamjamiyati tashkil etilishiga asos soldi va bu shartnomaning 38-47 - moddalari Yevropa yagona agrar siyosatining asosiy tamoyillarini belgilab berdi. Ushbu hujjat bo'yicha Yevropa agrarsiyosatining maqsadlarini quyidagicha belgilandi:

1. Ishlab chiqarish omillaridan optimal ishlab chiqarish, foydalanish qishloq xo'jaligining rivojlanishiga texnikaviy yordam ko'rsatish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishni ko'paytirish;
2. Qishloq joylarda yashaydiganlarga yaxshi turmush darajasini yaratish, ayniqsa, qishloq xo'jaligida mehnat qilayotganlar daromadini oshirish evaziga ularning turmush darajasini keskin oshirish;
3. Bozorni barqarorlashtirish;
4. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining kafolotli ta'minotini vujudga keltirish;
5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining iste'molchilar uchun maqbul baholarini vujudga keltirish.

Yevropa ittifoqi Vazirlarlar Kengashi 1962 yilda don mahsulotlari uchun yagona Yevropa bozorini tartibga solish va solib turish mexanizmlari ishlab chiqildi va bu mexanizmlar quyidagilardan iborat:

1. Maqsadli narxlarni o'rnatish;
2. Intervension narxlar joriy qilish;
3. Ostona narxlar o'rnatish;
4. O'zgaruvchan import tariflaridan foydalani;
5. Subsidiyalaridan foydalainsh.

Bulardan tashqari, yagona don bozorini moliyalashtirish tartibini ham joriy qildi.

Lekin, Yevropa yagona agrar bozorini o`rnatish bo`yicha qilingan katta ishlarga qaramasdan bu jarayon oson kechmadi. Chunki, 1962 yilda yagona don bozori o`rnatish bo`yicha kelishuv 1967 yilda amalga oshdi, yoki markazlashgan moliyalashtirishni amalga oshirish uchun tuzilgan Yevropa qishloq xo`jaligiga yo`naltirilgan fond va kafolat fondiga pul ajratish esa 1969 yilga kelib amalga oshirildi. Natijada, ko`p qiyinchiliklardan keyin 1970 yilga kelib Yevropa yagona agrar siyosati unga a'zo davlatlari uchun xizmat qiladigan juda katta amaliy kuchga aylandi.

1972 yilda esa Yevropa hamjamiyatining «Qishloq xo`jaligi –80» nomli Mansxold rejasi qabul qilindi, ushbu rejaga asosan 1980 yilga kelib, qishloq xo`jaligida band bo`lganlar sonini 5 mln. kishiga kamaytirish va fermerlarning o`rtacha hajmini oshirish vazifasini qo`yiladi, lekin, bu ixtiyoriy edi.

«Qishloq xo`jaligi –80» nomli «Qishloq xo`jaligi –80» Mansxold rejasida quyidagi asosiy tadbirlarni amalga oshirish belgilab berilgan:

1. 55-65 yoshdan oshgan fermerlar o`z faoliyatlarini to`xtatganda ularga yiliga ma'lum miqdorda pul mablag`lari berishni tashkil etish;
2. istiqbolli deb topilgan fermerlarga imtiyozli kreditlar va kredit kafolotlari berish;
3. fermerlar uchun axborot va maslahat xizmatlarini tashkil etish va ularni rivojlantirish;
4. marketing xizmatlarini rivojlantirish yuzasidan tashkil etilayotgan uyushmalarni va birlashmalarni qo`llab-quvvatlash;
5. Qishloq xo`jaligiga yangi yerlarni jalb etishni cheklash.

1972 yilda «Qishloq xo`jaligi –80» nomli Mansxold rejasi qabul qilingandan oradan 20 yil o`tgach, 1992 yilda Yevropa yagona agrar siyosatini rivojlantirish bo`yicha yangi reja – Mak-Sherri rejasi qabul qilindi.

Bu rejaning asosiy mazmuni quyidagilardan o`z ifadasini topdi:

1. Dehqonchilik va qoramolchilik mahsulotlariga bo`lgan narx dunyo darajasigi yaqinlashtirilishi kerak, chunki 90-yillarda ham Yevropa davlatlarida qishloq xo`jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish narxi AQSh va Kanadadagi darajadan ancha qimmat bo`lgan;
2. Fermerlarga narxlarni tushirganlari uchun zararni qoplaydigan to`lovlar to`lashni tashkil etish;
3. Zararni qoplash to`lovlari ishlab chiqarishdan yerlarni ozod qilgan va 1 ga yerga chorva mollarining maksimal biriktirilishini ta'minlagan fermerlarga berish;
4. Fermerlarning ekologik masalalarni to`g`ri hal etishda qatnashishlari, erta pensiyaga chiqishlarini qo`llab-quvvatlash.

1997 yilda Yevropa Hamjamiyati Komissiyasi «2000 yil kun tartibi: qishloq xo`jaligi» hujjatini e'lon qildi.

2. YEVROPA YaGONA AGRAR SIYO SATIDA QISHLOQ XO`JALIGI MAHSULOTLARI NARXLARINI QO`LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI

Yuqorida aytib o`tilgandek, Yevropa hamjamiyatiga a'zo davlatlar o`rtasida olib borilayotgan yagona agrar siyosat o`ziga xos mexanizmlar bilan tartibga solinib turiladi. Bu mexanizmlarning asosini qishloq xo`jaligi mahsulotlarining narxlarini yagona bozorda qo`llab-quvvatlab turish tashkil etadi. Qishloq xo`jalik mahsulotlarining narxlarini bozorda qo`llab-quvvatlashning asoslaridan biri esa – maqsadli narxlar hisoblanadi.

Maqsadli narxlar qanday narxlar? Maqsadli narxlar biror mahsulot eng kam ta'minlangan joylarda xohishi bo`yicha o`rnatilishi mumkin bo`lgan narxdir.

Masalan, donchilikda maqsadli narx o`rnatilgan, joy Germaniyaning Disburg shahri deb qabul qilingan, chunki Disburg shahri don bilan nisbatan yaxshi ta'minlanmagan zona hisoblanadi.

Don ishlab chiqaruvchi asosiy zona deb esa Fransiyaning shimoliy qismida joylashgan Orme shahri qabul qilingan. Maqsadli narxlar har yili Yevropa Hamjamiyatining Vazirlar mahkamasining Kengashi tomonidan o`rnatiladi va u barcha hisob-kitoblarning asosini tashkil topadi.

Intervension narxlar qanday narxlar? Interventsion narxlar maqsadli narxlardan past o`rnatiladi. Bu narxlarning asosiy maqsadi ichki narxlarning ma'lum miqdordan pasayib ketmasligini ta'minlashdir.

Maqsadli narxlar bilan interventsion narxlar o`rtasidagi farq donning Fransiyaning Orme shahridan Germaniyaning Disburg shahriga olib kelish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar miqdorida bo`ladi.

Agar bozorda narx interventsion narxlardan past bo`lsa, bunday paytda interventsion idoralar o`z ishini boshlaydi, ya'ni invertatsion idoralar donni fermerlardan interventsion narxlarda sotib ola boshlaydilar.

Agarda bozor narxi interventsion narxdan yuqori bo`lgan taqdirda fermerlar o`z mahsulotlarini bozorda erkin sotadilar.

Intervension idoralar sotib olgan mahsulotlarini zararga bo`lsada, chetga eksport qiladilar.

Intervension narxlar dunyo narxlaridan past bo`lishi katta salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, bunday sharoitda chetdan mahsulotlar kirib kelishi ko`payadi, shu sababli ham ikkinchi darajadagi himoya tartibi o`rnatiladi bu himoya tartibi ostona narxlari orqali amalga oshiriladi. Bu himoya tartibini ba'zida minimal import narxlari deb ham yuritiladi.

Ostona narxlari mahsulotni asosiy iste'mol qiluvchi zonaga uni jo`natadigan asosiy portdan olib kelish xarajatlarini maqsadli narxlardan ajratish natijasida aniqlanadi.

Donchilikda asosiy don iste'mol qiladigan zona Germaniyaning Disburg shahri deb qabul qilingan, donni jo`natadigan asosiy port esa Rotterdam deb qabul qilingan.

Ostona narxlari o`zgaruvchan import tarifini aniqlashning asosi hisoblanadi.

O`zgaruvchan import tariflari ostona narxlari bilan dunyo narxlari o`rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Yevropa Hamjamiati davlatlari qishloq xo'jaligi mahsulotlari importi bilan bir qatorda ularning eksporti bilan ham shug'ullanadilar.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining dunyo narxlari, odatda, Yevropa Hamjamiyati davlatlaridagidan ancha past. Bunday holda eksportni amalga oshirish ma'lum zararlar bilan bog'liq. Bu zararlarni qoplash uchun eksport bilan shug'ullanganlarga eksport subsidiyalari beriladi va bu eksport subsidiyasi dunyo narxlari bilan intervension narxlar o'rtasidagi farq sifatida yuzaga chiqadi.

Fermalar eksport bilan shug'ullanishlari uchun maxsus tenderda ishtirok etadilar va uni yutib chiqqanlarga eksport bilan shug'ullanish huquqi beriladi. Faqat tenderda yutib chiqqanlargagina eksport subsidiyalari beriladi.

XULOSA

Bugungi kunda oziq-ovqat ishlab chiqarishni ko'paytirish alohida olingan bir davlatda ma'lum chegaralanishlarga ega, chunki bunday davlatlarning imkoniyatlari cheklangan. Shu sababli, bir nechta davlatlarning o'zaro kelishgan holda oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish natijalarini ochadi. Bu jihatdan birgalashib yagona, bir siyosat orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning samaradorligini Yevropa hamjamiyati misolida ko'rish mumkin.

Shu jihatdan Markaziy Osiyo davlatlarining agrar sohadagi imkoniyatlarini kelishilgan holda amalga oshirishlari yaxshi samara berishi mumkin. Albatta, keyingi yillarda bu boradi katta ishlar amalga oshirilmoqda, masalan, suv resurslaridan samarali foydalanish masalalari va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish masalalari hal etilmoqda.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Yevropa hamjamiyati davlatlarining yagona agrar siyosati qachon amalga osha boshladi?
2. Ushbu yagona agrar siyosatining mohiyatini tushuntirib bering?
3. Yevropa hamjamiyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bahosini tartibga solish mezanizmlarining nimadan iborat?

MUNDARIJA

1-MAVZU: «AGROSANOAT MAJMUASI IQTISODIYOTI» FANINING PREDMETI, VAZIFALARI VA O'RGANISH USULLARI

7

1. Agrosanoat majmuasining tarkibiy tuzilishi to'g'risida tushuncha. 7

2.«Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti»fanining predmeti, boshqa fanlar bilan bog'liqligi va o'rni. 9

3.«Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fanini o'rganish usullari. 11

4.«Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fanining vazifalari.

13

5. Agrosanoat majmuasi rivojlanishining asosiy muammolari.

14

6. Chet el davlatlari tajribasi va uning Respublikada joriy qilish yo`llari.

14

2-MAVZU: AGROSANOAT MAJMUASI TARMOQLARI UCHUN ISHLAB CHIQRISH VOSITALARINI ISHLAB CHIQRUVCHI SOHA VA UNING TARKIBIY TUZILISHI

16

1. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi sohaning tarkibiy tuzilishi, bu sohaning ahamiyati va iqtisodiyotda tutgan o`rni. 16

2. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi sohaning hozirgi holati va rivojlanish yo`nalishlari.

19

3-MAVZU: AGROSANOAT MAJMUASINING XO`JALIK MAHSULOTLARINI TAYYORLASH, QAYTA ISHLASH VA ISTE'MOLCHILARGA YETKAZIB BERUVCHI SOHASI (3-SOHASI)

21

1. ASM qishloq xo`jalik mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi soha tarkibi, ahamiyati va iqtisodiyotda tutgan o`rni. 23

2. ASM qishloq xo`jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi sohaning hozirgi holati va rivojlantirish yo`nalishlari.

25

4-MAVZU: QISHLOQ XO`JALIGI - AGROSANOAT MAJMUASINING ASOSIY BO`G`INI (ASMNING 2-SOHASI)

27

1. Qishloq xo`jaligi - agrosanoat majmuasining asosiy bo`g`ini va uning o`ziga xos xususiyatlari. 28

2. Qishloq xo`jaligining O`zbekiston iqtisodiyotida tutgan o`rni va ahamiyati. 30

3. Shirkat xo`jaliklari va ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslari.

31

4. Fermer xo`jaliklari va ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslari.

33

5. Dehqon xo`jaliklari va ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslari.

34

6. Qishloq xo`jaligini boshqarish mexanizmining erkinlashtirilishi.

35

5-MAVZU: ASMNING INFRATUZILMASI VA TARKIBIY TUZILISHI

39

1. ASM ishlab chiqarish infratuzilmasining mohiyati, tarkibi, ahamiyati, iqtisodiyotda tutgan o`rni va hozirgi holati.

39

2. ASM ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlantirish yo`nalishlari.

41

3. ASM ijtimoiy infratuzilmasining iqtisodiyotni rivojlantirishda tutgan o`rni.

41

4. LSM ijtimoiy infratuzilmasining rivojlantirish yo`llari.

42

6-MAVZU: AGROSANOAT MAJMUASIDA YER-SUV MUNOSABATLARI VA

ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

43

1. Qishloq xo`jaligi yer fondining tarkibi, ahamiyati va o`ziga xos xususiyatlari.
44
2. Yer fondi klasifikatsiyasi, qishloq xo`jaligida yaroqli yerlar, yer fondlardan foydalanish darajasi va samaradorligini ifodalovchi ko`rsatkichlar.
45
3. Yerdan, suvdan foydalanish darajasi va samaradorligini oshirish yo`llari.
47
4. Yer monitoringi va davlat Yer Kadastri.
48
5. Yerdan, suvdan foydalanish samaradorligini ifodalovchi kursatkichlar, ularni aniqlash tartibi
50

7-MAVZU: QISHLOQ XO`JALIGIDA MEHNAT RESURLARI VA ULARDAN

FOYDALANISH

51

1. Qishloq xo`jaligi mehnat resurslari tushunchasi va uning tarkibi. 51
2. Mehnat resurslaridan foydalanish ko`rsatkichlari, mehnat unumdorligi va uni hisoblash usullari. 52
3. Qishloq xo`jaligida mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligini oshirish yo`llari.
53

8-MAVZU: QISHLOQ XO`JALIGIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI

VA MAHSULOT TANNARXI

55

1. Tannarx tushunchasi va uning mohiyati.
56
2. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarining tannarxini hisoblash tartibi.
57
3. Qishloq xo`jaligi mahsulotlari tannarxini pasaytirish yo`llari.
59
4. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarining tannarx darajasi va dinamikasi.
60
5. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarining tannarxini hisoblash tartibi
63

9-MAVZU. ASM TARMOQLARINING MAHSULOTLARINING BAHOLARI

65

1. Baho tushunchasi, iqtisodiy ahamiyati va funksiyalari.
65
2. Qishloq xo`jaligida baholar (narxlar) tizimi, ularning darajasi, dinamikasi.
68
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baholarni takomillashtirish masalalari.

71

10-MAVZU. QISHLOQ XO'JALIGIDA KAPITAL QUYILMALAR (INVESTISIYALAR) VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

73

1. Kapital qo'yilmalar (investisiyalar) haqida tushuncha, ularning ijtimoiy-iqtisodiy zarurligi va ahamiyati.

73

2. Qishloq xo'jaligida sarflanayotgan kapital qo'yilamalarning manbalari, ularning sarflanish yunalishlari

75

3. Kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatgichlar va ularni aniqlash. 78

4. Kapital qo'yilamalar darajasi, dinamikasi va ular iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi

79

5. Kapital qo'yilmalar ko'lamini kengaytirish va samaradorligini oshirish yullari.

82

11-MAVZU: ILMIIY-TEXNIK TARAQQIYO'T VA QISHLOQ XO'JALIGINI

INTENSIVLASH TIRISH

83

1. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning iqtisodiy mohiyati

84

2. Fan-texnika taraqqiyoti. uning yo'nalishlari va samarali texnologiyalar.

85

3. Fan-texnika taraqqiyoti va intensivlashtirish.

87

4. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirish darajasi va iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatgichlar va ularni aniqlash tartibi.

87

12-MAVZU: QISHLOQ XUJALIGINING MODDIY-TEXNIKA RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

83

1. Qishloq xo'jaligi moddiy - texnika resurslari tushunchasining ahamiyati.

89

2. Qishloq xo'jaligida asosiy fondlar va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari.

91

3. Asosiy fondlardan doydalanish samaradorligini oshirish yullari.

93

4. Aylanma mablag'lar va ulardan foydalanish.

93

13-MAVZU. «QISHLOQ XO'JALIGI MARKETINGI» TUSHUNCHASI, UNING MOHIYATI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

97

1. «Marketing» tushunchasi, uning mohiyati va samaradorligi.

97

2. Qishloq xo'jaligi marketing funksiyalari.

99

3. Qishloq xo'jaligi marketing strategiyasini tuzish.

100

14-MAVZU: QISHLOQ XO`JALIGINING YALPI VA TOVAR MAHSULOTLARI, ULARNING TAQSIMLANISHI VA KO`PAYTIRISH YO`LLARI

103

1. Qishloq xo`jaligining yalpi va tovar mahsuloti haqida tushuncha, ularning ahamiyati. 103
2. Qishloq xo`jaligining yalpi mahsuloti tarkibi dinamikasi (o`zgarishi). 105
3. Qishloq xo`jalik mahsulotlarini taqsimlash, sotish va ularning tovarlilik darajasi. 106
4. Yalpi mahsulotni ko`paytirish, uning tovarlilik darajasini oshirish yo`llari. 107

15-MAVZU: QISHLOQ XO`JALIGINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA QO`LLAB-QUVVATLASH

110

1. Qishloq xo`jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo`llab-quvvatlashning mohiyati va zaruriyati 110
2. Davlatning qishloq xo`jaligini tartibga solish va qo`llab-quvvatlashdagi asosiy vazifalari. ularni amalga oshirish shakllari va usullari 112
3. O`zbekiston respublikasining agrar siyosati va uni takomillashtirish yo`llari 113

16-MAVZU: AGROSANOAT MAJMUASIDA MOLIYA-KREDIT TIZIMINING AMAL QILISH MEXANIZMI

116

1. Agrosanoat majmuasi moliya-kredit tizimining mohiyati va xususiyatlari. 116
2. Qishloq xo`jaligini kreditlash usullari, shakllari va ularning manbalari. 118

17-MAVZU. YEVROPA HAMJAMIYATINING YAGONA AGRAR SANOATI

119

1. Yevropa hamjamiyati yagona agrar siyosatining zaruriyati, ahamiyati va rivojlanishi. 119
2. Yevropa yagona agrar siyosatida qishloq xo`jaligi mahsulotlari narxlarini qo`llab-quvvatlash mexanizmi. 122

Barakatov Boqi – iqtisod fanlari nomzodi, «iqtisodiyot» kafedrası dotsenti. Uning ilmiy ishlari qorako`lchilik iqtisodiyotini rivojlantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shu mavzuga doir ikkita monografiya, 40 dan ortiq ilmiy-amaliy maqolalar, ikkita ma'ruzalar matni muallifi. O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi.

**Buxoro Davlat universiteti «Ziyo Rizograf» ishlab
chiqarish korxonasida chop etildi. Buyurtma №184
Adadi 260 nusxa.Buxoro shahri M.iqbol ko'chasi,11-uy**